

RASULOV R. USMONOVA M. MIRAZIZOV A.

O‘ZBEK TILI

TOSHKENT – 2003

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori professor M. Mirtojiyev

filologiya fanlari momzodi professor H. Jamolxonov

filologiya fanlari momzodi dotsent H. Ismoilov

Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashining 2003- yil
27- fevralidagi 8- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

© Nizomiy nomidagi TDPU. 2003.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Binobarin, tilga hurmat – elga hurmat, tilga e'tibor elga e'tibordir. Chunki til xalqimiz tarixi, xalqimiz boyligi, hayotimiz ko'zgusidir. Shunga ko'ra yurtboshimiz Oliy Majlisning IX sessiyasida shunday deydi: «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin».¹ Ayni fikrlarning rusiyzabon o'rtoqlarga ham taalluqli ekani shak- shubhasizdir.

Qo'lingizdagi «O'zbek tili» darsligi respublika oliy o'quv yurtlari rus guruhi talabalari uchun mo'ljallangan.

Darslikda nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlar uyg'unlikda olib borildi.

Darslikda asosiy diqqat- e'tibor, maqsadga to'la muvofiq, amaliyotga – so'zlashuv nutqiga - nutq o'stirish muammosiga qaratildi.

Shunga ko'ra, darslikning asosiy qismini mashg'ulotlar, topshiriqlar, matnlar, tarjimalar va lug'atlar tashkil etadi. Shuningdek, darslikda rusiyzabon talabalarga amaliyotda erkin foydalanishlari uchun faol ishlatiladigan ayrim ish hujjatlari ham «taqdim etiladi».

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. 1997. 9-bet.

O‘ZBEK VA RUS TILLARI HAQIDA

С точки зрения происхождения, узбекский язык относится к тюркской группе алтайских языков. Русский язык относится к восточнославянским языкам. С типологической точки зрения узбекский относят к агглютинативным, а русский к флективным языкам.

Эти факты и определяют наличие некоторых различий в выше названных языках.

Прежде всего, необходимо подчеркнуть то, что в узбекском языке категория рода отсутствует полностью, так же нет категории вида глагола.

В узбекском языке имеется ряд специфических звуков речи: Н, Q, O‘, G‘. Нет звуков Ы, Щ, Ц.

Количество частей речи одинаковое, однако в узбекском языке употребляются послелогии: *kabi* (как), *uchun* (для), *bilan* (с) и т.д., в отличие от русского, где употребляют предлоги.

В узбекском языке формобразование происходит прибавлением специальных аффиксов и в основном один аффикс имеет лишь одно значение: *kitoblarim*. –*lar* - аффикс множественного числа, – *im* – аффикс принадлежности.

Имена существительные в обоих языках имеют по три грамматических категорий. Как сказано выше, в узбекском отсутствует категория рода, и существительное имеет категорию принадлежности.

В узбекском языке прилагательное имеет лишь категорию степени сравнения и практически не меняет своей формы: *chirouli uyu* (красивый дом), *chirouli xona* (красивая комната), *chirouli ko‘ylak* (красивое платье), *chirouli gullar* (красивые цветы), т.е. оно примыкает к существительному. В русском же языке прилагательное согласуется с существительным в роде, числе и падеже, а так же, имеет краткую форму: красивый – красив.

Числительное в узбекском языке не имеет грамматических категорий.

В узбекском языке 7 разрядов местоимений, в русском их 9.

Как отмечалось выше, глагол в узбекском языке не имеет категории вида. Немного сложнее в узбекском категория времени, хотя времен глагола, как и в русском три, форм времени больше – девять.

Служебные части речи имеют место в обоих языках. Но, как говорилось выше, в узбекском нет предлогов, и употребляются так называемые послелогии.

Несколько иной в узбекском языке и порядок слов в предложении. Так, сказуемое чаще находится в конце предложения, определение всегда перед определяемым словом и т.д.

В большинстве случаев факты в двух языках совпадают, что очень хорошо для изучения языка. И авторы искренне желают Вам успехов в изучении древнего и красивого языка – языка Алишера Навои, государственного языка Республики Узбекистан.

Rasm

1 - SENTABR -
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI KUNI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

A. Oripov so‘zi
M. Burxonov musiqasi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot.
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.
Yashnagay to abad ilmu fan ijod.
Shuhrating porlasin toki bor jahon.

Naqorat:

Oltin bu vodiylar, jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot.
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod.

Naqorat:

Oltin bu vodiylar, jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

1- mashg'ulot

O'ZBEKISTON - MUQADDAS VATAN!

Poytaxti – Toshkent shahri.

Hududi – 447,4 ming kv km.

Respublika tarkibida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi;

12 viloyat;

156 tuman;

123 shahar, jumladan 60 ta respublika va viloyat bo'ysunishidagi shahar;

104 ta shahar tipidagi posyolka mavjud.

Lug'at ishi

ajdod	предок
lahja	близкие друг - другу диалекты, здесь: язык
sening kabilar	тебе подобные
ilk bor	впервые
hayitlik	подарок, который дарят в день хайита - мусульманского праздника
muqaddas	священный
tishida tishlab o'tadi	букв. носит на зубах, бережет
ko'ksi	грудь
suyamoq	здесь: поддерживать
ko'rpa	ватное одеяло
muattar	душыстый
mung'aygan	смотреть печально, уныло
kulba	изба
bolish	подушка

Topshiriq. Berilgan birikmalar ishtirokida gap tuzing va ularni yod oling.

Ajdodlar merosi, ilk bor uchratmoq, muqaddas kalom, muattar gullar, ona zamin, tillo oston.

Topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

VATAN

T. Sodiqovadan

Vatan nima o'zi? Vatan – onaning allasi taralgan, beshigingning izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko'milgan qabriston, ota-onangning izlari qolgan ko'chalar, sening lahjangda so'zlashadigan, qosh-u ko'zi xuddi sening kabilar yashaydigan muqaddas zamin Vatandir.

Ilk bor bahorni tanigan, birinchi marta varrak uchirgan, ilk bor hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan muqaddas makon Vatandir.

O'z jonidan yaratgani uchun ham ona yaxshiyu yomon bolasini tishida tishlab o'tadi. Vatan ham shunday: qadamlaringni ko'ksiga qo'yib, suyab yashaydi seni. Osmoni ko'rpang, maysasi dimoq'ingni bosib yotadigan muqaddas bolishingdir. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomli kulbangdan boshlanadi. Unga bo'lgan muhabbating ham shu ostonada tug'iladi.

Topshiriq. Matndagi yangi so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzing. Masalan: Ajdodlarimiz dunyo ilmi rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling:

1. 1 сентябрь 1991 года – день Независимости Республики Узбекистан. 2. 2 марта 1992 года Республика Узбекистан принята в ООН. 3. 8 декабря 1992 года принята Конституция Независимого Узбекистана. 4. 1 июля 1994 года введена в обращение национальная валюта – сум.

Topshiriq. Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zlarni qo‘yib, gaplarni o‘qing va ko‘chiring.

1. 1991- yil 1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasining ... 2. ... Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga qabul qilingan kun. 3. ... – Toshkent shahri. 4. ... - 447,4 ming kv. km. 5. Tarkibida: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ... , 156 ... , 123 ... , shu jumladan respublika va viloyat ... 60 , ... 104 ... mavjud.

2 - mashg‘ulot

ALIFBO

Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma
a	Aa		er	Rr	
be	Bb		es	Ss	
de	Dd		te	Tt	
e	Ee		u	Uu	
ef	Ff		ve	Vv	
ge	Gg		xe	Xx	
he	Hh		ye	Yy	
i	Ii		ze	Zz	
je	Jj		o‘	O‘o‘	
ke	Kk		g‘e	G‘g‘	
el	Ll		she	Sh sh	
em	Mm		che	Ch ch	
en	Nn		nge	Ng	
o	Oo			‘	
pe	Pp			(tutuq	
qe	Qq			belgisi,	
				apostrof)	

Topshiriq. O‘qing va yozilishiga e‘tibor bering.

Ma‘no (смысл), ta‘na (упрек), san‘at (искусство), singil (младшая сестра), ashula (песня), sirk, dotsent, translatsiya, sisterna, konsert, sitologiya, aksiya, ssenariy, aviatsiya, mototsikl, iyul, salut, shlapa, oktabr, noyabr.

Topshiriq. Soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qilib yozing:

Грамота, парус, вкус, жизнь, широкий, новый, сто, влияние, стих, душа.

Topshiriq. Soʻzlarni oʻzbek imlosi qoidalariga amal qilib yozing:

Авиация, акцент, декабрь, январь, июнь, кварц, циркуль, геометрия, федерация, градация.

Lugʻat ishi

sodir boʻldi	произошёл
hodisa	событие
shu palladan	отныне
yilnoma	летопись
qaror	постановление, решение
navbatdan tashqari	внеочередной
bayonot	заявление
huquqiy daʼvolari boʻlmay	не имея территориальных претензий
tabiiy boyliklar	природные богатства
oliy huquq	верховное право
tashkil topgan	организован, создан
tarkib	состав
toʻla huquqli	полноправный
eng moʻtabar	самый уважаемый
iqtisodiy imkoniyatlari	экономический потенциал
yodga olmoq	вспомнить
oʻzgalarning zugʻumisiz	без внешнего диктата
aholi turmush darajasi	уровень жизни населения
xaqli boʻlib qoldi	здесь: в праве сама распоряжаться

Topshiriq. Nuqtalar oʻrniga mos soʻz va soʻz birikmalarini qoʻyib, gaplarni oʻqing va koʻchirib yozing.

1. 1991- yil 1-sentabr Oʻzbekiston hayotida 2. Mustaqillik Shu palladan boshlab bu muhim sana

3. ... Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Oʻzbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini eʼlon qilish toʻgʻrisida qaror qabul qildi. 4. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisida

Topshiriq. Gaplarni oʻqing, rus tilida berilgan soʻz va soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI-sessiyasi 1991- yil 31- avgustda qabul qilgan bayonotda jumladan, bunday deyilgan: Территория Республики Узбекистан вместе с территорией

Республики Каракалпакстан, входящей в её состав, ... и неприкосновенна. 2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun navbatdagi ulkan tarixiy voqea 2 марта 1992 года, когда Организация Объединённых Наций, созданная в 1945 году, приняла решение о принятии Республики Узбекистан в свой состав. Boshqa davlatlar singari O'zbekiston ham jahonning ana shu eng mo'tabar tashkilotining to'la huquqli a'zosi bo'ldi.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekiston BMTga qachon a'zo bo'ldi? 2. Milliy valutamiz – so'm qachon muomalaga kiritildi? 3. O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid yana qaysi muhim sanalarni bilasiz?

Topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini aytib bering.

MUSTAQIL O'ZBEKISTON

1991- yil O'zbekistonda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi –Mustaqillik e'lon qilindi. Shu palladan boshlab bu muhim sana Respublika tarixi yilnomasiga kiradi. 1991- yil 31- avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI-sessiyasi 1991 yil 31-avgustda qabul qilgan Bayonotda, jumladan, bunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, hududi bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir".

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun navbatdagi ulkan tarixiy voqea 1992- yil 2-martda sodir bo'ldi – 1945- yilda tashkil topgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Respublikamizni ozining tarkibida qabul qilganligi haqida qaror qabul qildi. Mustaqil Davlatlar Ham- do'stligiga kirgan boshga davlatlar singari O'zbekiston ham jahonning ana shu eng mo'tabar tashkilotining to'la huquqli a'zosi bo'ldi.

Juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik e'lon qilinganidan keyin tabiiy boyliklarini o'zgalarning zug'umisiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish yo'lida xizmat qildirishga haqli bo'lib qoldi.

Topshiriq. Matnni ifodali o'qing, mazmuni yuzasidan o'zaro suhbatlashing. Matn mazmunini so'zlab bering.

3 - mashgʻulot Suhbat

1. 1991- yil 1- sentabrda Oʻzbekiston tarixida qanday voqea sodir boʻldi?
2. Qachon Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini eʼlon qildi?
3. Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilindi?
4. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1991-yil 31- avgustda qabul qilingan Bayonotida nima deyilgan?
5. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi uchun navbatdagi ulkan tarixiy voqea qachon sodir boʻldi? Qanday qaror qabul qilindi?
6. Oʻzbekiston Respublikasi tarixiga oid yana qaysi muhim sanalarni bilasiz?

FONETIKA VA ORFOEPIYA

Фонетика – наука, изучающая звуковую систему языка. В ней рассматриваются звуки, речи фонетические процессы, происходящие в речи, слог, ударение и интонацию.

Орфоэпия - это наука о произносительных нормах языка. Орфоэпия рассматривает правила произношения слов и форм слова, постановки ударения в слове.

Фонетика и орфоэпия взаимосвязаны.

Звук не следует смешивать с буквой. Звук мы произносим и слышим, а букву пишем и видим. Буква - это условный знак, символ для передачи звуков речи в письме.

Topshiriq. Quyidagi soʻzlarni ovoz chiqarib, toʻgʻri oʻqing.

xat	baland	bayram	gʻarb
paxta	ana	qalam	gʻalla
taxta	pana	xalq	gʻalaba
xabar	tantana	qand	gʻoʻza
xayr	barg	aql	gʻayrat

Topshiriq. Soʻzlarni oʻqing, talaffuziga eʼtibor bering.

Opa, olma, olmos, oyna, oq, oy, oz, ozod, ora, orzu, ortiq, ogʻiz.

Topshiriq. Quyidagi ruscha va oʻzbekcha soʻzlarning talaffuziga (o harfiga) eʼtibor berib oʻqing. Shu soʻzlar ishtirokida oʻzbek tilida 5 ta gap tuzib, daftaringizga yozing.

Oʻzbekcha

ruscha

ot	от
tom	том
tok	ток (электричество)
son	сон
don	дон

Lug‘at ishi

balo – qazo	здесь: бедствие
siylagan	здесь: уважающий
yaxshi iz qoldirish	оставить хороший след
tafakkur saviyasi	уровень сознания
bo‘lakcha	иной, другой,
tasavvur qilmoq	вообразить, представить
ravnaq	процветание
ixlos qo‘ymagan	здесь: не увлекшийся
izzat qilmoq	почитать
manfaat	интерес

Topshiriq. O‘qing. Hikmatli so‘zlarni yod oling.

I.Karimov

INSON BAXT UCHUN TUG‘ILADI

Xalqimizning donoligi, bag‘ri kengligi, sabr - bardoshi bizni har qanday balo - qazolardan asrab qoldi.

Elni Vatan manfaati birlashtiradi.

O‘z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta porloq bo‘ladi

Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi iz qoldirish uchun keladi.

Diplomga ega bo‘lish – bu hali tom ma’nodagi ziyoli degani emas. Ziyoli odam o‘z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo‘lakcha inson bo‘ladi.

Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi.

Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi.

Ezgulikka sadoqati bo‘lmagan, biron narsaga ixlos qo‘ymagan, ishonmagan odam qo‘rqinchlidir.

Jamiyatning haqiqiy boyligi bu – inson, inson avlodidir.

Elni izzat qilsang, el ham seni izzat qiladi.

4- mashg'ulot Suhbat

- Toshkentdagi yangi sayilgohni bilasizmi?
- Ha. Yangi sayilgoh shaharning shu nomli ko'chasida.
- U qanday sayilgoh?
- U yangi ko'rinishdagi (tipdagi) sayilgoh bo'lib, AQSH dagi Brodvey, Moskvadagi Arbat sayilgohiga o'xshaydi.
- U yerda nimalar bor?
- U yerda kafe, choyxona, oshxonalar, savdo rastalari, tomosha joylari bor.
- U joyda qanday madaniy ishlar olib boriladi?
- Unda turli konsertlar, uchrashuvlar, tomoshalar bo'lib turadi.
- U yerda ovqatlanish mumkinmi?
- Ha, oshxona, bufet, choyxona, kafelarda ovqatlanish mumkin.
- Milliy taomlardan qaysilari tayyorlanadi?
- Palov, manti, lag'mon kabi milliy taomlar tayyorlanadi.
- Sayilgoh qaysi kunlari gavjum bo'ladi?
- Sayilgoh shanba va yakshanba kunlari gavjum bo'ladi.

Lug'at ishi

sayilgoh	место, где происходят народные гуляния
yangi ko'rinishdagi	нового типа
savdo rastalari	торговые ряды
tamosha joylari	места для представлений
madaniy ishlar	культурные мероприятия
uchrashuv	встреча
ovqatlanish	питание
milliy taomlar	национальные блюда
gavjum bo'ladi	бывает многолюдно
shu nomli	одноименный

BO'G'IN (Слог)

Один или несколько звуков, произносимых одним потоком воздуха, называют слогом. Слова могут быть односложными: u (он, она, оно), bor (имеется); двух-сложными: ona (мать), bola (ребёнок); трехсложными: g'alaba (победа); qarag'ay (сосна); четырехсложными: o'qituvchi (учитель); пятисложными: tomaqaldiriq (гроза).

В узбекском языке встречаются следующие типы слогов.

1. один гласный: o-na, u-ka;
2. согласный + гласный: da-la, bo-la;

3. гласный + согласный: osh, ot;
4. согласный + гласный + согласный: kel, yo‘q;
5. гласный + согласный + согласный: ost, ust;
6. согласный + гласный + согласный + согласный: to‘rt, qirq.

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating va qanday yasalganligini aytib bering.

Avval, aloqa, baland, bahor, daraxtzor, ishlamoq, davomat, o‘quvchi, jiddiy, zafar, mehnatsevar, singil, e‘lon, oila, ko‘ngil, mustaqillik, qonun, navbatdagi, ulkan, tarixiy, voqea.

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib, tartib bilan yozing.

Bayonot, jumladan, deyilgan, tarkibidagi, hududiy, bo‘linmas, daxlsizdir, davlatlarga, da‘volari, tarjimon, tabiiy, nisbatan, san‘atshunos, taxallus, huquq, navbatdagi, istiqlol.

Помните: Сочетание букв ng, sh, ch переносится на следующую строку, или оставляется в верхней, но не делится: si- ngil, to- ngi, tong- gi, ich- ki, bur- chak, ish- ti-rok, sho- shi- linch.

Topshiriq. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she‘rini ifodali o‘qing va yod oling.

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

A.Oripov

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Tuproq‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo!
Nechun vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?!

Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab,
Axir qu‘yoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman.

Nechun ardoqlayman tuprog‘ini men,
O‘paman tuprog‘ing, bebaho Vatan.

Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng,
Nechun u tuproq deb yig‘ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?

Xo‘sh, nechun sevaman O‘zbekistonni?
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go‘zal so‘zlardan oldin,
Men ta‘zim qilaman ona Vatanga.

Xalqim tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar
Mayli gullasin,
Bog‘ unsin manguлик muzda ham ammo.
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo.

Lug‘at ishi

aslida	на самом деле
tanho	единственный
sabab	причина
jannat	рай
ardoqlamoq	беречь, почитать
bebaho	бесценный
odil	справедливый
taqsim aylamoq	делить
qashshoq	бедный
hukm	приговор
mangu	вечный, вечно
muzlik	ледник
kechirma	не прощай

5 - mashg‘ulot Suhbat

- Bir hafta necha kundan iborat?
- Bir hafta yetti kundan iborat.
- Kunlarning nomlarini bilasizmi?

- Ha bilaman: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.
- Bugun qaysi kun?
- Bugun -dushanba.
- Ertaga-chi?
- Ertaga - seshanba.
- Payshanbadan keyin qaysi kun keladi?
- Keyin – juma.
- Jumadan keyin-chi?
- Jumadan keyin – shanba.
- Shanbadan keyin qaysi kun?
- Shanbadan keyin yakshanba. Yakshanba dam olish kuni.

URG‘U (Ударение)

Ударение - это выделение одного из слогов в составе слова или целого словосочетания путем усиления голоса, повышения тона.

Различают: **so‘z urg‘usi** (словесное) и **gap urg‘usi** логическое (внутри предложения, фразы)

Словесное ударение - силовое или динамическое, при котором ударный слог по сравнению с неударным выделяется главным образом большей напряженностью артикуляции данного слога.

Ударение в узбекском языке обычно связанное, фиксируемое, падает на последний слог. Но встречаются слова и формы слов, в которых ударение падает на другие слоги.

Силовое ударение на последнем слоге встречаются в двусложных существительных, прилагательных, галаголах, а также в односложных корневых словах в сочетании с ударным аффиксом: qishloq, ishlamoq, ishchi, kelgan, shahrim, kitobi и т.д.

В тре- и многосложных словах, состоящих из корня или основы в сочетании с ударными аффиксами, наряду с ударением на последнем слоге - главным, наиболее сильным, возникают еще более слабые, второстепенные ударения, например: qaramoq, ehtimol, o‘rikzor и т.д.

Сильное ударение не на последнем слоге имеет место в следующих случаях:

1) во всех лицах повелительного наклонения, например: gapir, kelgan, boshla, boray, olgin.

2) когда к слову присоединяется безударный аффикс, например: ishchiman, yoshdir, o‘qituvchi и т.д.

3) в заимствованных словах, например: kassa, vokzal, g‘alaba, g‘olib, Gamlet, London и т.д.

Ударение может также служить для различения значения: atlas (материя), atlas (географический); akademik (ученое звание), akademik (академический); yigitcha(по мужски), yigitcha (молодой человек – уменьшительно- ласкательное).

Topshiriq. Quyidagi soʻzlarni birinchi boʻgʻinida urgʻu bilan oʻqing.

Gapir (говори), boshla (начинай), borgin (иди же), keling (приходите), kelsin (пусть придет), boray(in) (пойду-(ка)), keldi (он пришел), ketdi (он ушел), ikki (два), olti (шесть), toʻqqiz (девять).

Topshiriq. “Qishloq” matnidagi soʻzlar urgʻusini toʻgʻri qoʻyib, matnni oʻqing, rus tiliga tarjima qiling.

QISHLOQ

Biz qishloqda yashaymiz. Qishlogʻimiz kundan kun obod boʻlyapti. Qishlogʻimizda yangi binolar qurilayapti. Qishlogʻimizdan gaz oʻtgan. Uyimizga gaz kiritilgan. Gazdan hammamiz foydalanamiz.

Qishlogʻimizda hamma bir-birini yaxshi taniydi va hurmat qiladi. Mahallalarni obod qilish uchun tez-tez hashar uyushtirib turiladi. Hasharda yosh-u qari birdek ishtirok etadi. Qishloqda yashash menga juda yoqadi.

Topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qilib yozing. Urgʻularni toʻgʻri qoʻyib gaplarni oʻqing.

1. Мой младший брат умеет читать и писать. 2. Книга-друг человека. 3. Поэтесса Увайси жила в XIX веке. 4. Её звали Жахонотин. 5. Моего друга звали Алишер. 6. Мы недавно получили новую квартиру. 7. Наша квартира на четвертом этаже.

Topshiriq. Quyidagi soʻzlarning urgʻusini toʻgʻri qoʻyib oʻqing.

Ona, tinchlik, oʻqish, yaxshi, yoqimli, ilmiy, yumshoq, ellik, kimdir, aslo, ammo, hozir, albatta, yigitcha, bormi, sizchi, lampa, gazeta, leksiya, auditoriya, sanatoriy, konstitutsiya, respublika, ruchka, atom, radio.

Lugʻat ishi

iqtisodiy	экономический
singari	как
ulkan	крупный
oraligʻida	между
jihatdan	по, с точки зрения
shimol	север
chegeradosh	сопредельный? граничащий
tekislik	равнина
oʻziga xos ravishda	своеобразно
sahro	пустыня
togʻ yonbagʻirlar	предгорья
taxminan	приблизительно
egallamoq	занимать

tog' tizmalari	горы
daraja	градус
foiz	процент
eslatib o'tish kifoya	достаточно напомнить
jumladan	в частности
raqobat	конкуренция

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing.

1. O'zbekiston Respublikasi ... eng qulay joylashgan mintaqalardan biridir. 2. U O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining markaziy qismida ... ulkan daryolar oralig'ida joylashgan. 3. Respublika hududining uzunligi g'arbdan sharqqa qadar kilometr, shimoldan janubga qadar ... 4. O'zbekiston o'z hududining kattaligi jihatidan ... davlatlarini birga olganda ulardan kattalik qiladi. 5. Respublika shimoliy -- sharqda ..., sharqda ... va janubiy sharqda ... hamda ... , g'arbda ... va janubda ... bilan chegaradosh. 6. O'zbekiston Respublikasida ... va ... relyef o'ziga xos ravishda qo'shib ketgan. 7. Tekisliklar (asosan Qizilqum sahrosi) ... va ... qismida joylashgan. 8. Tog'lar va tog' yonbag'irlari respublika hududining taxminan ... bo'lib, ... joylashgan. 9. O'zbekistonning tog'li qismi va tog' tizmalariga kiradi. 10. O'zbekiston tog'larining eng baland cho'qqisi

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Республика Узбекистан – один из наиболее благоприятных по природно - географическим условиям регион. Он расположен в центральной части Среднеазиатского экономического района, в междуречье таких крупных рек, как Амударья и Сирдарья. Протяженность территории Республики с запада на восток – 1425 километров, с севера на юг – 930 километров. По размерам территории Узбекистан превосходит такие европейские государства, как Великобритания, Бельгия, Дания, Швейцария и Австрия вместе взятые.

Topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini gapirib bering.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining markaziy qismida, Amudaryo bilan Sirdaryo singari ulkan daryolar oralig'ida joylashgan. Respublika hududining uzunligi g'arbdan sharqqa qadar 1425 kilometr, shimoldan janubga qadar 930 kilometr. O'zbekiston o'z hududining kattaligi jihatidan Yevropadagi Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveysariya, Avstriya davlatlarini birga olganda ulardan kattalik qiladi.

Respublika shimoliy - sharqda Qozog'iston, sharqda va janubiy - sharqda Qirg'iziston hamda Tojikiston, g'arbda Turkmaniston va janubda Afg'oniston bilan chegaradosh.

O'zbekiston Respublikasida tekislik va tog'li relyef o'ziga xos ravishda qo'shib ketgan. Tekisliklar (asosan, Qizilqum sahrosi) janubiy - g'arbiy va shimoliy - g'arbiy qismida joylashgan. Tog'lar va tog' yonbag'irlari respublika hududining taxminan uchdan bir qismini egallagan bo'lib, sharq va janubiy - sharqda

joylashgan. O'zbekistonning tog'li qismi G'arbiy Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog' tizmalariga kiradi, O'zbekiston tog'larining eng baland cho'qqisi – 4643 metrdir.

O'zbekiston -- quyoshli respublika. Bu yerda bir yilda quyoshli kunlar hududning shimoliy qismida 2700 – 2980 soat, janubiy qismida 2800-3130 soatga yetadi. Qiyoslash uchun G'arbiy Yevropa davlatlarida O'rta Osiyodagi darajaning 70-80% ni tashkil etishini eslatib o'tish kifoya. Shu jihatdan olib qaraganda AQSH g'arbiy rayonlarining janubiy qismida joylashgan Kaliforniya shtatigina O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston bilan raqobat qila olishi mumkin.

6 - mashg'ulot

Suhbat

- O'zbekistonda qanday kasb bayramlari nishonlanadi?
- Bizda bunday bayramlar juda ko'p. Quruvchilar kuni, radio xodimlari kuni, energetiklar kuni va boshqalar.
- O'qituvchilar kasb bayrami qachon nishonlanadi?
- Bu bayram bizda 1- oktabr kuni nishonlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra bu kun umumxalq bayrami - Ustoz va murabbiylar kuni deb e'lon qilingan va dam olish kuni hisoblanadi.

Topshiriq. Savollarga yozma javob bering.

1. Birinchi o'qituvchingiz kim bo'lgan? 2. U kishining qaysi fazilatlari yodingizda qolgan? 3. Ustozingiz sizni qaysi fanlarga ko'proq qiziqтира olgan, deb o'ylaysiz? 4. Hozir ham ustozingizni yo'qlab turasizmi? 5. U kishini qaysi fazilatlari uchun hurmat qilasiz?

Topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Mehribon, samimiy, chinakam do'st, insoniylik, borib turmoq.

Rasm

1 - OKTABR – USTOZ VA MURABBIYLAR KUNI

Lugʻat ishi

ochiq koʻngil	добродушный
xat - savod	грамота
ozmuncha mehnat qilmagan	немало потрудился
jajji	маленький
mashaqqatli	трудный
yoʻqlab turmoq	навещать
qadrlamoq	ценить, уважать
anglab yetmoq	осознавать
sira	ни как

Topshiriq. Matnni oʻqing va tarjima qiling.

BIRINCHI OʻQITUVCHIM

Mening birinchi oʻqituvchim Poʻlatova Fotima opa boʻlganlar. U kishi juda ochiq koʻngil, mehribon inson. Ularni men chinakam doʻst, samimiy inson sifatida eslab qolganman. Hali oʻqish-yozishni bilmaydigan bir sinf bolaga xat-savod oʻrgatish uchun ular ozmuncha mehnat qilmaganlar. Jajji qoʻllarimizdan tutib ilk harfni yozdirganlari sira yodimdan chiqmaydi. Endilikda oʻzim ham oʻqituvchiman. Men ham yoshlarga til oʻrgataman. Ustozimning mashaqqatli mehnatlarini endi yana ham koʻproq qadrlayapman, anglab yetyapman.

Ustozim hozir ham bolalarga bilim berib keladilar. Men ularni tez-tez yoʻqlab turaman. Axir aytadilar-ku, ustoz otaday ulugʻ deb. Men barcha ustozlarga eng ezgu niyatlarni tilab qolaman.

Topshiriq. Matndan foydalanib birinchi oʻqituvchingiz haqida hikoya tuzing.

Topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzlarni qoʻyib koʻchiring.

1. Sharqda ustozlarni alohida 2. Shoirlarimiz ustozlarni ulugʻlovchi koʻplab ... bitganlar. 3. Bugun mamlakatimizda ustozlar yanada 4. Ustoz va murabbiylar kuni respublikamizda keng

Soʻzlar: sheʼr, hurmatlamoq, nishonlamoq, qadr topmoq.

7 - mashgʻulot Suhbat

- Sen qaerda o‘qiysan?
- Men Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida o‘qiyman.
- Demak, o‘qituvchi bo‘lar ekansan-da?
- Ha, men matematika o‘qituvchisi bo‘laman.
- Bu kasbni tanlashingga nima sabab bo‘ldi?
- Men matematikaga juda qiziqaman, qolaversa bolalar bilan ishlashni yaxshi ko‘raman.
- O‘qish qiyin bo‘lsa kerak?
- Ha, biroz, lekin juda qiziqarli, ustozlarim menga juda katta yordam berishadi.

GAP URG‘USI (Логическое ударение)

Фразовое или логическое ударение – это выделение того или иного члена предложения силой голоса. В повествовательном предложении: Biz majlis o‘tkazdik (Мы провели собрание) каждое слово может быть отмечено ударением: **Biz** majlis o‘tkazdik. Biz **majlis** o‘tkazdik. Biz majlis **o‘tkazdik**.

Чаще всего логическое ударение падает на слово, находящееся перед сказуемым. Например: Biz bugun **kutubxonaga** bordik. Biz kutubxonaga **bugun** bordik. Kutubxonaga bugun **biz** bordik.

Topshiriq. Logik urg‘u hosil qilish uchun gaplarni qaytadan tuzing.

1. Kecha institutimiz klubida katta konsert bo‘ldi. 2. Dam olish kuni bizning klubimizda institut havaskorlari konsert berdi. 3. Biz ertaga leksiyalardan keyin muzeyga boramiz.

Topshiriq. Ish-harakat bajarilgan joyni bildirgan so‘zlarni urg‘u berib tarjima qiling.

1. Вчера мы с друзьями были в музее Тимуридов. 2. Я люблю бывать в парке имени Бабура. 3. Вахид учится в педагогическом колледже в Ташкенте. 4. Государственная библиотека имени Навои расположена на площади Мустакиллик.

Lug‘at ishi

ma’rifatparvar	просветитель
taassurot	впечатление
amir (vazir)	эмир (визирь)
mansab	должность
qanoatlantirmadi	не удовлетворила
manfaat	польза, благо, интересы
chin muhabbat	настоящая любовь
g‘amxo‘rlik	забота

obodonchilik	благоустройство
sahna asari	сценическое произведение
yaratilgan	созданный. создан
haykal	памятник
mutafakkir	мыслитель
qanoat	удовлетворенность

Topshiriq. Quyidagi soʻz birikmalari ishtirokida gap tuzib, oʻzaro suhbatlashing.

Alisher Navoiy bolalik davrida ... birga tarbiyalangan. Uning otasi maʼrifatparvar kishi boʻlib, ... qiziqar edi. Navoiylar uyida shoirlar tez-tez toʻplanib Bu U 10-12 yoshlarida U 1472- yil Bu shoirni Shu tufayli ijodiy ishga oʻtib, ... va bu tilda ... kirishdi. U oʻzining “Xamsa” asarida ... masalalarni yoritdi. Bu asar besh dostonidan iborat ... , ... , ... , Bu ajoyib dostonlarda shoir ... , ... , ... , ... , ... , ... kuylagan. Uning asarlari asosida ... , ... kabi sahna asarlari yaratildi. Navoiy haqida koʻplab ilmiy va adabiy asarlar yozildi. Oybekning ... romani , L.Batning ... povesti, Uygʻun va Izzat Sultonning ... dramasi Koʻpgina ... , ... Alisher Navoiy nomi bilan atalgan. Toshkentda ... bor.

Topshiriq. Alisher Navoiy matnini oʻqing va qayta soʻzlab bering.

ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tugʻilgan. U bolalik davrida Temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. Uning otasi maʼrifatparvar kishi boʻlib sanʼat va adabiyotga qiziqar edi. Navoiylar uyida shoirlar tez-tez toʻplanib, sheʼrlar oʻqib, sanʼat haqida suhbatlashardilar. Bu Alisherda katta taassurot qoldirdi. U 10-12 yoshlaridayoq sheʼrlar yoza boshladi.

1472- yili Navoiy amirlik (vazirlik) vazifasiga tayinlandi. Lekin bu mansab shoirni qanoatlantirmadi. Shu tufayli u ijodiy ishga oʻtib, oʻzbek adabiy tilini rivojlantirish, bu tilda adabiy asarlar yaratishga kirishdi. U xalq manfaatiga qaratilgan masalalarni oʻzining “Xamsa” asarida yoritdi. Bu asar besh dostonidan iborat: “Hayratul abror” (Смятение праведных), “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sabʼai sayyor” (Семь планет), “Saddi Iskandariy” (Вал Искандера). Bu ajoyib dostonlarda shoir doʻstlik, chin muhabbat, odamlarga gʻamxoʻrlik, halollik, obodonchilik, mehnatga muhabbatni kuylagan.

Alisher Navoiy asarlarini xalqimiz sevib oʻqiydi. Uning asarlari asosida “Farnod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Dilorom”, “Mehr va Suhayl” kabi sahna asarlari yaratildi.

Navoiy haqida koʻplab ilmiy va adabiy asarlar yozildi. Oybekning “Navoiy” romani, L.Batning “Hayot boʻstoni” povesti. Uygʻun va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi shular jumlasidandir. Koʻpgina tumanlar, qishloq va koʻchalar, teatrlar oʻquv yurtlari, shahar va mahallalar Navoiy nomi bilan atalgan. Toshkentda

Navoiy nomli milliy bog' yaratilgan va u yerda Navoiyga haykal o'rnatilgan. Ulug' shoir, olim va mataffakkir Navoiy 1501- yilning 3- yanvarida Iroq shahrida vafot qilgan.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.

Topshiriq. Yod oling.

Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma.
Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.
Tiling bilan ko'nglingni bir tut.
Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

Topshiriq. So'zlarning sinonimlarini toping va gap tuzing.

buyuk, cho'qqi, vafodor, mangu, hayot.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я усердно изучаю узбекский язык. 2. В этом мне помогают мои учителя. 3. Я посещаю кружок узбекского языка. 4. Я стараюсь чаще говорить на узбекском языке. 5. Я очень хочу выучить узбекский, так как он мне очень нравится.

8 - mashg'ulot

Suhbat

- O'zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berildi?
- 1989- yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'grisida" Qonuni qabul qilindi va O'zbek tili davlat tili maqomini oldi.
- Sen o'zbek tilini yaxshi bilasanmi?
- To'g'risi, unchalik emas, lekin umid qilamanki, tez orada uni o'rganib olaman.
- Buning uchun nimalar qilyapsan?
- Avvalo, universitetimizda o'zbek tili yaxshi o'qitiladi, qolaversa, til o'rganish uchun to'g'arak mashg'ulotlariga ham qatnayman.
- Seningcha, shu etarlimi?
- Yo'q, men ko'cha-kuyda eshitganlarimga diqqat qilaman, o'zbek tilida ko'proq o'qish, teleko'rsatuvlar ko'rish, do'stlarim bilan o'zbek tilida ko'proq gaplashishga harakat qilaman.
- To'g'ri, aytishadi-ku, til o'rganish uchun shu tilda ko'proq muloqot qilish kerak, deb.

ORFOGRAFIYA

Орфография (imlo) - это система правил, устанавливающая единообразные способы передачи речи на письме.

Узбекская орфография основана на морфолого – фонетическом принципе, причем ведущим принципом является морфологический, вспомогательный - фонетический.

При морфологическом принципе обозначаемой языковой единицей является морфема, т.е. значащая часть слова: одинаковые морфемы пишутся всегда одинаково, независимо от произношения, например: kel-di, ket-di (произносится: ket-ti), ot-dan (произносится ot-tan).

При фонетическом принципе обозначаемой языковой единицей является реально произносимый в каждом данном случае звук или звуко сочетание, например: qishloq-ga (пишется qishloq-qa), tog'-ga (toqqa), elak-ga (elak-ka) и т.д.

Topshiriq. Quyidagi so'z shakllari qaysi tamoyil asosida yozilganligini ayting.

Ko'kka, boqqa, tikkan, yoqqan, ekan, otgan, yotgan, botgan, singan, yiqilgan, yozdirgan, gapirtirgan, shoshgan.

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli bo'g'inlarni qo'yib yozing.

Ol...zor (яблоневоу сад), me...zor (фруктовоу сад), рах...kor (хлопкороб), уах...lik (доброта), уах...lak (каток), chi...zor (чиланзар).

Namuna: olmazor

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling. Tarjimasini lug'atdan topib ayting va yozing.

Ur - o'r - or, un - o'n - on, uz - o'z - oz, uch - o'ch - och, uq - o'q - oq, toq - to'q, turt - tort - to'rt, tur - tor - to'r, os - o's.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarda "U" tovushining ishlatilishiga e'tibor bering.

Jun, butun, bug'u, uchuvchi, luchhak, kun, ustun, tuyg'u, luqma, tun, uchun, urg'u, uchuqlamoq, lunj, Turg'un, urush, qayg'u.

Topshiriq. Ko'chirib yozing, "O" va "U" unlilarini to'g'ri talaffuz qilib o'qing.

Buyum, bo'yin, buvi, bo'lmoq, gul, go'zal, guliston, o'zini, uzun, o'smoq, uzmoq.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni qatnastirib, gaplar tuzib yozing.

1. O'lmasning, sevimli, ukasi, Aziz. 2. Umarning, oti, singlisini, Oltinoy. 3. Obid, ko'p, hunar, o'rgandi, otasidan. 4. Ozoda, o'z, mehmonga, o'rtog'inikiga, bordi. 5. O'ktamxonning, o'ninchi, sinfda, ukasi, Umri, bilan o'qiydi. 6. O'z, narsalari, bilgan, Saodat, doim, o'rtoqlariga, o'rgatdi.

Lug'at ishi

lochin	сокол
chirmashmoq	обвиваться
majaqlanmoq	разбиться
tagiga yetolmay	не поняв
o'ch olmoq	мстить
changaliga olib	здесь: схватив
bo'g'a boshlamoq	начать душить
holsizlanmoq	ослабевать
zarb bilan	с маху, с силой
halok etmoq	губить, уничтожать, угробить
quzg'un	ворон (qo'ga quzg'un- черный ворон)
jon	душа, дух
darmonsizlanib	ослабев
o'tkir	острый
orqaga tashlanmoq	податься назад
keng ko'krak	широкая грудь
dadillanib	смело
o'lja	добыча
achinmoq	жалеть
mardona	мужественно
tilka-pora qilmoq	раздирать на части
ko'mib qo'ymoq	закопать

Topshiriq. Lug'atda berilgan so'zlarni o'qing, tarjimasini bir-biringizdan so'rang. Agar yangi so'zlarning sinonimini bilsangiz, ayting.

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing. Lug'atdagi so'zlardan foydalaning.

1. Lochin ... toshga qattiq kelib urildi. 2. Bo'yniga bilakday ilon 3. ... boshi ham 4. Bolalar bu ... tagiga yetolmay turishar edi. 5. Burgut ... o'ch bo'lishadi. 6. Bu ilonni ... olib osmonga ko'tarilganda, ilon uning bo'yniga 7. Lochin 8. Bekorga o'lib ketishni istamagan lochin uni ... urilib, uni ham, ... , ham halok etdi.

Topshiriq. Quyidagi so'z birikmalarini o'rniga ishlatib, gap tuzing.

Lochin tobora darmonsizlanib; ular jon talvasasida; o'tkir ko'zlaridan qo'rqib; lochinning boshi keng ko'kragiga shalp etib tushdi; o'lja ustiga yopirilishdi; lochin shu choq; chap qanotini bir ko'tarib tashlagan edi; chor tarafga qochishdi; lochinga qarab turgan Rustam; mashinadan katta paqir olib, lochinning o'limi ham mardona.

Topshiriq . Matn mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

MARD QUSH

Lochin qoya toshga qattiq kelib urilganidan, qanotining o'ng tomoni ezilgan, bo'yniga bilakday ilon chirmashib yotardi. Ilonning boshi ham majaqlanibdi. Bolalar bu sirli hodisaning tagiga yetolmay turishar edi, Rustamjon tushuntirdi:

Burgut, lochinlar ilonga o'ch bo'lishadi. Bu lochin cho'ldan ilonni olib osmonga ko'tarilganda, ilon uning bo'yniga chirmashib bo'g'a boshlagan. Lochin holsizlangan. Ammo u bekorga o'lib ketishni istamagan. Qoyaga zarb bilan urilib, o'zini ham, raqibini ham halok etmoqchi bo'lgan.

Lochin tobora darmonsizlanib, qanotlarini shalpaytirib yotarkan, qayerdandir qora quzg'unlar paydo bo'ldi. Ular jon talvasasidagi lochinga yaqinlashmoqni bo'lishardi, biroq uning o'tkir ko'zlaridan qo'rqib, orqaga tashlanishardi. Ko'p vaqt o'tmay, lochinning boshi keng ko'kragiga shalp etib tushdi. Quzg'unlar dadillanib, o'lja ustiga yopirilishdi. Lochin shu chog' so'ngi kuch bilan chap qanotini bir ko'tarib tashlagan edi, o'laksaxo'rlar chor atrofga qochishdi. ..

Lochinga achinib qarab turgan Rustamjon mashinaning kabinasidan katta paqir olib, unga yerdan tuproq to'ldirib ko'tarib chiqdi.

-- Lochin – mard qush. Uning o'limi ham mardona bo'ldi: dushmanni tilka-pora qilib, o'ldi. U quzg'unlarga yem bo'lmasligi uchun uni ko'mib qo'yaylik, - deb Rustamjon bolalarni qoyaga boshladi.

Topshiriq. Maqollarni o'qing, mazmunini tushuning va yod oling.

Mard bo'lsang maydonga chiq.

Mard maydonda bilinar.

O'ldirsa ham, mard o'ldirsin.

Botirdan o'lim ham qo'rqar.

9 - mashg'ulot Lug'at ishi

jannat	рай
ziynat	красота
muruvvat	щедрость
adadsiz	здесь: бесконечный
zabt etgan	покоривший
zukko	здесь: ученый, сообразительный
ahdiga vafodor	верный слову своему
quvvat	энергия, сила
ijodkor	творец

Topshiriq. She'rni o'qing va yod oling.

O'ZBEKISTONIM

Olamning jannati O‘zbekistonim,
Oqibat ziynati O‘zbekistonim,
Muruvvat siyrati O‘zbekistonim,
Sadoqat hikmati O‘zbekistonim.

O‘tmishi, ertasi ulug‘ o‘lkasan,
Himmati adadsiz qutlug‘ o‘lkasan,
Boshodagi dondek to‘liq o‘lkasan,
Jahonning shuhrati O‘zbekistonim.

Mehnatda hamisha muzaffar, g‘olib,
Farzandlaring yashar mehringga qonib,
Azamat yoshlaring ilmga to‘lib,
Ulug‘lar qudrati O‘zbekistonim.

Topshiriq. Savollarga yozma javob qaytaring.

1. O‘zbekiston Respublikasi qaysi davlat bilan birinchi bo‘lib diplomatik munosabatlar o‘rnatgan?
2. Mamlakatimizda qaysi millat vakillari yashaydi?
3. Milliy valyutamiz qachon muomalaga kiritilgan?
4. O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan davlatlar qaysilar?

Topshiriq. Jummalarni davom ettiring.

1. O‘zbekistonda yilning to‘rt faslida ham ...
2. Diyorimiz suvi zar, ...
3. Bobo dehqonlarimiz bu yil ...
4. Vatanni sevgan kishi ...
5. Ona yurtim -- ...

Topshiriq. “Mening Vatanim” mavzusida kichik hikoya tuzung.

LEKSIKA

Лексика (лексикология) – раздел языкознания, изучающий словарный состав языка.

Словарный состав узбекского языка состоит из древнетюрских: yug‘och (дерево), kun (солнце); узбекских: gulzor (цветник), odobli (воспитанный); и заимствованных слов. Большое количество слов заимствованы с арабского, персидского языков, также и с русского или через русский с европейских языков.

SO‘ZNING LUG‘AVIY MA’NOSI

(Лексическое значение слова)

Лексическое значение слова – это то, что мы представляем себе услышав его, т.е. предмет, признак, количество и т.д. Оно присуще только самостоятельным частям речи. К примеру в толковом словаре узбекского языка слову “so‘z” дано такое определение:

So‘z – tovush yoki tovushlardan iborat ma’no bildiruvchi nutq birligi (слово – речевая единица, состоящая из звука или звуков, обозначающая какой-нибудь смысл).

BIR MA’NOLI VA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR

(Моносемантические и полисемантические слова)

Слова могут употребляться в одном или нескольких значениях. К однозначным можно отнести: ravish (наречие), chumchuq (воробей).

Многозначные слова имеют **to‘g‘ri ma’no** (прямое) и **ko‘chma ma’no** (косвенное) значения. К примеру,

Sinf keng va yoruq - Класс просторный и светлый.

Sinf o‘rnidan turdi - Класс встал.

В первом случае слово *sinf* употреблено в прямом, а во втором в косвенном значениях.

Многозначные слова в узбекском языке встречаются во всех частях речи и большинство общеупотребительных слов полисемантические.

Способы переноса значения аналогичны русскому языку:

Metafora. Qaldirgoch – bahor elchisi. Sizlar litseyimizning qaldirgochlari bo‘lasiz.

Metanimiya. Do‘kondan chiroyli piyolalar xarid qildik. Bir piyolagina ichib ko‘ring.

Sinekdoxa. Qo‘lidan kelmaydigan ishning o‘zi yo‘q. O‘n qo‘li – o‘n hunar.

Vazifadoshlik. Navoiy tun bo‘yi qalamini qo‘ldan qo‘ymadi. Rasmni yumshoq qalam bilan chizing.

Во всех парах выделенные слова употреблены: в первом предложении в прямом, во втором предложении в косвенном значениях.

Topshiriq. Bosh, yoqa, kun, olma so‘zlarini to‘g‘ri va ko‘chma ma’noda qo‘llab gap tuzing.

Topshiriq. O‘qing va belgilangan so‘zlarning qaysi ma’noda ekanini ayting. Ular ishtirokida gap tuzing.

Koylak yoqasi, yo‘l yoqasi.

Baliq boshidan, ko‘cha boshidan.

Yetti kun, kun chiqdi.

Ko‘ylakning etagi, tog‘ etagi.

Tilla bola, tilla soat.

Lug‘at ishi

qarsak	аплодисменты
istiqbol	будущее
chiniqdi	закаливался
siz bo‘lmayin kim	кто же если не вы
qarog‘	глаза
charog‘	светило, фонарь
manglay	лоб
sherbachcha	львенок
cho‘ng	здесь: решительный

Topshiriq. She’rni ifodali o‘qing.

G‘afur G‘ulom

... Sizga qarsaklarda chiniqdi ilgim
Istiqbol sizniki, baringizniki.
Olamning egasi siz bo‘lmayin kim?
Shundayin olamki kelmagay tengi.

Sizsiz kelajak yo‘q, siz axir xalqning
Ming yilni ko‘rajak qarog‘larisiz.
Sizsiz yorimaydi osmonda Zuhra,
Zamonlar tonginining charog‘larisiz.

Qo‘chqor bo‘la turgan qo‘zichoqlarning
Manglayi tug‘ilgan chog‘da do‘ng bo‘lur.
G‘alaba asrining o‘smirlarisiz --
Sherbachcha qilig‘i sherday cho‘ng bo‘lur.

Bebaho naslsiz, hayot va mehnat
Olam qalbingizga sut bilan kirgan.
Sizning xamiringiz shu ulug‘ xalqqa,
Vatanga muhabbat bilan yo‘g‘rilgan.

10 - mashg‘ulot Suhbat

- Men erta bilan soat yettida turaman. Sen-chi?
- Men yettidan o‘ttiz daqiqa o‘tganida turaman. O‘n besh daqiqasi kam sakkizda badantarbiya qilaman.
- Men soat sakkizda nonushta qilaman. Sen-chi?
- Men ham soat sakkizda nonushta qilaman. Sen soat nechada institutga ketasan?
- Men soat sakkiz yarimda institutga ketaman.
- Institutda soat nechagacha bo‘lasan?

- Institutda soat to‘qqizdan bir yarimgacha bo‘laman. Sen-chi?
- Men ham soat bir yarimgacha institutda bo‘laman. Soat ikkida uyga kelaman.
- Men ham.
- Men soat 14 da tushlik qilaman, keyin soat o‘n ettigacha dam olaman.
- Men ikki soat dam olaman.
- Soat beshda ovqatlanib, so‘ng darslarimni qilaman.
- Sen kechqurun sayr qilasanmi? Men bir soat sayr qilaman.
- Men ham soat yigirmadan yigirma birgacha sayr qilaman. Keyin bir soat televizor ko‘raman, so‘ng uxlashga yotaman.

SO‘ZNING SHAKL VA MA‘NO MUNOSABATLARIGA KO‘RA TURLARI

(Типы слов по форме и значению)

Слова по форме и значению делятся на синонимы, антонимы, омонимы и паронимы.

Sinonimlar. Синонимы - близкие по значению слова:

kun, qo‘yosh, oftob, shams, xurshid - солнце

katta, buyuk, ulkan, azim - большой, крупный, великий, огромный

chiroyli, go‘zal - красивый

Antonimlar. Антонимы – слова с противоположным значением:

katta (большой) - kichik (маленький)

do‘st (друг) - dushman (враг)

qalin (толстый) - yurqa (тонкий)

uzun (длинный) - qisqa (короткий)

Omonimlar. Омонимы – слова одинаковые по форме и различные по значению.

o‘t - трава

ot - имя

o‘t - огонь

ot - конь

o‘t - переходит

ot - брось, кинь

to‘p - пушка

ol - возьми, бери

to‘p - кучка

ol - красный

to‘p – мяч

Paronimlar. Паронимы – близкие по форме слова

tana - тело, ta’na - упрек

surat - картина, sur’at - темп

yondosh - рядом yondash – относись

Topshiriq. Berilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.
do‘st, ozod, ko‘rkam.

Topshiriq. Antonimlarni topib, ko‘chiring. Yod oling.

1. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l. 2. U goh kulib, goh yig‘lab bo‘lgan voqeani aytib berdi. 3. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. 4. Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.

Topshiriq. Berilgan so‘zlardan omonimlarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

Bosh, oyoq, qo‘l, tok, soch, kul.

Lug‘at ishi

navqiron	молодой
chiroy	красота
kishi ko‘zini quvontiradi	радует глаза
faoliyat yuritmoq	функционировать
shular jumlasidan	в том числе
ishbilarmon	предприниматель,
	предприимчивый
tashrif buyurmoq	пребывать, наносить визит
iliq qarshi olmoq	тепло встречать
shinam	уютный
ochiq chehra bilan	с улыбкой, добродушно

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Toshkent ilgari qanday nomlanganini bilasizmi? 2. Toshkentning diqqatga sazovor joylaridan qaerlarni ayta olasiz? 3. Toshkent metrosi qachon ish boshlagan? 4. Toshkentdagi qaysi tarixiy obidalarni ayta olasiz? 5. Toshkentdagi muzeylardan qaysilarida bo‘lgansiz?

Topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini aytib bering.

TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent - go‘zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko‘plab yangi binolar, ko‘chalar barpo etilmoqda.

1997- yilda Toshkent metrosining birinchi yo‘nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O‘zbekiston va Yunusobod yo‘llari bo‘ylab poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go‘zal va ozoda bekatlari kishi ko‘zini quvontiradi.

Toshkentda ko‘plab madaniy muassasalar mavjud. Bog‘lar, teatrlar, konsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar, chet ellik ishbilarmonlar, halqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliq qarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo‘st O‘zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi.

Jahonga yuz tutgan O‘zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta’kidlashmoqda.

Topshiriq. O‘z shahringiz (qishlog‘ingiz) haqida kichik hikoya tuzing.

11 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Kechirasiz, aytolmaysizmi hozir soat necha?
- Marhamat, hozir 17.40
- “Toshkent” univermagi nechagacha ishlaydi?
- Bilishimcha, soat 19 gacha.
- Demak hali ulgurar ekanman- da?
- Ha, bemalol ulgurasiz. Biror nima xarid qilmoqchimisiz?
- Ha. Bugun do‘stimning tug‘ilgan kuni. Unga sovg‘a olmoqchiman.
- Xaridingiz baroridan kelsin.
- Rahmat.

IBORA **(ФРАЗЕОЛОГИЯ)**

IBORA (фразеологизм) – устойчивое сочетание слов, употребляемое чаще в переносном значении. Фразеологизмы по смыслу равны одному слову: boshi osmonda (радостный), tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan - (грустный).

Они не делятся на члены предложения, выполняют одну функцию, являясь одним членом предложения.

Фразеологизмы так же могут быть синонимами: Boshi ko‘kka etmoq, do‘ppisini osmonga otmoq - (радоваться). Hafsalasi pir bo‘lmoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq - (обидеться, растроиться).

Антонимами: oq ko‘ngil - (добрый); bag‘ritosh - (злой); yerga ura ko‘kka sakraydi - (озорной); suvga tushgan bo‘lka noonday - (тихий).

Омонимами: boshiga ko‘tarmoq – 1. уважать
2. шуметь

Topshiriq. Lug‘atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim so‘zlarni va agar bo‘lsa antonimlarini toping.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog‘ini yalagan, kapalagi uchgan, boshi qotgan.

Topshiriq. Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan, yulduzni benarvon uradigan, yerga ursa ko‘kka sakramoq.

Lug‘at ishi

kech kuz	поздняя осень
sokin	тихо, тихий
hazon	опавшая листва
bir lahzalik	сию минутная, быстрая
mehnat mahsuli	плоды труда
hanuz	все еще
qaynoq bir palla	горячая пора
o‘lik mavsum	мертвый сезон

Topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini aytib bering.

KUZ

O‘lkamizda kech kuz... Bog‘larga, dalalarga chiqsangiz, hamma yoq sokin. Go‘yo hayot to‘xtab qolgan. Oyoq ostidagi xazon esa, go‘yo umrning bir lahzalik ekanini pichirlaganday. Ba‘zan kuzni zerikarli fasl deb eshitib qolaman. Chindan ham shundaymi?

Aslida bari boshqacha. Axir kecha emasmidi dalalar, bog‘larda ish qaynagani, dehqon yil bo‘yi qilgan mashaqqatli mehnati mahsulini terib olish uchun kunni tunga, tunni tongga ulagani. Qolaversa, bugun ham u ertangi hosil g‘am-tashvishida. Dehqon hanuz o‘z dalasida...

Kechagina sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib, talaba nomini olgan yoshlar uchun ham kuz o‘ziga xos qaynoq bir palla; ular uchun yangi hayot boshlandi. Shunaqa, kuz ham biz aytgancha o‘lik mavsum emas.

Topshiriq. Matndagi yasama so‘zlarni ko‘chirib yozing va ular ishtirokida bir nechta gap tuzing.

Topshiriq. O‘zingiz kuz fasli haqida kichik hikoya tuzing.

Topshiriq. Yod oling.

Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.
Jo‘jani kuzda sanaydilar.

Kuzning qozoni quyuq qaynaydi.

Topshiriq. Kuz soʻziga nisbatan qoʻllanadigan sifatlashlarni topib, gaplar tuzing.

Oltin, kumush, zumrad. Saxiy, oq koʻngil, qoʻli ochiq.

12 - mashgʻulot

OʻZBEK TILI – OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI.

1989- yil 21- oktabr Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili toʻgʻrisidagi Qonun qabul qilindi.

1993- yil 2- sentabr Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida Qonun qabul qilindi. 1995- yil 6-7- may mazkur qonunga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritildi.

1995- yil 24- avgust Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasining Qarori eʼlon qilindi.

Lugʻat ishi

qadimgi	древный
tasdiqlamoq	подтверждать
beqiyos	несравенный
jahon miqyosi	мировой уровень
ilmiy-nazariy	научно – теоретически (й)
shu bois	по этому
mavqe	статус, положение
qadr topmoq	цениться
jahon hamjamiyati	мировое сообщество
ishtiyoq	страстное желание
kirishmoq	браться (за какое–нибудь дело)
dalil	свидетельство, доказательство

Topshiriq. Matnni oʻqing, mazmunini aytib bering.

OʻZBEK TILI

Oʻzbek adabiy tili tarixi uch katta davrni oʻz ichiga oladi;

1. Qadimgi turkiy adabiy til.
2. Eski oʻzbek adabiy tili.
3. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.

Qadimgi turkiy adabiy til X-XII asrlarni oʻz ichiga oladi. Oʻzbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy tili sifatida X-XI- asrlarda tashkil topgan. Yusuf Hos Hojibning “Qutadgʻu bilik”, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarlari bu fikrni tasdiqlaydi. Bu davrda

o‘zbek tili faqat o‘zbeklarning adabiy tili bo‘lmay, O‘rta Osiyoda yashovchi barcha turkiy xalqlarning umumiy adabiy tili bo‘lgan.

Eski o‘zbek tili XIII-XV - asrlarda shakllangan bo‘lib o‘tgan asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Navoiy o‘zining jahonga mashhur asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini jahon miqyosiga olib chiqish bilan birga “Muhokamatul lug‘atayin” kabi noyob ilmiy asarlari bilan eski o‘zbek adabiy tili, uning stilistikasini ilmiy -nazariy jihatdan asoslab berdi. Navoiy haqli ravishda o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi. Hozirda o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sanaladi. Shu bois ham, o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Istiqloлга erishgan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei ortib borar ekan o‘zbek tili ham tobora qadr topmoqda. Chet ellik birodarlarimizning ham uni o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishayotgani fikrimiz dalilidir.

Topshiriq. Maqollarni tarjima qiling va yod oling.

1. Ona tilim – jon-u dilim.
2. Til qilichdan o‘tkir.
3. Tilni bilsang, dilga yo‘l topasan.
4. Ko‘z yetmagan joyga so‘z yetadi.
5. Bir tilni bilgan bir marta odam, ikki tilni bilgan ikki marta odam.

Til haqida yana qaysi maqollarni bilasiz?

SO‘Z TARKIBI

(Состав слова)

Морфема - значимая часть слова. Различают корневую и аффиксальную морфему.

O‘zak. Корень слова выражает основное лексическое значение слова и не имеет в своем составе других морфем. В отличие от русского, в узбекском языке корень может употребляться самостоятельно во всех случаях.

Qo‘shimcha. Аффиксы выполняют различные функции: **so‘z yasash** - словообразующую и **shakl yasash** формообразующую.

Словообразующие аффиксы меняют лексическое значение слова:

Gul - (цветок)

Gul-**chi** - (цветовод)

Gul-**la** - (цвети)

Gul-**don** - (ваза для цветов)

Формообразующие аффиксы меняют лишь форму слова:

Gul - (единственное число, именительный падеж)

Gul-**lar** - (множественное число, именительный)

Gul-**ga** - (ед. число дательный падеж)

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling, qo‘shimchalarni aniqlab, turini ayting: Ishchi, ishlar, ishsiz, kitobcha, o‘zbekcha, kuldon.

Topshiriq. Berilgan soʻzlarga oʻzingiz bilgan va mos keladigan qoʻshimchalarni qoʻshib yozing.

Suv, oʻt, ot, tosh.

Topshiriq. Soʻz shakllarining maʼnosidagi farqni tushuntirib bering.
Akamlar, akalarim. Opanglar, opalaring.

Eslab qoling. В узбекском языке аффиксы обычно к корню прибавляются в следующем порядке: сначала словообразующие, затем формообразующие:

gul-chi-lar-imiz

Иногда формообразующие аффиксы прибавляются перед словообразующими:

oʻqi-t-uv-chi

Аффиксы в узбекском языке могут быть простые и сложные. Сравните

gul-chi-lik, oʻzbek-chilik

soʻz-la-sh (moq) ot-lash (moq)

Topshiriq. Soʻzlarni tarkibi boʻyicha tahlil qiling.
Mustaqillik, soddalik, birlashmoq, ishchi, oʻquvchi, oʻqituvchi.

13 - mashgʻulot Suhbat

- Sen hozir qacda oʻqiyapsan?
- Men Toshkent Toʻqimachilik va yengil sanoat institutida oʻqiyapman.
- U qayerda joylashgan?
- U Shohjahon koʻchasida joylashgan.
- Bu koʻchani bilmas ekanman.
- Bobur bogʻini bilasanmi? “Saodat” doʻkoni, “Askiya” bozorini-chi?
- Ha bilaman.
- Institutimiz shu oʻrtada joylashgan.
- Qaisi fakultetda oʻqiyapsan?
- Iqtisod fakultetida.
- Yaxshi, ishlaring baroridan kelsin.
- Rahmat.

SOʻZ YASALISHI (Словообразование)

В узбекском языке наиболее эффективно используются следующие способы словообразования:

Qoʻshimcha qoʻshib soʻz yasash - аффиксация;

Oʻzaklarni qoʻshib soʻz yasash - композиция.

В узбекском языке можно образовывать имена существительные, прилагательные, глагол и наречие. Другие части речи могут служить основой для словообразования, но сами они не образуются.

Аффиксация

gul-don (ваза)

tog'-li (горный)

bel-lash(moq) (состязаться)

qo'lla (используй)

Композиция

guldasta (букет)

tog'olcha (алыча)

belkurak (лопата)

qo'l qo'ymoq
(подписать)

Более подробно образование частей речи будет рассматриваться позже, при изучении соответствующей части речи

Lug'at ishi

nufuzli

yetakchi

negizida

hujjat topshirmoq

o'z ishining ustasi

ixtiyorimizda

mavjud

yuzlab

bitirib chiqadi

авторитетный

ведущий

на базе

сдавать документы

мастер своего дела

в нашем распоряжении

есть

сотни

заканчивает (закончит)

Topshiriq. Matnni o'qing va tarjima qiling.

BIZNING UNIVERSITET

Bizning universitet 1999- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti negizida tashkil etilgan. U Respublikamizning eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan sanaladi. Har yili minglab abuturiyentlar pedagogik kadrlar tayyorlash borasida yetakchi hisoblangan bizning universitetga hujjat topshiradilar.

Universitetda o'z ishining ustasi bo'lgan professor-o'qituvchilar mehnat qilishadi. Ular nafaqat biror o'quv fani, balki uni o'qitish metodikasini ham puxta egallaganlar.

Universitetimizda talabalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kutubxona, stadion, sport zali, talabalar uylari, oshxonalar bizning ixtiyorimizda. Kutubxonamizda o'zbek, rus va xorijiy tillardagi eng zamonaviy adabiyotlar mavjud. Darslardan so'ng biz bu erda o'z ustimizda ishlaymiz, kelgusi mashg'ulotlarga tayyorlanamiz. Har yili universitetimizni yuzlab malakali mutaxassislar bitirib chiqadi.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qayerda o'qiysiz?
2. Universitet (institut)da qaysi ixtisoslik bo'yicha o'qiysiz?
3. Guruhingizda talabalar ko'pmi?
4. Institutda sizga qanday sharoitlar yaratilgan?

Topshiriq. Gaplarni davom ettiring.

1. Bizning universitet ... yilda tashkil etilgan. 2. Universitetimizda ... fakultet mavjud. 3. Bizning fakultetimiz ... kadrlarni tayyorlaydi. 4. Biz juda ko'p ... ,

Topshiriq. Matndagi barcha yasama so'zlarni aniqlab, yasalish usulini ayting.

Topshiriq. So'zlarni tarkibi bo'yicha tahlil qiling.

Nufuzli, tayyorlash, etakchi, o'qitish.

Topshiriq. Yuqoridagi matn asosida o'z institut (universitet) yoki fakultetingiz haqida hikoya qilib bering.

Topshiriq. Maqol va ibratli so'zlarni yod oling.

1. Bilim baxt keltirar. 2. Bilimsiz bir yashar, bilimli ming yashar. 3. Bilganing daryo bo'lsa, bilmaganing – dengiz. 4. Bilmaganin so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim (Navoiy).

14 - mashg'ulot Suhbat

- Oilada necha kishisiz?
- Oilada besh kishimiz. Bular: dadam, oyim, men, ukam va singlim.
- Dadang ishlaydilar mi?
- Ha, dadam maktabda matematikadan dars beradilar.
- Oying-chi?
- Oyim uy bekasilar.
- Singling necha yoshda?
- U sakkiz yoshda, ukam esa o'n birda.
- Ular qaysi maktabda o'qishadi?
- Ular 100-maktabda o'qishadi. Ukam 4-sinfda, singlim esa ikkinchida.

SO'ZLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI (Разряды слов по структуре)

В узбекском языке слова по своей структуре могут быть:

1. **Sodda so'z.** Простые.
2. **Qo'shma so'z.** Сложные.
3. **Juft so'z.** Парные.
4. **Takror so'zlar.** Повторные.

Простые слова состоят из одного корня. Например: ish - работа, дело; ot - имя; o'qi - читай; kitob - книга; Они могут быть **yasama** - производные и **tub** не производные.

Производные – это образованные путем аффиксации слова: gulla, yasha, ochiq.

Непроизводные слова состоят лишь из корня: gul, yosh, och.

Сложные слова состоят из двух или более корней, например: belbog' - пояс; muzyorag - ледокол; oshqozon - желудок; ko'zoynak - очки.

Парные слова образуются от двух различных, например: ota-ona - родители; bola-chaqa - дети; и имеют обобщенное значение.

Повторные слова чаще имеют стилистическое значение усиления признак и.т. katta-katta, tez-tez и т.д.

Topshiriq. Ajratilgan so'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. Men maktabdosh do'stlarimning shirin-shirin suhbatlarini ko'p sog'inaman. 2. Haqiqiy inson o'z ota-onasini hurmat qiladi. 3. Muzyorar kema juda baland, o'n ikki qavatli uydek keladi. 4. Bizning uyimiz temir yo'l yaqinida joylashgan. 5. Kolesnikov bilan Sohibov o'qishga Yangiyo'l tumanidan kelishdi. 6. Mirzacho'l yildan yilga gullab - yashnamoqda. 7. Qoraqamishda yangi binolar qad rostlamoqda.

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va qo'shma so'zlarning tagiga chizing.

Yangiyo'l, poliz, anor, Navoiy, Angren, Sharof Rashidov, anjir, toshko'mir, Nurota.

1. Tumanlararo musobaqada ... tumani o'quvchilari g'olib chiqdi. 2. ... tumanida yog' zavodi bor. 3. ... tumani paxta tayyorlash rejasini muddatidan avval bajardi. 4. ... ko'mir koni xalqimizga ... etkazib bermoqda. 5. Dam olish kuni biz buvamning qovun ... chiqdik. 6. Bizning bog'imizda ... va ... bor. 7. Xalq shoiri Ergash Jumanbulbul ... tumanida tug'ilgan.

Topshiriq. Quyidagi sodda so'zlardan juft so'zlar yasang.

ota	past
katta	kichik
baland	yomon
oq	chaqa
yaxshi	qora
bola	ona

Topshiriq. Quyidagi sodda, qo'shma va juft so'zlar ishtirokida 6 ta gap tuzing.

Savat- savat, paxtazor, sinfdosh, yeryong‘oq, mehmondo‘st, to‘q qizil, qo‘l qo‘ymoq, sotib olmoq, bir yuz sakson, bola- chaqa, kundan kunga.

Lug‘at ishi

notiq	оратор
taqdir	судьба
iroda	воля
butkul	целиком, полностью
voiz	оратор-проповедник
qabr	могила
darg‘azab	рассерженный, разгневанный
va‘z	проповедь
aqida	убеждение
tabarruk	священный
jom	медный таз, чаша
ruboiy	рубои (четверостишие)
ehtiros	страсть, страстный
so‘rdi nolon	здесь: спросил смущенно
kasb etmoq	приобрести
tig‘ urmoq	ранить (сердце)
kamalak	радуга
armon	сожаление
beqadr	недостойный
tarovat	свежесть, очарование
hayhot	о горе! Боже мой!
halovat	спокойствие
sado	голос звук (муз)
taralmoq	распространяться, раздаваться

Topshiriq. “Ona tilim o‘lmaydi” she’rini ifodali o‘qing, rollarga bo‘lib, yod oling.

ONA TILIM O‘LMAYDI

Erkin Vohidov

Notiq dedi:
 Taqdir shul,
 Bu jahoniy iroda,
 Tillar yo‘qolur butkul,
 Bir til qolur dunyoda.

“Ey, voiz, pastga tush,
 Bu gap chiqdi qaerdan?”

Kim dargʻazab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante,
Shiller
va Bayron,
Firdavsiy,
Balzak,
Tagor.

-Hech, bu qanday aqida!
Qoʻlida tabarruk jom,
Forsiy tili haqida,
Ruboiy aytdi Hayyom.

Neruda, Lorka turdi,
Servantesning yoniga:
-Kim qasd etib tigʻ urdi,
Ona tilim joniga?

Kamalakdek rango-rang,
Boʻlsin deb sanʻat, tillar,
Asrlarga qildi jang.
Armon qildi ming yillar.

Faust yondi gurullab,
“Xamsa” oʻtga tutashdi,

Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Vaʻzingni qoʻy, birodar,
Sen aytganing boʻlmaydi,
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim oʻlmaydi”.

Ehtirosli otash til,
Beranji soʻrdi nolon,
-Nahotki farangi til,
Yoʻqolgusi bir zamon!

Fuzuliy yondi:
Ozor
Tili guldek soʻlmaydi.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim oʻlmaydi”

Beqadr boʻlsa nahot,
Tillardagi tarovat!
Yoʻqoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

Bir sado jahon bo‘ylab,
Taraldi, tog‘lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon,
Ona tilim o‘lmaydi.

15 - mashg‘ulot Suhbat

- Kechirasiz, siz shu erlikmisiz?
- Ha. Men mana shu dahada yashayman.
- Aytib berolmaysizmi, 14-uyni qanday topsam bo‘ladi?
- Hozir to‘g‘riga borasiz, o‘ng qo‘lga ko‘cha keladi. Shu ko‘cha bo‘ylab 50 qadamlar yursangiz, chap tomonda 9 qavatli uy bor. Mana shu 14-uy bo‘ladi.
- Rahmat.
- Salomat bo‘ling.

MORFOLOGIYA

Морфология изучает части речи и их грамматические категории.

В узбекском языке шесть самостоятельных частей речи: *ot* (существительное), *sifat* (прилагательное), *son* (числительное), *olmosh* (местоимение), *fe‘l* (глагол), *ravish* (наречие); три служебных частей речи: *ko‘makchi* (послелог), *bog‘lovchi* (союз), *yuklama* (частица).

Кроме того в узбекском языке три особых групп слов: *undov* (междометие), *modal so‘z* (модальные слова), *taqlidiy so‘z* (подражательные слова).

OT

(Имена существительные)

Имена существительные называют лицо, предмет, место или время. Они отвечают на вопросы: *kim* (кто), *nima* (что), *qayer* (какое место).

Atoqli otlar - имена собственные: *Anvar, Zuhra, Mars*.

Turdosh otlar - имена нарицательные: *kitob, daftar, qalam*.

Mavhum otlar - (абстрактные имена существительные); *do‘stlik* (дружба), *baxt* (счастье), *omad* (удача) и т.д.

Jamlovchi otlar - (собирательные имена существительные): *xalq* (народ), *qo‘shin* (войско), *to‘da* (шайка, стадо) и т.д.

Topshiriq. Mavhum otlarni ajratib yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

nomus, vijdon, go‘zallik, kalit, bilim, bolta, sog‘inch, gul, bog‘, to‘g‘rilik.

Topshiriq. Atoqli otlarni bir ustunga, turdosh otlarni ikkinchi ustunga yozing. Istagan beshta gapingizni tarjimasi bilan yozing.

1. Malika hozir kelib to‘xtagan avtobusga chiqish uchun yugurib borardi. 2. Majlis raisi navbatdagi o‘qituvchiga so‘z berdi. 3. Leksiyadan so‘ng hammamiz konsertga boramiz. 4. Metro bizning uyimizga 15 minutda olib boradi. 5. Hamma sayyoralaridan Yerga eng yaqini Marsdir. 6. Alisher Navoiy O‘zbek xalqining buyuk mutaffakiridir. 7. Anvarxon guruhimizning a‘lochi talabalaridan. 8. Temurning dadasi fakultetimiz dekani. 9. Sirdaryo va Amudaryo Orol dengiziga quyiladi. 10. O‘zbek tili o‘qituvchimiz Kuba, Tailand, Hindiston va Arabiston to‘g‘risida ko‘p qiziq narsalar so‘zlab berdi. 11. Bizning guruhimizda Nodira, Nargiza, Sanjar, Behzod, Jasur kabi a‘lochi talabalar o‘qiydi. 12. Bahorning dastlabki kunlari kamdan kam bunday issiq bo‘ladi. 13. Husayn qo‘shinlari tunda Hirotni tashlab chiqa boshladi. 14. Ovchilarning chaqirganiga hech kim ovoz bermadi. 15. Buyuk olimimiz Beruniyning merosi boy, keng va rang-barang.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой брат ещё в детстве научился читать и писать. 2. Книга – друг человека. 3. В кружке по узбекскому языку часто проводятся дискуссии по прочитанным книгам. 4. Айбек – псевдоним писателя Мусы Ташмухамедова. 5. Поэтесса Увайси жила в XIX веке. Её звали Жахонотин. Увайси – это её псевдоним.

Lug‘at ishi

ijod davri	творческий период
she’riy to‘plam	сборник стихов
badiiy tarjima	художественный перевод
did	вкус
namoyish etmoq	проявлять, демонстрировать
shohona	коронный
to‘polon	шум
qatag‘on	репрессия
to‘lqin	волна
she’riy uslub	стихотворный стиль

Topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

USMON NOSIR

Usmon Nosirning ijod davri sakkiz - to‘qqiz yilgina davom etdi. Uning bizga ma’lum asarlari mana shu yillar ichida, ya’ni shoirning 16 yoshdan 25 yoshgacha davrida yaratildi. Shu yillar ichida u bir necha she’riy to‘plam: “Quyosh bilan

suhbat”, “Safarbar satrlar”, “Yurak”, “Mehrim”, ikkita doston: “Norbo‘ta” “Haxshon” va “Atlas”, “Zafar”, “So‘nggi kun”, “Dushman” kabi dramalarini yozdi.

Usmon Nosir badiiy tarjima sohasida ham o‘z mahorati va nozik poetic didini namoyish eta oldi. U N.D.Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi”, Pushkinning “Boqchasaroy fontani”, M.Yu. Lermontovning “Iblis” kabi asarlari va bir qancha she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ko‘pgina namunalarni o‘zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasida o‘qidilar. Bu tarjimalar o‘zbek adabiyotining tarjima asarlari orasida shohona namunalar bo‘lib qildi.

Shoir Turob To‘la: “Usmon she‘riyatga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she‘riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda o‘zbek Lermontovi, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”, deb yozishdi”, -degan edi.

Usmon Nosir ham ko‘pchilik zamondoshlari kabi qatag‘onga uchradi. U 1944-yil 24- martda Kemerovo oblastida vafot etadi va shu erda Pervomaysk qishlog‘ida dafn etiladi.

Biroq xalq Usmon Nosirni unutmadi, zero shoir quyidagi misralarni bitganida haqli edi:

Bargdek uzulib ketsam,
Unutmas meni bog‘im,
Ishimni hurmat qilar,
Gullardan haykal qo‘yar.
She‘rlarim yangrab qolar,
Ming yillardan keyin ham.
Unutmas meni bog‘im.

Ha, xalq o‘zining sodiq o‘g‘lonlarini unutmaydi.

Topshiriq. Matnga reja tuzing. Shu reja asosida uning mazmunini aytib bering.

Topshiriq. Egalik shakllaridagi otlarni ko‘chirib yozing., shaxs va sonini aniqlang. Masalan: davri – III shaxs, birlik.

to‘lqin	волна
halovatli	спокойный, спокойно
ufq	горизонт
vafodor	преданный. верный
tik	стройный, ровный, прямой
imonli	здесь: порядочный
bo‘y cho‘zgan	растущий

Topshiriq. To‘rtliklarni o‘qing va yod oling.

Hayot dengiz kabi to‘lqinli, qirli,
Ammo halovatli, cheksiz mehrli,
Imonli kishilar buyuk umrbod,

Odamzod ko‘nglini etar quvnoq, shod.

Dunyoda odamzod mangu yashamas,
Ufqqa bo‘y cho‘zgan chinor ham bo‘lmas,
Aziz Vataniga vafodor bo‘lsa,
Pomir cho‘qqisiday tik yashar, o‘chmas.

16 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Alisher Navoiy kim?
- U qachon va qayerda tug‘ilgan?
- U kimlar bilan tarbiyalandi?
- Navoiyning uyida kimlar tez-tez to‘planib, nima qilishardi?
- U qachon she‘r yoza boshladi?
- 1472-yili qanday vazifaga tayinlandi?
- Nima uchun u ijodiy ishga o‘tib ketdi. Uning maqsadi?
- U o‘zining ”Xamsa” asarida qanday masalalarni yoritdi?
- Bu asar qaysi dostonlardan iborat?
- Bu dostonlarda shoir nimalarni kuylagan?
- Uning asarlari asosida qanday sahna asarlari yaratilgan?
- Navoiy haqida qanday asarlar yozildi?
- Qayerlar uning nomi bilan atalgan?
- Toshkentda Navoiy haykali qaerga o‘rnatilgan?

Имена существительные в узбекском языке имеют три грамматических категорий две из них *kelishik* (падеж) и *son* (число) является постоянными, *egalik* (принадлежность) не постоянной, т.е. имена существительные всегда находятся в форме того или иного падежа, в единственном или множественном числах. Принадлежность может указываться, может нет.

Gul - именительной падеж, единст. число

Gulim - именит. падеж. единст. число. принадлежность 1лицу

EGALIK QO‘SHIMCHALARI (Аффиксы принадлежности)

Аффиксы принадлежности указывают на принадлежность предмета одному из трех лиц и прибавляются к существительным следующим образом:

Birlik

ota- m (мой отец)
ota- ng (твой отец)
ota- si (его отец)

Ko‘plik

ota- miz (наш отец)
ota- ngiz (ваш отец)
ota- si (их отец)

kitob- im (моя книга)	kitob- imiz (наши книги)
kitob- ing (твоя книга)	kitob- ingiz (ваши книги)
kitob- i (его книга)	kitob- i (их книги)

С прибавлением аффиксов принадлежности в корне слов происходят следующие изменения:

В словах: o‘rin (место), qorin (живот), bo‘yin (шея), bo‘g‘iz (гортань), og‘iz (рот), burun (нос), shahar, singil, ko‘ngil (душа) гласная во втором слоге выпадает: bog‘zim, shahri, singling.

Звуки q и k в конце многосложных слов переходят на g‘ и g: kerak – keragi (yo‘q) (нет необходимости). Qishloq – qishlog‘i.

Исключение составляют такие слова как: ishtirok (участие), idrok (разум), peshtoq (фасад), ishtiyoq (страсть).

Иногда во множественном числе в 1 – 2 лицах аффикс принадлежности может быть пропущен. В этом случае обязательно употребляют соответствующие личные местоимения: bizning ko‘cha, sizning martab.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Мой сад его младшая сестра, их места, его место, твой город, мой рот, моя комната, мой друг, мое ведро, твоя семья.

Topshiriq. O‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlarning qaysi shaxsda ekanini ayting.

1. Yurtimiz boy va qadimiy tarixga ega. 2. Ona yurting omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas. 3. Bizning ko‘chada chiroyli uylar ko‘p. 4. Mahallamiz kishilari juda ahil yashaydilar. 5. Vatan ostonadan boshlanadi.

Topshiriq. So‘z shakllarini rus tiliga tarjima qiling.

Eshigim, chirog‘im, qadamlari, oyimlarning, sinfingiz, qo‘llarim, tozaligi, charchog‘i.

Lug‘at ishi

asoschi	основоположник
ancha yil	многие годы
nasriy	прозаический
nashr etildi	было опубликовано
muallif	автор
mazkur	данный, этот
hamon	все ещё
qatog‘on	репрессия
e‘zoz topdi	стало уважаемым

muassasa	учреждение
endilikda	нынче, теперь
ko‘plab	многие.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Rus tilida nashr etildi, mazkur muammo, hamon yodimda, adabiyotimiz asoschisi.

Topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

ABDULLA QODIRIY

Abdulla Qodiriy 1894- yilda Toshkent shahrida dehqon oilasida tug‘ildi. U avval madrasada, keyin rus- tuzem maktabida o‘qidi. U o‘z ijodini 15 yoshlaridan boshladi.

Qodiriy “Mushtum” jurnalining asoschilaridan sanaladi, u mazkur jurnal redaksiyasida ancha yil mehnat qildi.

1925- yilda bosilib chiqqan Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek adabiyotidagi dastlabki yirik nasriy asarlaridan biri. Asarda XIX- asrning birinchi yarmidagi xalqimiz hayoti aks etadi.

1928- yilda Qodiriyning yangi bir romani “Mehrobdan chayon” nashr etildi. Muallif unda Turkistonning eng so‘nggi xonlaridan biri - Xudoyorxon davri voqealarini aks ettirdi.

Qodiriyning mazkur asarlari xalqimiz tomonidan hamon sevib o‘qib kelinadi. Ular asosida badiiy filmlar suratga olingan. Yoshlarimiz Qodiriyning Anvar, Ra‘no, Otabek va Kumush kabi qahramonlariga o‘xshashni orzu qilishadi.

Sevimli yozuvchimiz qatag‘onga uchrab, 1939- yilda vafot etgan.

Istiqlol yillarida adib xotirasi yanada e‘zoz topdi. Endilikda, Toshkent Davlat san’at instituti, metro bekati va boshqa ko‘plab muassasalar Qodiriy nomi bilan atalgan.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbat quring.

17 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Siz Toshkent muzeylarida bo‘lganmisiz? Sizga qaysi muzey ko‘proq yoqadi?
- Ha, men bir necha muzeylarda, xususan, Olimpiya shuhrati, Temuriylar tarixi, adabiyot muzeylarida, Mukarama Turg‘unboyeva museyida, Muxtor Ashrafiy va O‘rol Tansiqboyevning uy-muzeyida bo‘ldim. Menga, ayniqsa, Temuriylar tarixi muzeyi manzur bo‘ldi.
- Sizga u nimasi bilan yoqdi?
- Avvalo, me‘moriy yechimi bilan, qolaversa, u juda ko‘rkam va ozoda, u yerdagi eksponatlar xalqning shavkatli tarixidan dalolat beradi.

OTLARDA TURLANISH

(Склонение имен существительных)

Склонение – это изменение слова в падежах.

В узбекском языке 6 падежей:

1. Bosh kelishik (Начальный падеж)
2. Qaratqich kelishigi (Притяжательный падеж)
3. Tushum kelishigi (Винительный падеж)
4. Jo‘nalish kelishigi (Направительный падеж)
5. O‘rin-payt kelishigi (Местно-временной падеж)
6. Chiqish kelishigi (Исходный падеж)

Bosh kelishik является начальной формой имен существительных. Слова в этом падеже отвечают на вопросы kim? (кто?), nima? (что?). Этот падеж не имеет специального окончания: mo‘jiza (чудо), tarix (история), echim (решение) и т.д.

В предложении слова в форме данного падежа могут являться:

Ega (подлежащим); O‘zbekiston – serquyosh o‘lka.

Kesim (сказуемым): Navro‘z – yangilanish bayrami.

Aniqlovchi (определением):

Kumush qishdan, zumrad baho rdan.

Qolishmaydi kuzning ziynati.

Undalma (обращением): Bahor, ketma mening bog‘imdan.

Topshiriq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini toping.

1. Na boshi bor, na tani,
Na joni, na vatani,
Eshitsa biror ovoz,
Javob qaytarar shavvoz.

2. Tusi oppoq paxta emas,
G‘irchillaydi taxta emas.

3. Tikuvchiga o‘rtoq o‘zi,
Bittagina jajji ko‘zi.

Topshiriq. Atoqli otlardan bir turdosh otlar yasang.

Yer, Navoiy, Bobur, Temur, Toshkent, Michurin.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling:

1. Самарканд – один из древних городов Узбекистана. 2. Фергана – золотая долина. 3. Ташкент – город хлебный. 4. Книга – источник знаний.

Lug‘at ishi

iste'dodli	талантливый	
xotirasi o'tkir	у него хорошая память	
mukammal		совершенный, в совершенстве
diniy	религиозный	
dunyoviy	мирской	
shunga qaramay	несмотря на это	
tolmagan	не уставал	
o'z qimmatini saqlab kelmoqda	не теряет своей ценности	
... imkoniga ega bo'lgan	имел возможность ...	

Topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

ABU ALI IBN SINO

Sharqning buyuk allomasi Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) 980- yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi o'tkir bola bo'lgan. 10 yoshidayoq Qur'onni yod olgan. O'sha paytlarda diniy ilmlar keng tarqalib, dunyoviy ilmlar ko'p ham o'rganilmagan. Shunga qaramay, u bilim olishdan tolman. U 10-13 yoshlaridan boshlab matematika, mantiq, falsafa kabi ilmlarni mukammal o'rgana boshlagan.

18 yoshlarida Ibn Sino yetuk tabib-hakim bo'lib tanilgan. Somoniylar amiri Nux ibn Mansurni davolagach, u saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan. Tinimsiz o'qib-o'rganib, Ibn Sino ensiklopedist olim, huquqshunos, faylasuf va dunyoga nomi ketgan tabib bo'lib yetishadi. Shuningdek, Ibn Sino ruboiy janriga asos solgan shoir hamdir.

Ibn Sino turli sohalarga oid 280 dan ortiq asar yaratgan. ulardan eng mashhuri - "Tib qonunlari" ko'p asrlar davomida Yevropada tibbiyotdan eng asosiy qo'llanma sifatida o'qitilib kelinmoqda. Undagi ma'lumotlar hamon o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Ibn Sino "Shayh-ur rais" nomiga sazovor bo'lgan. Buyuk mutafakkir Ibn Sino 1037- yilda 57 yoshida Isfaxon shahrida vafot etgan.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzing va o'zaro suhbatlashing.

18 - mashg'ulot SUHBAT

- Siz hovlida yashaysizmi, yo ko'p qavatli uydami?
- Men ko'p qavatli uyda turaman.
- Uyingiz necha qavatli?
- Uyimiz to'qqiz qavatli.
- Sizning kvartirangiz nechanchi qavatda?
- Kvartiramiz oltinchi qavatda.
- Kvartirangiz kattami?

- Unchalik emas, atigi ikki xona. Lekin u menga juda yoqadi. Yuqoridan turib odamlarni kuzatishni yaxshi ko‘raman.

QARATQICH KELISHIGI

(Притяжательный падеж)

Qaratqich kelishigi имеет окончание –ning. Слово в этом падеже указывает на принадлежность другого предмета, т.е. притягивает к себе идущее за ним слово:

Karimning kitobi - книга Карима

kitob varag‘i - страница книги.

Слова в этом падеже отвечают на вопросы kimning? (чей? кого?), nimaning? (чего?), qayerning? (какого места?).

Слова в этом падеже всегда в предложении являются притяжательными определениями (qaratqich aniqllovchi)

Kamolaning dadasi -- adabiyot o‘qituvchisi.

Отец Камолы -- учитель литературы.

Притяжательный падеж может быть **belgili** (оформленный) и **belgisiz** (неоформленный).

В следующих случаях употребляется неоформленный притяжательный падеж:

1. Если принадлежность носит общий характер:

maktab hovlisi - двор школы (школьный двор)

korxona rahbari - руководитель предприятия

maktab bozori - школьный базар и т.д.

2. При обозначении временных отношений:

Toshkent bahori - весна Тошкента

bahor tongi - утро весны (весеннее утро)

tong shamoli - утренний ветерок

3. В именах существительных абстрактных:

burch hissi - чувство долга

vijdon amri - веление совести

birdamlik tuyg‘usi - чувство солидарности (единства).

4. Если слово в притяжательном падеже указывает на вид (сорт) предмета :

raxta yog‘i - хлопковое масло

o‘simlik yog‘i - растительное масло

kungaboqar yog‘i - подсолнечное масло

qo‘y go‘шти - баранина

mol go‘шти - говядина

cho‘chqa go‘шти - свинина

5. Если слова в этом падеже идут подряд оформляется последний или ни один не оформляется:

Rus va koreys filologiyasi fakultetining dekani (декан факультета русской и корейской филологии).

Если слово в притяжательном падеже и слово, связанное с ним находятся в дистантном отношении, т.е. между ними идет другое, слово в притяжательном падеже оформляется обязательно:

Toshkent ko‘chalari (улицы Ташкента) --Toshkentning Navoiy ko‘chasi (улица Навои Ташкента)

Maktab direktori (директор школы) – maktabning sobiq direktori (бывший директор школы)

Topshiriq. Ko‘chiring. Belgilangan so‘zlarning qaysi kelishikda ekanini aniqlang.

1. Ajdodlar mardona ruhi senga yor. (A. Oripov) 2. O‘zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati. 3. Otning yaxshisi ulqda bilinadi. 4. Toshkentning so‘lim xiyobonlari kishi diliga sokinlik baxsh etadi.

Topshiriq. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Заводская столовая, школьный учебник, ученическая тетрадь, начальник производства, органы управления, члены коллегии.

Topshiriq. O‘zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Учитель: Собир, скажи-ка, какое слово чаще всего произносят ученики на уроке.

Собир: не знаю.

Учитель: Молодец, точно сказал.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Qahrli qish, behad shodman, sizga ehtiromim cheksiz.

Lug‘at ishi

salmoqli	значительный
darslik vazifasini o‘tadi	служил учебником
arabshunos	арабовед
shuxrati ortdi	возросла слава
asturlob	телескоп
samoviy harakatlar	воздушные движения
arabshunosi	арабовед
Uyg‘onish davri	Эпоха Возрождения

Topshiriq. Matnni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

AHMAD AL-FARG‘ONIY

O‘rta asrlarda yashagan markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Farg‘oniy salmoqli o‘rin egallaydi.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» XII- asrda Ovro‘poda lotin tiliga ikki marta va XIII- asrda boshqa Ovro‘po tildariga tarjima qilinganidan so‘ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Ovro‘po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi.

1669- yili mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etgandan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Ovro‘podagi shuhrati yanada ortdi. Ovro‘po Uyg‘onish davrining buyuk namoyandalardan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV- asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV- asr) va Shiller (XVIII- asr) ham eslagan.

Al-Farg‘oniyning sakkizta asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador, lekin birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan: «Astronomiya asoslari haqida kitob»ning qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlob yasash haqida kitob» - qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Astrulob bilan amal qilish haqida kitob» - birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston), «Al-Farg‘oniy jadvallari» - qo‘lyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» - qo‘lyozmasi Qohirada, «Yetti iqlimni hisoblash haqida» - qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada, «Quyosh soatini yasash haqida kitob» - qo‘lyozmalari Xalab va Qohirada saqlanadi.

19 - mashg‘ulot Suhbat

- Sen bo‘sh vaqtingda nimalar qilishni yoqtirasan?
- Bo‘sh vaqtimda musiqa tinglashni yaxshi ko‘raman.
- Senga qanday musiqa yoqadi?
- Menga zamonaviy musiqa yoqadi. Lekin ba‘zan mumtoz musiqalarni ham eshitaman.
- Yosh xonandalardan kimlarni ko‘proq tinglaysan?
- Sevara Nazarxon, Abdulaziz Karim menga juda yoqadi. Ularni sevib tinglayman.

TUSHUM KELISHIGI (Винительный падеж)

Слова в винительном падеже имеют окончание –ni, отвечают на вопросы kimni? (кого), nimanı (что?), qayerni? (какого места?) и указывают лицо,

предмет, на который непосредственно переходит действие: she'rni yod oldim (я выучил стихотворение), Matnni tarjima qildim (я перевел текст).

Винительный падеж также может быть оформленным и не оформленным:
- kitobni o'qimoq – kitob o'qimoq

Не оформленный винительный падеж употребляется в основном когда означает однородные предметы. И особо подчеркивать их нет необходимости:

Murotali qazib qo'ygan chuqurlarga ko'chat o'tkazardi. (Sh.Rashidov) – Муротали сажал саженцы.

Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. (Maqol) – Один роет арык, тысяча людей пьют из него.

Слова в винительном падеже в поэзии могут иметь аффикс –n: Har fasl o'z ishin qilsin,

Qishboy qishligin qilsin. (Q. Muhammadiy).

Слово в винительном падеже всегда в предложении является прямым дополнением.

Topshiriq. Quyidagi gaplarni o'z daftaringizga ko'chirib yozing, belgilangan so'zlarning qaysi kelishik shaklida ekanini aniqlang.

1.Yaxshisi, bu uchrashuvni tezashtirish kerak. 2.Bog'da olma, o'rik, shaftoli gulladi. 3.O'zbekistonning hayvonot olami rang-barang. 4.Do'kondan o'quv qurollar sotib oldim. 5.Yer kurrasi boshini tang'idik.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Любите книгу – источник знаний. 2. В школьном саду кипит работа. 3. За завтраком мы обсудили вчерашнюю поездку. 4. Все мы должны беречь родную природу.

Topshiriq. Belgili va belgisiz tushum kelishigidagi so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Namuna: musiqa tinglamoq – qo'shiqni sevmok.

Lug'at ishi

ofat	беда, здесь: гибель
unutish	забвение
noahil	здесь: глупый
g'azab	гнев
g'azabi kelsa	если разгневался
kechirimli	прощающий
uzr aytish	приносить прощение
odamlar orasini	букв. порчащий
buzadigan	взаимоотношения людей

chaqimchilik

сплетничество,
ябедничество
тратить напрасно

zoye qilish

Topshiriq. O'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

Hadislardan namunalar

1. Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir.
2. O'zing yaxshi ko'rgan narsangni o'zgalarga ham yaxshi bil.
3. Agar biror yomonlik qilsang, ketidanoq yaxshilik qil.
4. Kimki g'azabi kelsa, jim bo'lsin.
5. Kechirimli bo'linglar, shunda sizlarga ham kechirimli bo'lishadi.
6. Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bilimsiz bo'lma, halok bo'lasan.
7. Uzr aytishga majbur qiluvchi ishlarni kamaytiringlar.
8. Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar.

Topshiriq. Hadislar mazmunini aytib bering.

Topshiriq. Nutq o'stirish uchun.

Tez aytishlarni o'qing.

Botir botmas botqoqqa,
Bobur qo'ymas botmoqqa.

Sapura supadagi ko'rpacha yoniga supracha yozdi.

20 - mashg'ulot **Suhbat**

- Darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Darsdan keyin bozorga boraman.
- Biror nima xarid qilmoqchimisan?
- Ha, ertaga biznikiga mehmonlar kelishadi. Shunga xo'l mevalar sotib olishim kerak.
- Qaysi bozorga borasan?
- Oloy bozoriga boraman. U yerda mevalar ko'p. Tanlash imkoniyati bor. Sen-chi, sen nima qilasan?
- Men darsdan keyin buvimnikiga boraman. Bugun amakimning tug'ilgan kunlari.

JO'NALISH KELISHIGI (Направительный падеж)

Слова в направительном падеже обозначают предмет, на который направлено действие, место и время и отвечают на вопросы: *kimga?* (кому?), *nimaga?* (чему?), *qayerga?* (куда?), *qachonga?* (на какое время?). Например: *O‘zbek tili kitobimni kursdoshimga berdim.* (Книгу по узбекскому языку я отдал своему однокурснику). *Misollarni avval sinf taxtasiga, so‘ng daftarga yozdim.* (Примеры я написал сперва на доске, затем в тетради). *Darsdan keyin kutubxonaga boramiz* (После занятий пойдем в библиотеку). *Kafedra yig‘ilishi chorshanbaga belgilandi* (Заседание кафедры назначено на среду).

При прибавлении аффиксов данного падежа происходят следующие изменения:

Если слово закончивается на звук *k* то аффикс этого падежа произносится и пишется в форме *-ka*: *to‘garakka* (в кружок) *chelakka* (в ведро), *tilakka* (пожеланию).

Если слово заканчивается на звук *g* то оба звука *g* (и в корне и в аффиксе) произносятся и пишутся как *k*: *barg+ga – barkka* (на листок).

Если слово заканчивается на звук *q* аффикс падежа пишется как *-qa*: *o‘tloq-qa* (на лужайку), *qishloqqa* (в село), *buloqqa* (на родник).

Если слово заканчивается на звук *g‘* то этот звук и звук *g* в аффиксе падежа переходят на *q*: *tog‘-ga -toqqa* (в горы), *bog‘-ga -boqqa* (в сад).

Примечание: данные орфографические правила относятся ко всем аффиксам, начинающимся на звук *g*, и словам заканчивающимся на звуки *g*, *k*, *g‘*, *q*.

ek+gan - ekkan (посеявший);

eg+gan – eggan (согнувший);

og‘+gan – og‘gan (согнувшийся);

oq+gan – oqqan (текущий) и т.д.

Слова в этом падеже отвечающие: на вопросы *kimga?* *nimaga?* являются косвенным дополнением; на вопрос *qayerga?* обстоятельством места; на вопрос *qachonga?* обстоятельством времени.

Topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы с друзьями отправились на рыбалку. 2. Брат усиленно готовится к экзаменам. 3. Моя сестра уехала в Америку на учебу. 4. После итоговых контролей мы собираемся в путешествие в город Самарканд. 5. В Ташкент мы перехали когда мне было пять лет.

Topshiriq. Maqollarni yod oling. Ruscha muqobilini toping.

1. *Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinar.*

2. *Egilganga egil, kerilganga keril.*

3. *Maqtanganning uyiga bor, kekkayganning to‘yiga.*

4. *Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.*

Lug‘at ishi

yaqindan bilgan	знавший близко
istilo	порабощение
xiyonatchi	предатель
o‘z qo‘li bilan bitgan	написанное собственноручно
tarixiy manba	исторический источник
xolisona	объективно
ta’sis etish	учредить

Topshiriq. Yangi so‘zlar ishtirokida birikmalar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing, matn mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning. Matnni ma’noli qismlarga ajrating va reja tuzing.

Topshiriq. O‘qing. Matn yuzasidan savol - javob qiling.

AMIR TEMUR

Amir Temur 1336- yilning 8- aprelida Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo‘ja ilg‘or qishlog‘ida tug‘ildi. U yoshligida xat- savod chiqarib, tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix ilmi va me’morchilikni o‘rgandi.

Amir Temurni yaqindan bilgan arab faylasufi Ibn Xaldun jahongirning turk, arab, fors xalqlarining tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarni mukammal o‘zlashtirganini ta’kidlaydi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatini ikki davrga bo‘lish mumkin:

birinchi davr (1360 - 1385) -- Movaraunnahrning mo‘g‘ul istilosidan ozod qilinib, yagona markazlashgan davlat tuzilishi, o‘zaro urushlar barham topishi.

Ikkinchi davr (1386 – 1405) esa boshqa mamlakatlarga ikki yillik, uch yillik, tort yillik deb ataluvchi yurishlardan iborat.

Atoqli nemis olimi M. Beberning yozishicha, « Amir Temur o‘z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, Lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi».

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga sabab bor edi. Bular o‘z davlati sarhadlarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalash, karvon yo‘llarini turli yo‘lto‘sarlardan tozalash, xiyonatchi, aldoqchilarni jazolash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirishdan iboratdir.

Uning mohir diplomat ekani, Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya kabi o‘sha davrning taraqqiy etgan davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatidan dalolat sifatida fransuz va ingliz qirollarining Amir Temurga yozgan xatlarini eslash kifoya.

Amir Temur ilm – fan, ma’naviyat ahliga alohida e’tibor, mehribonlik ko‘rsatgan. U davlat, jamiyat oldida turgan har bir muhim masala yuzasidan kengash chaqirar va bu

kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temuriyzodalarni, balki sayyidlar, shayxlar, ilm - fan arboblari ham taklif etar edi.

Sohibqiron bu haqda o'z qo'li bilan bitgan, muhim tarixiy manba sanalgan «Tuzuklari»da bayon etgan.

Mustaqillik davrida tarixni xolisona o'rganish, buyuk ajdodlar ruhini yod etish yaxshi an'anaga aylandi. Xususan, Amir Temur nomini tiklash borasida katta ishlar qilindi. 1996-yilning Vatanimizda Amir Temur yili deb e'lon qilingani, Amir Temur ordeni ta'sis etilgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing, matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning. Matnni ma'noli qismlarga ajrating va reja tuzing.

21 - mashg'ulot **Suhbat**

- Toshkentda oily o'quv yurtlari ko'pmi?
- Ha, shahrimizda universitet va institutlar ko'p.
- Siz ham o'qiysizmi?
- Ha, men Toshkent Davlat Agrar Universiteti O'simliklar himoyasi fakultetida o'qiyman.
- Universitetingiz kattami?
- Ha, unda bir necha fakultet bo'lib, kundusgi va sitqi bo'limda minglab talaba o'qiydi.
- O'quv binosi necha qavatli?
- Universitetda bir necha o'quv binosi bor. Ular hammasi kop qavatli.

O'RIN-PAYT KELISHIGI (Местно-временной падеж)

Данный падеж указывает на место и время совершения действия, место нахождение предмета или лица. Слова в этом падеже имеют аффикс -da и отвечают на вопросы: kimda? (у кого?, на ком?), nimada? (на чем?, в чем?), qaerda? (где?), qachon? (когда?): Например: Mening lug'at daftarim o'rtog'imda. (Мой словарь у моего друга). Shunaqa ko'ylakni o'qituvchimda ko'rdim. (Такую же сорочку видел на своем преподавателе). U doim trolleybusda o'qishga keladi. (Он на учебу всегда приезжает на троллейбусе). U ko'ylakda tug'ilgan. (Он родился в рубашке). Bahorda dala ishlari qizib ketadi. (Весной на полях кипит работа).

Слова в этом падеже могут являются в предложении косвенным дополнением (отвечая на вопросы: kimga?, nimada?), обстоятельством места (отвечая на вопрос qaerda?) и времени (отвечая на вопрос qachon?), а так же сказуемым.

Topshiriq. Ko‘chiring. O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlarga qanday savol berilishini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Biz yozda ishlab chiqarish amaliyotida bo‘lamiz. 2. O‘zbekistonomizda xushmanzara joylar juda ko‘p. 3. Istiqlol yillarida yurtimizda sportning barcha turlari jadal rivojlanmoqda. 4. Universitet birinchiligida kursdoshlarimiz faol qatnashishdi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. В нашей семье все любят футбол. 2. В праздничные дни здесь очень много юдно. 3. В нашем доме 80 квартир. 4. В махалле «Чинар» проживает около 500 семей.

Topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI

Xalq og‘zaki ijodi -- folklor qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Qo‘shiq, ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar hali odamlar yozish va o‘qishni bilmagan paytlardanoq avloddan-avlodga o‘tib, bugungi kunlarimizgacha yetib kelgan. Ularda mehnatkash xalqning donishmandligini ko‘ramiz.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonchilik alohida o‘rin tutadi. Tarixda xalq orasidan ko‘plab baxshilar chiqqan. Ular xalqning boy merosini asrab-avaylab, yosh avlodga o‘rgatib kelgan. Shunday baxshilardan biri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1872- yilda Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani Loyqa qishlog‘ida dunyoga kelgan. U 9 yoshidan cho‘ponlik qildi. Shu orada o‘z do‘stlaridan do‘mbira chalish va termalar kuylashni o‘rganib oldi. 20 yoshlarida Loyqa qishlog‘ilik Yo‘ldosh degan shoirdan o‘ndan ziyod dostonni o‘rganib oldi. 24-25 yoshlarida mustaqil dostonchi sifatida tanildi.

Shoirdan “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf va Ahmad”, “Murodxon”, “Rustamxon”, “Shirin bilan Shakar” kabi o‘ttizga yaqin doston yozib olingan.

Istiqlol yillarida shoir ijodini o‘rganish, baxshichilik san‘atini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Lug‘at ishi

yuzaga kelgan	возник, возникший
donishmandlik	мудрость
baxshi	сказитель
asrab-avaylab	бережно
shu orada	между тем, тем временем
terma	жанр узбекского фольклора
dostonchi sifatida tanildi	прославился как сказитель

Topshiriq. Matn mazmunini so‘zlab bering.

22 - mashg'ulot

Suhbat

- Shahringizda bog'lar bormi?
- Ha, Toshkentda bog'lar ko'p. Bobur nomidagi, Bog'i eram, O'zbekiston milliy bog'i, Ulug'bek nomidagi va yana bir qancha bog'lar bor.
- Siz qaysi boqqa borishni maslahat berasiz?
- Hamma bog' ham o'zgacha. Biroq men Bobur bog'ida bo'lishni yoqtiraman. U yer juda salqin va ozoda, eng muhimi, sokin.
- U yerda attraksionlar ko'pmi?
- Ha. U yerda turli ko'ngilochar o'yinlar o'ynashingiz, qayiqda sayr qilishingiz, bir so'z bilan aytganda mazaqilib hordiq chiqarishingiz mumkin.
- Rahmat. Men albatta bu boqqa boraman.

CHIQUISH KELISHIGI

(Исходный падеж)

Слова в исходном падеже указывают на место или время начала действия, а так же на материал из чего сделан предмет. Образуются они с помощью аффикса *-dan*, отвечают на вопросы *kimdan?* (от кого?, у кого?), *nimadan?* (из чего? от чего?), *qaerdan?* (откуда?), *qachondan?* (с каких пор?). Например: *Uyat o'limdan qattiq* (Стыд страшнее смерти). *Ko'zacha toza tuproqdan yasalgan* (Кувшинчик изготовлен из чистого грунта). *Men bu haqda oyimdan eshitdim* (Об этом я узнал от матери). *Bugun biznikiga qishloqdan mehmonlar kelishdi* (Сегодня к нам приехали гости из деревни). *O'qishlar dushanbadan boshlanadi* (Учеба начинается с понедельника) и т.д.

Слова в этом падеже также могут являться дополнением, обстоятельством места и времени, сказуемым. Иногда в словах, корень или основа которых заканчивается на глухие согласные, аффикс слышится как *-tan*, но всегда пишется *-dan*. К примеру: *Shu paytdan* (с этого времени), *uyatdan* (со стыда, стыдась) и т.д.

При прибавлении аффикса *-dan*, а также *-ga*, *-da* к местоимениям *u* (он), *bu*, *shu*, (этот), *o'sha* (тот) перед аффиксами прибавляется буква *-n*: *bunga*, *shunga* и т.д.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Chiqish kelishigidagi so'zlarga savollar bering.

1. Janubdan kelgan shamol issiq bo'ladi. 2. Biz bugungi tadbirdan juda mamnun bo'ldik. 3. Uning atlasdan did bilan tikilgan ko'ylagi oftobda tovlanadi. 4. Toshkentdan Samarqandgasha mashinada to'rt soatcha yuriladi. 5. Men, odatda, uydan soat sakkizda chiqaman.

Topshiriq. Berilgan maqollarning rus tilidagi muqobilini toping. Ularni yod oling.

1. Boshga balo tildan. 2. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi, yomon gapga pichoq qinidan. 3. Bekorchidan el bezor. 4. Yigit so‘zidan, arslon izidan qaytmaydi.

Topshiriq. Chiqish kelishigidagi so‘zlar ishtirokida oltita gap tuzing.

Lug‘at ishi

vakil	представитель
ilg‘or	передовой
na‘matak	шиповник
arbob	деятель
adib	писатель
taxallus	псевдоним
so‘z	саз (музыкальный инструмент)
bitmoq	создавать, писать, сочинять
yodgorlik	памятник
mohir	умелый

Topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

OYBEK

Oybek 1905 - yilda Toshkentning eski shahar qismida tug‘ildi. Asli ismi Muso Toshmuhammad o‘g‘li bo‘lib, Oybek uning taxallusidir.

Oybek “Fanga yurish”, “So‘zim”, “Na‘matak” kabi ajoyib she‘rlar muallifi. Shuningdek, u bir qator dostonlar, jumladan “Navoiy” dostonini yaratdi.

Oybek nafaqat shoir, balki buyuk adib hamdir. Navoiy hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish natijasida u 1944- yilda “Navoiy” romanini bitadi. Bu asar ulug‘ mutafakkirga qo‘yilgan o‘ziga xos yodgorlikdir. Mazkur asar 1946- yildayoq rus tiliga tarjima qilindi. Yozuvchi romanda shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning xalq uchun baxshida hayotini chiroyli tasvirlab berdi.

Oybek nafaqat shoir, yozuvchi, balki mohir tarjimon ham. U Pushkin, Lermontov, Tolstoy kabi rus klassiklari asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Oybekning asarlari esa rus, ukrain, qozoq, tojik, fransuz, nemis, chex, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Atoqli shoir, adib, davlat va jamoat arbobi akademik Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1968- yilda vafot etdi.

Oybek hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarlar ham yaratilgan. Ular orasida L.Batning biografik asarini ta’kidlash mumkin.

Topshiriq. Matn bo‘yicha savol-javob qiling. Uning mazmunini aytib bering.

23 - mashg'ulot

Suhbat

- Kechirasiz, bu bekatning nomi nima?
- Bu "Beshqayrag'och" bekat.
- Men metro bekatiga bormoqchi edim, qaysi transportda borsam bo'ladi?
- Siz metroning qaysi bekatiga bormoqchisiz? Bu yerdan "Paxtakor" va "Chilonzor" bekatlariga borish mumkin.
- Qaysi biri yaqinroq?
- Har ikkisi deyarli bir xil masofada. "Paxtakor" ga 53, "Chilonzor"ga esa 79 yoki 189- avtobuslarda borasiz.
- Rahmat.
- Marhamat

OTLARDA SON

(Категория числа)

Имена существительные в единственном числе не имеют специального морфологического показателя.

Множественное число имен существительных образуется:

- а) с помощью аффикса –lar: kitob-kitoblar, gul-gullar, bog'-bog'lar и т.д.
- в) с помощью числительных: o'nta kitob, beshta viloyat, o'ttizta talaba и т.д.
- д) с помощью парных слов: qor-qor un (мешки муки), to'p-to'p bolalar (группы детей), dasta-dasta gul (букеты цветов) и т.д.

Примечание: аффикс -lar является омонимичным. В случае прибавления его к собственным именам, именам существительным употребляемым только в единственном числе он передает различные модальные значения.

В узбекском языке имена существительные имеют следующие функциональные формы:

- уменьшительную, образуемую с помощью аффиксов – cha, -choq, -chak: uycha (домик), filcha (слоник), baliqcha (рыбка), qo'zichoq (ягненок), kelinchak (невестка).
- ласкательную, образуемую с аффиксами –хон, -jon, - оу: oyijon (мамочка), Azizaxon (Азизочка), Hakimjon (Хакимчик), Halimaou (Халимочка) и т.д.
- принадлежности, образуемую с аффиксом –niki kitob Rustamniki.
- ограничения, образуемую с аффиксом -gacha (до): markazgacha (до центра), uygacha (до дома).
- уважительную, с аффиксом –lar: dadamlar, oyimlar

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

To'nna-to'nna paxta, akalarim, akamlar, kitobcha, toychoq, manzilgacha, mashina dadamniki.

Topshiriq. Yuqoridagi so'z va birikmalar qatnashgan gaplar tuzing.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. После уроков я поеду к бабушке.
2. В нашей группе учится 32 студента.
3. К празднику мы готовим ряд мероприятий.
4. Книга принадлежит учителю.
5. До города Газалкента 40 минут езды.

Topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.

ONA

A. Oripov

Ko‘kda yulduz o‘chsa nogahon,
Bitdi, derlar qaysi bir taqdir,
Bunday g‘amni ko‘tarmoq oson,
Bu, ehtimol, bizlar haqdadir.

Ba’zi tunlar ko‘kka tikib ko‘z,
Eslab deyman onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon.

Lug‘at ishi

ko‘kda	в небе
nogahon	внезапно
g‘am	горе
ehtimol, bizlar haqdadir	пожалуй, про нас
ko‘z tikib	глядя
on	миг
yulduz-ku yulduz	звезда - то звезда
arziydi	стоит
qulamoq	упасть, падать.

24 - mashg‘ulot

OT YASALISHI

(Образование имен существительных)

Существительные в узбекском языке образуются двумя способами: прибавлением аффиксов и сложением двух и более корней.

Наиболее часто употребляются аффиксы:

-chi: ishchi (рабочий), gilchi (цветовод), betonchi (бетонщик);

-dosh: vatandosh (соотечественник), sinfdosh (одноклассник);

-dor: chorvador (животновод), aybdor (виновник);

-lik: yaxshilik (добродетель), yomonlik (зло), rostgo‘ylik (правдивость), do‘stlik (дружба).

-kor: paxtakor (хлопкороб), g'allakor (хлебороб);
 -zor: paxtazor (хлопково поле), olmazor (яблоне́вый сад), terakzor (тополиная роща);
 -goh: o'yingoh (стадион), sihatgoh (санаторий);
 -chilik: paxtachilik (хлопководство), o'rmonchilik (лесоводство);
 -xona: oshxona (столовая, кухня), korxona (предприятие);
 -noma: taklifnoma (пригласительный билет), tabriknoma (поздравление), tavsifnoma (характеристика);
 -shunos: adabiyotshunos (литературовед), xorshunos (хоровед);

Сложные имена существительные могут образовываться следующими сочетаниями:

существительное+существительное: oshqozon (желудок), ko'zoynak (очки), toshoyna (трюмо);

прилагательное+существительное: Ko'kterak, Qiziltepa, Issiqko'l, O'rtachirchiq;

числительное+существительное: to'rtburchak (прямоугольник), To'rtko'l, Beshyog'och.

Парные имена существительные образуются от слов синонимов: do'st - yor (друзья), или слов – антонимов: ota - ona (родители) и чаще имеют собирательное значение.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling. Shu so'zlar ishtirokida 5-6 ta gap tuzing.

Сварщик, языковед, искусствовед, арендатор, вишневый сад, лужайка, цыпленок, теленок, жеребенок, волчонок.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Qisqichbaqa, toshbaqa, uchburchak, ko'pburchak, kitobxon, soatsoz, bog'bon, oshpaz.

Topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

НАША КВАРТИРА

Мы живем в многоэтажном доме. Наша квартира на третьем этаже. Она светлая и красивая. В квартире три комнаты. Большая комната – гостиная. В ней диван, шкаф. На стене висит коврик. По середине комнаты большой стол. На столе белая скатерть. Вокруг стола шесть стульев. Другая комната – моя спальня. Третья – детская. В этой комнате две кровати, шкафчик.

Мне очень нравится наша квартира. Она уютная, чистая.

25 - mashg'ulot

Suhbat

- Kechirasiz, siz shu universitetda o'qiysizmi?
- Ha, shu yerda o'qiyman.
- Aytolmaysizmi, bu qaysi fakultet binosi?
- Bu matematika fakulteti.
- O'zbek tili va adabiyoti fakulteti qaysi binoda?
- U 1- o'quv binosida. Hozir darvozadan chiqib chap tomonga yurasiz. Ozingina yursangiz asosiy bino boshlanadi. Uni aylanib o'tib, yuz ellik qadamcha pastga yurasiz. O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekanati 3- qavatda.

SIFAT

(Имя прилагательное)

Часть речи, обозначающая признак лица или предмета называют прилагательным. В узбекском языке они отвечают на вопросы qanday? qanaqa? (какой?), qaysi? (который?).

Прилагательные в узбекском языке делят на следующие разряды:

1. **Xususiyat bildiruvchi.** Означающие свойство; они означают свойство как человека так и предметов: kamtarin (скромный), auyor (хитрый), yuvosh (смирный), yaxshi (хороший);

2. **Holat bildiruvchi.** Означающие состояние: xursand (веселый, радостный), xafa (грустный), keksa (старый), sovuq (холодный), tinch (спокойный, тихий);

3. **Shakl bildiruvchi.** Означающие форму - вид: povcha (высокий), yassi (плоский), gavdali (рослый);

4. **Rang- tus bildiruvchi.** Означающие цвет: pushti (оранжевый), zangori (голубой);

5. **Maza- ta'm bildiruvchi.** Означающие вкус: shirin (сладкий), nordon (горький), achchiq (острый), sho'r (солёный).

6. **Hajm – o'lchov bildiruvchi.** Означающие меру- объём: keng (широкий), tor (узкий), uzun (длинный), og'ir (тяжёлый);

7. **Hid bildiruvchi** Означающие запах, их всего несколько: xushbo'y (приятный), badbo'y, sassiq, qo'lansa (неприятный).

Topshiriq. Sifatning har bir ma'no turiga beshtadan misolni tarjima bilan yozing. Ularni qatnashtirib beshta gap tuzing.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Алишер Навои – выдающийся деятель узбекской классической литературы. 2. Улицы нашего города широкие и светлые. 3. Летом большой спрос на прохладительные напитки. 4. С утра подул приятный ветерок. 5. Мой старший брат - страстный болельщик «Пахтакор»а.

Topshiriq. Lug'atda keltirilgan so'zlarni yod oling. Shu so'zlar ishtirokida birikmalar tuzing va tarjima qiling.

zavqli

восторженный, веселый

adir	поле
shishadek tiniq	прозрачен как стекло
xushchaqchaq	веселый, жизнерадостный
qumursqalar	муравьи
serdaraxt	богатый деревьями
peshin	полдень
bezraymoq	уставиться
yalpiz	мята

Topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, mazmunini aytib bering.

BAHOR ZAVQI

Said Ahmad

Erta bahorning zavqli kunlari. Yam-yashil adirlardagi maysalarning xushbo'y hidlari dimoqqa uriladi. Oftob charaqlaydi. Ko'm-ko'k osmon shishadek tiniq. Issiq tunlar yelkadan tushgan. Katta-kichik yengil kiyim kiygan. Xushchaqchaq qizlarning sochlariga sochpopuk taqilgan. O'riklarning novdalarida gul. Ariq bo'ylaridagi yalpizlarning hidi keladi. Baland-baland devorlar tagida qumursqalar yuradi.

Zarqishloqning katta-katta ko'chalarida, serdaraxt bog'larida ko'klam namoyish qiladi. Qishloq o'rtasidagi eng baland chinorning kurtaklari orasida katta uya. Unda laylak bir oyoqlab turibdi. Kun peshindan oqqan. Bezrayib turgan ikki tup kattagina sada tagidagi chiroyli choyxonada turli –tuman odamlar ko'p.

Topshiriq. Matndagi sifatlarni ko'chirib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Topshiriq. Savollarga yozma javob bering.

1. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ida qaysi ranglar mavjud?
2. Bayroqdagi har bir rang nimani anglatadi?

26 - mashg'ulot **Suhbat**

- Akmal, sen sportga qiziqasanmi?
- Ha, qiziqaman, ayniqsa futbolga.
- Qaysi jamoaga muxlislik qilasan?
- O'zimizning "Paxtakor"ga, yana Kiyevning "Dinamo"sigam.
- O'yingohga tez-tez borib turasanmi?
- Birorta ham o'yinni o'tkazmaslikka harakat qilaman, juda bo'lmasa televizordan ko'raman. O'zing-cni, futbolga qiziqasanmi?
- Ha, biroq ko'proq kurashga qiziqaman. Hatto to'garakka ham qatnayapman.

SIFAT DARAJALARI

(степени сравнения прилагательных)

Сопоставление одинаковых качеств в предметах выражается степенями сравнения имен прилагательных.

В узбекском языке три степени сравнения.

Oddiy daraja (обычная степень).

Qiyosiy daraja (сравнительная степень).

Orttirma daraja (превосходная степень).

В обычной степени качество предмета называется без сравнения его с качеством другого. Эта форма является начальной для прилагательных: oddiy (простой), go'zal (красивый), oq (белый) и т.д.

Сравнительная степень означает большую или меньшую степень качества по сравнению с похожим. Она образуется двумя способами: с помощью аффикса-гоq: oqroq (белее), kuchliroq (сильнее), tekisroq (ровнее) и т.д.

С помощью слов: sal, biroz, xiyol (немного, чуть), sal baland (чуть выше), sal past (чуть ниже).

Пре́восходная степень означает большую степень признака чем в норме. Так же образуется двумя способами: 1. С помощью слов juda (очень), eng (самый), g'oyat (da) (очень), nihoyat (da), behad (безгранично): juda yoqimli (очень приятный), behad shod (безгранично радостный) и т.д.

2. Первый слог или начало прилагательного ставится перед ним, образовав парное, при этом в первом слоге в конце произносятся звуки p, m или любой звук в первом слоге меняют на эти звуки: qor-qora (черный), yam-yashil (очень зеленый), dum-dumaloq (круглый-круглый) и т.д.

Так же превосходную степень образуют произношением гласных дольше чем обычно, или удвоенным произношением согласных: uzu-u-un (yo'l), tekkis (yo'l) и т.д.

Отдельные разряды прилагательных не имеют степеней сравнения: sirtqi (заочный), devoriy (стенная) и т.д.

Topshiriq. Berilgan sifatlarning qiyosiy va orttirma daraja shakllarini yozing. Shu so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Sariq, qizil, kamtar, saxiy, toza.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. O'lkamizda saxiy kuz davom etmoqda. 2. Oq oltindan baland-baland xirmonlar uyulmoqda. 3. Tonggi sukunatni qushlarning chug'ur-chug'uragina buzardi. 4. Bayramga bag'ishlangan devoriy gazetalar tanlovida biz g'olib bo'ldik.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Сегодняшний, вчерашний, прошлогодний, завтрашний, вечерний, утренний, осенний, хмурый, грустный, веселый, беспечный.

Lug'at ishi

povvoy

пекарь

ta'qib ostiga olindi	преследовался
kirdikor	проделки
sadoqat	верность
hanuzgacha	до сих пор
o'tkir	острый
o'ziga xos	своеобразный
haqqoniy	правдивый, правдиво
baxshida etmoq	посвятить

Topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

MUQIMIY

Muhammad Aminho'ja o'g'li Muqimiy 1950 – yilda Qo'qon shahrida tug'ildi. Shoirning otasi Mirzaho'ja novvoy edi.

Muqimiy avval Qo'qonda, so'ng Buxoro va Toshkentda o'qidi.

Muqimiy boy meros qoldirgan lirik shoir. U o'z g'azallarida vatanga muhabbat, sadoqat, poklik kabi insoniy tuyg'ularni kuyladi. Uning g'azallarini hanuzgacha sevib kuylab va tinglab keladilar.

Shu bilan birga Muqimiy o'tkir satirik asarlar yaratdi. “To'y”, “Tanobchilar”, “Sayohatnoma” shular jumlasidandir. Shoirning “Sayohatnoma” asari o'zbek adabiyotida o'ziga xos yangilik bo'ldi. Bu asarida u o'sha davr hayotini haqqoniy aks ettirdi. O'z asarlarida Muqimiy amaldorlarning kirdikorlarini fosh qildi, poraxo'r, o'z manfaati uchun har narsaga qodir kishilar ustidan kuldi. Shu bois ham u ta'qib ostiga olindi.

Shoir butun umrini xalqqa baxshida etdi. U 1903-yilda Qo'qonda vafot etdi.

27 - mashg'ulot

SIFAT YASALISHI

(Образование имен прилагательных)

Имена прилагательные в узбекском языке образуются двумя способами: с помощью словообразующих аффиксов и сложением основ.

Наиболее активными являются аффиксы:

-li: aqlli (умный), chiroyli (красивый), gulli (цветочный), qiziqarli (интересный).

-siz: savodsiz (неграмотный), suvsiz (безводный).

-chan: ishchan (деловой), uyatchan (стеснительный).

-aki: yuzaki (поверхностный), og'zaki (устный).

-ma: yozma (письменный), qovurma (жареный).

be-: beodob (невоспитанный), bebaho (бесценный).

ba-: badavlat (богатый), baodob (воспитанный).

ser-: sersuv (многоводный), serhosil (плодородный).

po-: notinch (неспокойный), poxush (непритяный).

-gin: horg'in (усталый), keskin (резкий).

-choq: erinchoq (ленивый), maqtanchoq (хвастливый).

-gir: o'tkir , olg'ir (хваткий), sezigir (чуткий).

-gi: kuzgi (осенний), bugungi (сегодняшний).

Сложные имена прилагательные образуются следующими способами:

1) прилагательное + прилагательное: och sariq, to'q qizil;

2) прилагательное + существительное: ochko'z (жадный), ochiq ko'ngil (добрый);

3) существительное+глагол: muzyorag (ледокол);

4) существительное +существительное: havo rang (голубой), sheryurak (храбрый), toshyurak (жестокий);

5) наречие + существительное: hozirjavob (быстрый), kamgap (молчаливый).

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Hushsiz, kamxafsala, ko'ngilsiz, diyonatli, umumxalq, g'ayriqonuniy.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Весенние каникулы начинаются перед праздником Навруз. 2. Перед экзаменами пришлось провести много бессонных ночей. 3. Мой брат любит современную музыку. 4. Утренний концерт я не смог прослушать.

Topshiriq. Berilgan so'zlarga mos sifatlar topib, so'z birikmalari tuzing. Kitob, qalam, do'st, o'quvchi, topshiriq.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oqlar boshlaydi va uch yurishda mot qiladi. 2. Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin. 3. Ahmoq o'zini maqtaydi.

SIFATNING OTLASHISHI (Субстантивация прилагательных)

Субстантивация – употребление имен прилагательных вместо существительных.

В узбекском языке прилагательные не склоняются, не имеют форму множественного числа. В отдельных случаях они употребляются с аффиксами, присущими именам существительным, это и называют субстантивацией: Yaxshiga yondosh, yomondan qoch (Буквально, будь с хорошим (человеком), остерегайся плохого).

Lug'at ishi

navqiron

молодой

diiqqatga sazovor joylar

достопримечательности

inshoot

сооружение

mavjud	существует, есть
yoʻnalish	линия, направление
antiqa	дикий, дикий
mamnun	доволен, довольный
atigi	всего лишь

Topshiriq. Soʻz birikmalarini rus tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Navqiron shahar, zamonaviy inshootlar, antiqa taom, benihoya mamnun.

Topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

TOSHKENT METROSI

Toshkent – qadimiy va navqiron shahar. Uning diqqatga sazovor joylari juda koʻp.

Toshkent metrosi ham kishi diqqatini oʻziga tortadigan ajoyib inshoot.

Toshkent metrosining birinchi yoʻnalishi 1977-yilda ish boshlagan, oʻshanda atigi ettita bekat mavjud boʻlib, metro shahar markazini Chilonzor dahasi bilan bogʻlagan.

Hozirda Toshkent metrosining uchta yoʻnalishi boʻylab poezdlar qatnovi yoʻlga qoʻyilgan. Ular Chilonzor, Oʻzbekiston va Yunusobod deb nomlanadi.

Metroning har bir bekati oʻzgacha goʻzallikka ega. Ayniqsa, Navoiy, Hamid Olimjon, Kosmonavtlar bekatlari antiqa usullarda bezatilgan.

Bu qulay va zamonaviy transport xizmatidan shahrimiz aholisi va mehmonlari juda mamnunlar.

Topshiriq. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

Metroning birinchi navbati, yangi yoʻnalish, oʻtgan yili ishga tushirildi, ozoda xona, yoʻlovchilar uchun qulaylik, oʻtish yoʻlidan foydalanmoq.

27 - mashgʻulot Suhbat

- Sen oʻqishga har kuni soat nechada borasan?
- Men oʻqishga soat 8.20 larda boraman.
- Darslar soat nechada boshlanadi?
- Darslarimiz soat 8.30 da boshlanadi.
- Har kuni necha soat oʻqiysiz?
- Kuniga 6-8 soat oʻqiymiz.
- Soat nechada tushlik qilasan?
- Soat 11.20 da katta tanaffus. Shu vaqtda biz ovqatlanamiz.
- Darsdan qaysi payt qaytasan?

- Hamma vaqt har xil. Dars olti soat bo'lsa 13.05 da, sakkiz soat bo'lsa 14.35 da tugaydi. Keyin kutubxonada dars tayyorlayman. Soat 17-17.30 larda uyga kelaman.

SON

(Имена числительные)

Имя числительное - часть речи обозначающая количество, а также порядок предметов при счете.

Они делятся на **miqdor son** - количественные и **tartib son** - порядковые.

Количественные числительные делятся:

Sanoq son (счетные):

Единицы	Десятки	сотни,	тысячи
1-bir	10-o'n	100 yuz	1000 ming
2-ikki	20-yigirma	200 ikki yuz	2000 ikki ming
3-uch	30-o'ttiz		
4-to'rt	40-qirq		
5-besh	50-ellik		
6-olti	60-oltmish		
7-yetti	70-yetmish		
8-sakkiz	80-sakson		
9-to'qqiz	90-to'qson		

Dona son. Штучные числительные образуются от счетных с помощью аффикса -ta, и употребляются для счета по штучно: bitta, ikkita, uchta и т.д. После штучных числительных аффикс множественного числа не употребляется: bitta kitob, yuzta kitob и т.д.

Taqsim son. Разделительные числительные образуются с помощью аффикса -tadan: bittadan (по одному), ikkitadan (по два);

Chama son. Приблизительные числительные образуются с помощью аффиксов -tacha: o'ntacha (около десяти), yuztacha (около ста); -lab: o'nlab (десятки), yuzlab (сотни); -larcha: o'nlar (десятки), yuzlar (сотни);

Парные числительные также относятся к приблизительным o'n-o'n besh (десять - пятнадцать) и т.д.

Jamlovchi son. Собираательные числительные образуются с помощью аффиксов -ov, -ovlon, -ala: от числительных от двух до семи: uchov, uchovlon, uchala (трое) и т.д.

Kasr son. Дробные числительные читаются: знаменатель в форме исходного а числитель в форме именительного падежа: 1/2 ikkidan bir, 3/4 to'rt dan uch, 0,5 nol butun o'ndan besh и т.д.

Слова yarim (0,5), chorak (0,25), nimchorak (0,12,5) также относятся к дробным числительным.

Tartib son. Порядковые числительные образуются прибавлением аффикса -(i)nchi: birinchi (первый), yuzinchi (сотый).

Если вместо порядковых числительных пишутся цифры, то после них ставится дефис: 1- maktab, 8- dekabr, 10- sinf.

Topshiriq. Ikki va uch sonlaridan sonning ma’no turlarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Topshiriq. Sonlarni so‘z bilan yozing. Rus tiliga tarjima qiling.

11- maktab, 6- kasalxona, XXI asr, 1991-yil, 100 000- mahsulot, 1000.000-yo‘lovchi.

Rasm

8- DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI
QABUL QILINGAN KUN

Lug‘at ishi

qomus	энциклопедия
ramz	символ
bob	глава
bo‘lim	раздел
modda	статья
belgilab bermoq	определить
mustahkamlamoq	закрепить
erkinlik	свобода
hudud	право
majburiyat	обязательство
manba	источник
kafolat	гарантия

Topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

BAXTIMIZ QOMUSI

Konstitusiya har bir davlatning ramzlaridan biri. Konstitusiya so‘zi “tuzilish, qurilish” degan ma’noni bildiradi.

O'zbekiston ham o'z davlat mustaqilligiga erishgach asosiy qonun – Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu tarixiy voqea 1992- yilning 8- dekabrda sodir bo'ldi.

Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi jahonning ilg'or davlatlari tajribasini o'rganish asosida yaratildi. U muqaddima, 6 bob, 28 bo'lim, 128 moddadan iborat.

Asosiy qonunimizda fuqarolar huquq va erkinliklari, majburiyatlari belgilab berilgan.

Unda O'zbekiston xalqini millati, e'tiqodi, dini, jinsidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etishi mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani aytilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi ozod va obod Vatan, farovon hayot qurishimizning huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzing.

Topshiriq. Konstitutsiyamiz haqida nimalarni bilasiz. Shularni yozing.

28 - mashg'ulot **Suhbat**

- Kechirasiz, hozir soat necha?
- Hozir 16.40.
- Aytolmaysizmi, G'azalkentga oxirgi avtobus soat nechada jo'naydi?
- Menimcha, 17.00 larda.
- Demak, shoshilishim kerak ekan.
- Siz yaxshisi metroga tushing. Buyuk ipak yo'li bekatigacha borasiz, shu erdan avtobusga chiqib olasiz.
- Ulgurarmikanman?
- Bemalol ulgurasiz. Metro atigi 7-8 daqiqa yuradi.
- Rahmat.
- Salomat bo'ling.

VAQT HISOBI (Обозначение времени)

12.10. -- o'n ikkidan o'n daqiqa o'tdi.

12.30. -- o'n ikki yarim.

11.50. -- o'n daqiqasi kam o'n ikki.

В пределах первой половины неполного часа называют после слова soat полный час в исходном падеже затем минуты прошедшего неполного часа в именительном падеже и употребляется слово o'tdi (прошло);

В пределах второй половины неполного часа называют после слова soat количество недостающих до полного часа минут, затем слова daqiqasi kam и следующий полный час.

Если слово soat стоит после числительного, то указывается на продолжительность времени: Сравните: soat etti (время семь часов), etti soat (в течении 7 часов).

Topshiriq. Soʻz bilan yozing.

10.15; 11.20; 12.40; 13.10; 22.45; 17.05; 18.55.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz har kuni soat nechada turasiz? 2. Soat nechada nonushta qilasiz? 3. Nechada oʻqishga yoʻl olasiz? 4. Oʻqishgacha necha soat (daqiqqa) yoʻl yurasiz? 5. Oʻqishdan nechada qaytasiz?

Topshiriq. Oʻz kun tartibingizni aytib bering.

Lugʻat ishi

ixtiro (qilmoq)	изобретение (изобрести)
rasadxona	обсерватория
bilimdon	знаток
oʻnli kasr	десятичная дробь
oddiy kasr	обычная дробь
tizim	система
amal	действие (математическое)
taklif qilmoq	предложить
afzallik	превосходство, удобство.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Ajoyib ixtiro, Ulugʻbek rasadxonasi, oʻz ishining bilimdoni, amallarni bajarmoq.

Topshiriq. Matnni oʻqing. Mazmunini aytib bering.

OʻNLI KASRNI KIM IXTIRO QILGAN?

Jamshid Koshiy Ulugʻbekning oʻqituvchisi boʻlib, rasadxona qurilishida qatnashganlardan biridir.

Koshiy matematika va astronomiya fanlarining bilimdoni edi. U 1427- yilda “Arifmetika kaliti” nomli kitob yozgan. Mazkur kitobida u jahonda birinchi marta oʻnli kasr va toʻrt amalni bajarish qoidasini tushuntirib bergan. Oʻzi yaratgan oʻnli

kasrni yozish tizimi haqida to'la tushuncha bergan. Ungacha faqat oddiy kasr ishlatilar edi.

Al Koshiy asarlari ko'p yillargacha Yevropa olimlariga ma'lum emas edi. Yevropada o'nli kasrlar haqida ilk marta Flamandiyalik olim Simon Steving 1585 - yilda "O'nli kasrlar haqida" nomli kitob yozgan. Unda kasrlar ustida amallarning bajarilishi va kasrning amaliyotdagi afzalligini tushuntirib bergan. O'nli kasrning butun qismini vergul bilan ajratishni nemis olimi Kepler (1571-1630) taklif qilgan.

Topshiriq. Matn yuzasidan 7-8 ta savol tuzing.

HISOB SO'ZLARI (Нумеративы)

Счетные числительные обозначающие признак предмета по количеству иногда употребляются с нумеративами. Эти слова указывают не на конкретный считаеый предмет, а то какой категории, группе он относится при счете. Эти слова, употребляясь между числительным и словом обозначающим предмет означают его меру относительно веса, длины места расположения и другим особенностям. Чаще нумеративами являются имена существительные: dona (штука), nusxa (копия), siqim (горсть) и т.д.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Bemorga uch mahal dori berib turasiz. 2. Atigi bir dona gul uzdim. 3. Uyimizda to'rt bosh qoramol bor. 4. Qo'lida bir dasta gul... (S.Ahmad). 5. Yaraqlagan bir juft kalishni menga uzatdi.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Программа конференции аспирантов ТГПУ имени Низами.
21.01.03

10.00. Пленарное заседание.
12.30. Перерыв.
13.00-17.00. Работа в секциях.

21.02.03

10.00. Работа в секциях.
13.00. Перерыв.
13.30. Итоговое пленарное заседание.

29 - mashg‘ulot

Suhbat

- Ayting-chi, Toshkentda hayvonot bog‘i bormi?
- Ha, Toshkentda ajoyib hayvonot bog‘i bor.
- U qaerda joylashgan?
- Hayvonot bog‘i Jahon Obidova ko‘chasida, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika bog‘i yonida joylashgan.
- U erga qaysi transport bilan borsam bo‘ladi?
- Hayvonot bog‘iga Mustaqillik maydonidan 115- va 19- avtobuslarda, Chorsu bekatidan 53- yo‘nalishli taksida borishingiz mumkin.
- Rahmat.
- Marhamat.

OLMOSH (Местоимение)

Слова, употребляемые вместо существительных прилагательных, числительных и иногда наречий называют местоимениями.

В узбекском языке 7 разрядов местоимений:

1. Kishilik olmoshlari
2. O'zlik olmoshlari
3. Ko'rsatish olmoshlari
4. So'roq olmoshlari
5. Jamlash olmoshlari
6. Bo'lishsizlik olmoshlari
7. Gumon olmoshlari

Местоимения так же классифицируют по тому, вместо каких частей речи они употребляются. Например, личные местоимения употребляются вместо существительных, указательные вместо прилагательных и соответственно имеют те же грамматические свойства, что и слова, вместо которых они употребляются. Личные местоимения склоняются по падежам, а указательные могут субстантивироваться и т.д.

KISHILIK OLMOSHLARI (Личные местоимения)

Личные местоимения указывают на 1, 2, 3 лица. К ним относятся:

	Birlik	Ko'plik
1- shaxs	Men (Я)	Biz (Мы)
2- shaxs	Sen (Ты)	Siz (Вы)
3- shaxs	U (Он(а))	Ular (Они)

Личное местоимение *sen* иногда употребляют в форме множественного числа, *senlar* в этом случае выражается пренебрежительность. *Senlar hali ko'rasan (lar)*. Вы ещё увидите.

Иногда местоимения *biz* так же может иметь аффикс *-lar*.

Личное местоимение *siz* может означать как множественное число, так и уважительное отношение к одному лицу. Иногда в живом общении чтобы различать множественное число к нему так же прибавляют *-lar*.

При прибавлении аффиксов *-ning*, *-ni*, *-niki* к местоимениям *men* и *sen* одно *n* выпадает: *meniki*, *mening*, *meni*.

При прибавлении аффиксов *-ga*, *-da*, *-dan*, *-gacha* к местоимению *u* (а также к *bu*, *shu*, *o'sha*) прибавляют одно *n*: *unga*, *bunda*, *o'shangacha* и т.д.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я узнал о вашем приезде только что. 2. Мне тогда было лишь одиннадцать. 3. Ты получил мое письмо? 4. Выходные мы собираемся провести в горах. 5. А в какой группе учится она? 6. Ты передал ей мое приглашение. 7. Я рад встрече с вами.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Mening katta akam hisobchi. U “Mikond” zavodida ishlaydi. 2. Karimning akasi undan uch yosh katta. Hozir u to‘qqizinchi sinfda o‘qiyapti. 3. Sen yakshanbada nimalar qilmoqchisan. Ehtimol, biz bilan sayohatga borarsan?

Lug‘at ishi

salobatli	крупный
barpo etilgan	возведен
hashamatli	красивый
gumbaz	купол
zarhal	золотистый
ohu	олень
ta‘mirlandi	реконструировано
fikrimizning dalili	подтверждение нашей мысли

Topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini aytib bering.

REGISTON

Samarqand -- ko‘hna tarixiy obidalarga boy shaharlardan biri. Shunday obidalardan biri -- Registon uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug‘bek, Sherdor, Tillaqori madrasalaridir.

Ulug‘bek madrasasi 1471- yilda barpo etilgan. Bu bino Ulug‘bek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatlisi edi. Uning monumental peshtoqlari yongumbazlari va minoralari hozir ham kishini hayratga soladi. Bu madrasa o‘z davrida ilm-fanning yirik markazi bo‘lgan. Madrasada yirik olimlar, jumladan Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergan.

Sherdor madrasasi 1619-1636- yillarda Samarqand hukumdori Yalanto‘sh Bahodirning topshirig‘i bilan qurilgan. Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular rasmi solingani uchun Sherdor madrasasi deb atalgan.

Tillaqori madrasasi 1647-1660 - yillarda qurilgan. U zarhal naqshlar bilan ishlangani uchun shunday nom olgan. Mazkur bino qurilishi bilan Registon maydonidagi ajoyib ansambl mukammal shakl olgan.

Hozirda bu yerga minglab sayyohlar tashrif buyurishadi. Istiqlool davrida madrasalar qayta ta‘mirlandi. Endilikda u erda ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. “Sharq taronasi” xalqaro musiqa tanlovi fikrimizning dalilidir.

Topshiriq. Matn yuzasidan 7-8 ta savol tuzing. O‘zaro suhbatlashing.

Topshiriq. Shahringizdagi tarixiy joylar haqida soʻzlab bering.

30 - mashgʻulot **Suhbat**

- Sen Samarqandda boʻlganmisan?
- Yoʻq. Men Samarqandda boʻlmaganman. Oʻzing-chi?
- Men u erda ikki marta boʻlganman.
- Chiroyli shahar deyishadi, toʻgʻrimi?
- Ha, Samarqand juda chiroyli shahar. Ayniqsa, Registon maydoni. Xuddi ertakka oʻxshaydi.
- Men ham bu shaharda boʻlishni juda istardim.

OʻZLIK OLMOSHLARI (Возвратное местоимение)

В узбекском языке одно слово oʻz называют возвратным местоимением. Оно может употребляться и вместо личных местоимений, в этом случае он имеет аффиксы принадлежности: oʻzim (я сам), oʻzing (ты сам) oʻzi (он сам) и т.д.

Само слово переводится как свой, и является в предложении определением.

Oʻz uyim -- oʻlan toʻshagim – мой дом – моя крапость.

В третьем лице во множественном числе может употребляться аффикс -lar. Но он больше выражает уважительную форму: Shoiramizning oʻzlari ham tashrif buyurdilar. К нам пришла и сама поэтесса

Эту форму иногда употребляют относительно и третьего лица: Oʻzlaridan ham bir eshitaylik. Давайте, и вас слушаем.

Topshiriq. Oʻzlik olmoshini kerakli shaklda qoʻllab, gaplarni koʻchiring.

1. ... er bilsang, oʻzgani sheʼr bil (maqol). 2. ... uying – oʻlan toʻshaging (maqol). 3. ... chiqqan baloga, qayga boray daʼvoga (maqol). 4. Salimaning ... ham shu institutda oʻqiydi. 5. ... qadrini bilmagan oʻzganing ham qadrini bilmaydi.

Topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой друг купил себе новые книги. 2. Он взял с собой на отдых учебник. 3. Я не могу думать только о себе. 4. Это поручение я беру на себя. 5. Ты доволен своей сегодняшней работой. 6. Он явно улучшил свои результаты. 7. У нас в столовой самообслуживание.

Topshiriq. Ot turkumiga oid soʻzlarning kelishigini ayting.

1. Bozordan 5 kg mol go'shti, 2 kg paxta yog'i oldik. 2. Maktab bog'ida anor, behi pishib yotibdi. 3. Ukamga "O'zbek ertaklari" kitobini sotib oldim. 4. Kechqurunlari gazeta-jurnallar o'qiyman, musiqa tinglayman. 5. Men shu vaqtgacha Buxoro, Xorazm va Nukusda bo'lib ulgurdim.

Lug'at ishi

osoyishtalik	покой, спокойствие
muhofaza	защита, охрана
qudratli	мощный
quruqlikdagi qo'shinlar	сухопутные войска
maxsus qo'shinlar	специальные войска
muxandislik qo'shinlari	инженерные войска
havo hujumidan mudofaa	
qo'shinlari	войска ПВО
cheksiz	безгранично
ijtimoiy maqom	социальный статус
an'ana	традиция
e'tibor	внимание
bir ko'rinishni	одно из проявлений
qo'riqlamoq	защищать

Topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. Matndagi barcha sifatlarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'shiring.

Masalan: Sharaflı kasb.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

Qadimdan Ona-Vatan himoyasi yigit kishi uchun sharaflı kasb sanalib keladi.

Sharqda ham, G'arbda ham yurt osoyishtaligini muhofaza etishga, bu ishga o'zini bag'ishlaganlarga hurmat va e'tibor bilan qaraganlar. Bu o'rinda Amir Temurning "Askarlari qudratli yurt boy bo'lyr, boy yurtning askarlari qudratli bo'lur" degan so'zlarini eslash kifoya.

Istiqloлга erishgan O'zbekiston ham o'z Harbiy doktrinasini qabul qildi. Qurolli kuchlarini tashkil etdi.

O'zbekiston Qurolli kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidan mudofaa, Harbiy Havo kuchlari, Muhandislik qo'shinlari, Maxsus qo'shinlar va Milliy Gvardiyadan iborat Qo'shin turlarining har biri muayyan maqsadlarni ko'zlab, aniq vazifalarni hal etish uchun tuzilgan.

Xalqimiz o'z himoyachilarini cheksiz hurmat qiladi. Hozirda harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning nufuzi, ijtimoiy maqomi ortib bormoqda. Minglab yoshlar o'zlarini sharaflı va o'ta mas'uliyatli kasb – zobitlikka tayyorlab, buyuk bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Pahlavon Mahmud, Muqannalar an'analari davomchisi bo'lishni orzu qilmoqdalar.

14- yanvar Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilinishi, bu kun keng nishonlanishi, harbiylarga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir.

31 - mashg'ulot **Suhbat**

- Siz qaysi faslni yoqtirasiz?
- Bahor faslini.
- Nima uchun?
- Bahorda bayramlar ko'p. 8- mart, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni. Men esa bayramlarni yaxshi ko'raman.
- Qaysi bayramni yaxshi ko'rasiz?
- Hammasini. Biroq Navrozni ayniqsa yaxshi ko'raman. Hamma yoq yam-yashil, hammaning kayfiyati bahoriy. Xuddi uzoq uyqudan uyg'onganday.
- Men esa yangi yilni yaxshi ko'raman. Ayniqsa, shu kuni qalin qor yoq'ib bersa bormi! Juda ajoyib bo'ladi.

KO'RSATISH OLMOSHLARI

Указательные местоимения употребляются для указания, подчеркивания лица предмета или признака. Наиболее употребительны в современном узбекском языке:

- u, o'sha - тот, та, то, те
- bu, shu - этот, эта, это, эти
- mana - вот
- ana - вон
- mana bu, mana shu - вот этот
- ana u, ana o'sha - вон тот
- bunday - вот так (такой)
- shunday – так (такой)
- o'shanday – также (такой)

Указательные местоимения употребляются вместо существительных, прилагательных и наречий.

Topshiriq. Ko'rsatish olmoshlarini yod oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bu yigitni yaxshi bilaman. 2. Bu uylar yangi qurilgan. 3. O'shanda bunday bo'lishini sira o'ylamagandim. 4. Shunday odamlar borki, ular bilan hech xayrlashgich kelmaydi. 5. Tog' yonbag'irlari shunday go'zalki! 6. Ushbu kitobni menga o'qituvchim sovg'a qildilar. 7. Tohir shunday tez yurib ketdiki, Adham unga yeta olmadi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Такие вот дела. 2. Он такой веселый. 3. Октав спел эту замечательную песню как настоящий артист. 4. В этом саду очень много яблок. 5. Мы живем вон за тем садом.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling va yod oling.

1. Hayot ona allasidan boshlanadi. 2. Ayol borki, olam munavvar. 3. Ayolsiz uy – jonsiz tana. 4. Jannat onalar oyog‘i ostida.

32 - mashg‘ulot

SUHBAT

- Kechirasiz, bu qaysi o‘quv binosi?
- Bu to‘rtinchi o‘quv binosi.
- Matematika fakulteti shu binodami?
- Yo‘q, u 6- binoda joylashgan.
- U binoga qanday boraman?
- Chet tillar fakulteti binosini bilasizmi?
- Yo‘q.
- Unda, hozir yo‘lni kesib o‘tasiz. 60 qadamlar yursangiz, katta yashil darvoza. Undan kirishingiz bilan 6 qavatli binoga ko‘zingiz tushadi. Shu 6-bino.
- Rahmat.

SO‘ROQ OLMOSHLARI

(Вопросительные местоимения)

Местоимения, употребляемые для уточнения неизвестного, неопределенного предмета называют вопросительными. К ним относятся: kim? (кто?)(употребляется исключительно по отношению к человеку); nima? (что?), qayer? (какое место?), qachon? (когда?). necha?, qancha? (сколько?); qanday? qanaqa? (какой?) и др. Они имеют те же свойства, что и слова (части речи), отвечающие на них. К примеру местоимения kim? nima? qayer? склоняются, могут принимать аффиксы множественного числа и принадлежности: Darsda kimlar qatnashmayapti? (Кого нет на занятии). Kimda o‘zbek tili kitobi bor? (У кого есть книга по узбекскому языку). U kimning bo‘ladi? (Кем он тебе приходится?) и т.д.

Topshiriq. Savollarga javob bering, javoblaringizni rus tiliga tarjima qiling.

1. Yig‘ilishda kimlar qatnashdi? 2. Sizga o‘zbek tilidan kim dars o‘tadi? 3. Siz qanday musiqani yoqtirasiz? 4. U senga nimalar olib berdi? 5. Qodiriyning qaysi romanini bilasiz? 6. Siz qaysi futbol jamoasining muxlisisiz?

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Где проживает ваша семья? 2. Как вы добираетесь до университета? 3. Сколько в этом семестре у вас предметов? 4. Как вчера прошли семинарские занятия? 5. С кем вы беседовали на лестнице? 6. Чем это вы так удивлены?

Topshiriq. Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tusing.

O'zbek tili darsi, o'quv xonasi, kitobxon bileti, katta tanaffus, ma'ruzalardan so'ng.

Topshiriq. O'qing otlarning qaysi kelishik shaklida ekanini ayting.

1. Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan. 2. Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. 3. Otning yaxshisi uloqda bilinadi. 4. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.

Lug'at ishi

shimol	север
harorat	температура
pasaymoq	снижаться
tashkil qiladi	составляет
irmoq	приток (реки)
tashqarida	снаружи, извне
hosil bo'ladi	образуется, получается
hovuz	бассейн, котловина
oqim	течение
doirasidagina	лишь в пределах

Topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalri ishtirokida gaplar tuzing.

Iqlimi continental; quyosh nur sochib turadi; eng sovuq oy; eng janubiy qismi; qish davri besh oyga cho'ziladi; issiqlik 42% darajaga yetadi; eng ulkan daryo; Amudaryoning irmoqlari; Sirdaryoning irmoqlari; Sirdaryo havzasiga; Amudaryo havzasiga, irmoqlari, asosan, o'zining o'rta va quyi oqimlari doirasidagina;

Topshiriq. Quyidagi savollarga og'zaki va yozma javob bering.

1. O'zbekistonning iqlimi qanday?
2. Kunning uzunligi yozda necha soat-u, qishda necha soat?
3. Respublikada eng sovuq oy qaysi oy, bunda shimolda va janubda harorat qancha bo'ladi?
4. Qishda havo eng sovuganda simob ustuni necha darajaga yetadi?
5. O'zbekistonning qaysi qismida qish davri deyarli besh oyga cho'ziladi?
6. Yilning eng issiq oyi qaysi?

7. Bu davrda oʻrtacha harorat tekisliklar va togʻyonbagʻrida, janubda necha darajani tashkil qiladi?

Topshriq. Matnni oʻqing va rus tiliga tarjima qiling. Son turkumiga oid soʻzlarni koʻchirib yozing va turini ayting.

OʻZBEKISTON

Oʻzbekistonning iqlimi continental (quruq iqlim). Yoz davrida bulutli kunlar kam va shu sababli quyosh nur sochib turgan paytlar koʻp boʻladi. Kunning uzunligi yozda taxminan 15 soatni, qishda kamida 9 soatni tashkil qiladi.

Respublikamizda eng sovuq oy yanvar boʻlib, bunda shimolda harorat 8⁰ gacha, baʼzan undan ham pasayadi. Termiz shahri atrofida esa shu paytda havo issiq boʻlib, harorat oʻrtacha +2,8 darajani tashkil qiladi. Qishda havo eng soviganida harorat 35 - 40 darajagacha yetadi. Oʻzbekistonning eng shimoliy qismida qish davri besh oyga choʻziladi.

Yilning eng issiq oyi iyul. Togʻli hududlarda esa iyul-avgust. Togʻyonbagʻirlarida harorat +25 +30 daraja boʻladi. Janubda (Termiz va Sherabod) issiq +31 +32 darajaga yetadi. Yozda harorat +42 darajadan oshadi.

Oʻrta Osiyodagi, shuningdek, Oʻzbekistondagi eng ulkan daryolar Amudaryo bilan Sirdaryo. Amudaryoning umumiy uzunligi 1427, Sirdaryoniki 2137 km ni tashkil qiladi.

Bu ikki daryo va ularning irmoqlari Oʻzbekistondan tashqarida boshlanadi. Amudaryo, asosan, Panj va Vaxsh daryolarining, Sirdaryo - Norin daryosi va Qashqadaryoning qoʻshilishidan hosil boʻladi. Sirdaryo Amudaryodan uzun boʻlsa-da, ammo suvi kam.

Oʻrta Osiyodagi ikki ulkan daryo – Amudaryo va Sirdaryo havzalarini tashkil qiladi. Sirdaryo havzasiga Norin, Qashqadaryo, Chirchiq, Ohangaron, Soʻx, Isfara, Oq bora, Isfavramsoy, Shoximardon, Gʻoʻvasoy va Kosonsoy daryolari, Amudaryo havzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toʻpolondaryo, Sherobod daryolari kiradi. Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham irmoqlari asosan oʻzining oʻrta va quyi oqimlari doirasidagina respublika hududidan oʻtadi.

Respublika hududida koʻllar kam. Ulardan eng kattasi Orol koʻlidir. Bu koʻl ancha katta maydonni egallaganligi sababli dengiz deb ham ataladi.

33 - mashgʻulot **Suhbat**

- Kechirasiz, bu yaqin orada bekat bormi?
- Ha, bekatga borish uchun toʻgʻriga 150 metrcha yurasiz.
- U yerda yoʻnalish taksilar ham toʻxtaydimi?
- Ha, siz qayerga bormoqchisiz?
- Metro bekatiga.
- Unda 8- yoʻnalishli taksiga chiqing. Istasangiz Oybek, istasangiz Mustaqillik maydoni bekatigacha borasiz.

- Menga Yunusobod yo‘li kerak.
- Oybek metrosidan Mingo‘rik bekatiga o‘tasiz.
- Rahmat.

BELGILASH OLMOSHLARI (Определительные местоимения)

Определительные местоимения обозначают группы предметов и лиц, а также указывают на них в отдельности.

Они образуются сочетанием вопросительных местоимений со словом **har** : **har kim**-каждый, **har nima**-все, всякая вещь, **har qanday** - всякий, **har bir** - каждый, **har narsa** - всякая вещь.

К ним так же относятся слова **hamma**, **barcha**, **bari**-все, **ba’zi**, **ayrim** - отдельный, некоторое.

Местоимения **hamma**, **barcha**, **bari** имеют собирательное значение. **Talabalarining hammasi malakaviy ishlarni muvaffaqiyatli himoya qildi.** – Все студенты успешно защитили квалификационные работы. **Men bu kitoblarning barini o‘qib chiqdim.** –Я прочел все эти книги.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Har kim ekanini o‘radi (maqol). 2. Biz har yili yozda Chimyonda dam olamiz. 3. Men har bir ishni sinchiklab o‘rganib chiqdim. 4. Har bir biletda uchtdan savol bor. 5. Bayramda hammamiz ishtirok etdik. 6. Har qachon, har yerda o‘z burchingni yodda tut.

Topshiriq. Kerakli olmoshlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Men ... bugunoq jo‘nab ketyapman. 2. O‘quvchilarning ... sayohatga yo‘l olishdi. 3. Bugun sinfda ... navbatchi? 4. Siz ... taomni yaxshi ko‘rasiz? 5. Dadamning kutubxonalarida ... kitoblar bor.

So‘zlar: hammasi, shu, har qanaqa, qaysi, kim.

Topshiriq. Olmoshning har bir turi ishtirok etgan 7 ta gap tuzing.

34 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Sizning sevimli mashg‘ulotingiz qaysi?
- Men kitob o‘qishni yoqtiraman.
- Qanday kitoblarni o‘qiysiz?
- Men she‘riyatni, ayniqsa, Sharqning mumtoz she‘riyatini xush ko‘raman. Hofiz, Bedil, Sheroziy, Navoiy, Bobur g‘azallarini sira qo‘ldan qo‘ymayman.
- Firdavsiyning “Shohnoma”sini o‘qiganmisiz?
- Ha, o‘qiganman. Ajoyib asar. Yana Xorasmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”sini ham o‘qiganman.
- Zamonaviy shoirlardan kimlarni sevib o‘qiysiz?

- Marhum Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyunlarni sevib o'qiyman.

BO'LSHSIZLIK OLMOSHLARI (Отрицательные местоимения)

Отрицательные местоимения, являясь противоположными по значению определительным, означают отрицание по отношению ко всем предметам и признакам.

Они образуются от вопросительных местоимений, слов bir, narsa с помощью слова hech: hech kim - никто, hech nima - ничто, hech narsa - ничто, hech bir - ни один, hech qanday - никакой, hech qachon - никогда, hech qayer- ни одно место и т.д.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Никто не может так красиво петь. 2. Нигде больше я не ел таких сладких лепешек. 3. Никогда еще мне не доводилось так приятно провести время. 4. Ничто его так не интересовало раньше.

Topshiriq. Gaplarni ko'chiring olmoshlarning turini aniqlab, qaysi so'z turkumi o'rnida ishlatilganini ayting.

1. Hech qayerda hech qachon insonni inson urmasin (qo'shiqdan). 2. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir (Navoiy). 3. O'zbekiston o'zining tinchlikdan iborat yo'lini tanlab oldi. 4. Shu aziz vatan barchamizniki. (I. Karimov) 5. Shu-shu bo'ldi-yu, ular hech qachon uchrashmadilar.

Topshiriq. Ajratilgan so'zlar o'rniga olmoshlardan qo'llab gaplarni ko'chiring.

1. Yurtimizda so'lim joylar ko'p. 2. Salim yangi ishga juda qiziqish bilan kirishdi. 3. Tog'larda hatto yozda ham yomg'ir yog'adi. 4. Dushanba kuni men o'qishdan erta qaytdim. 5. O'tirganlar unga hayron qarardi.

Lug'at ishi

asl	настоящий
tarjimon	переводчик
san'atshunos	искусствовед
taxallus	псевдоним
ta'lim olmoq	получить образования
axborot	информация
maorif	просвещение

vazifa	задание, поручение
to'plam	сборник
bosilib chiqdi	был напечатан

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga zarur so'z va so'z birikmalarini qo'yib, gaplarni o'qing, ko'chirib yozing.

1. Asli ismi-sharifi Abdulhamid . . . Cho'lpon edi. 2. U o'zbek . . . , va ... olimi edi. 3. U ... madrasada, keyin esa ... maktabida ta'lim olgan. 4. Cho'lpon ... ro'znomalarda xizmat qilgan. 5. O'zbekiston ... studiyasida va O'zbekiston ... va ... bo'yicha vazifalarda ishladi. 1929- yilda ... romani bosilib chiqdi.

Topshiriq. Matnni o'qib, o'rganib, so'zlab berishga tayyorlaning.

CHO'LPON

Asl ismi - sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1983- yilda Andijonda tug'ilgan. O'zbek shoiri, tarjimoni va san'atshunos olimi. Cho'lpon - uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus - tuzem maktabida ta'lim olgan.

Cho'lpon bir qator ro'znomalarda xizmat qilgan. O'zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.

Cho'lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib edi. 1929- yilda uning «Kecha va kunduz» romani bosilib chiqdi.

1927- yildan Cho'lponga hujum boshlandi. O'zbekiston madaniyat xodimlari 2-qurultoyida uni zaldan haydab chiqarishdi.

1937- yili shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o'zbek xalqining munosib farzandi qadr - qimmat topdi.

Topshiriq. Matn mazmunini so'zlab bering. O'zbek raqs san'ati haqida nimalarni bilasiz? Shu mavzuga oid suhbat uyushtiring.

35 - mashg'ulot Suhbat

- O'zbek tilini yaxshi bilasizmi?
- Yo'q, men uni endi o'rganyapman. Siz-chi?
- Men o'zbek tilini ancha –muncha bilaman, sababi mahallada yashayman, o'zbek do'stlarim ko'p.
- Men ham o'zbekcha gaplashishga harakat qilyapman, lekin nimadir halal berayotganday.
- So'zlarni noto'g'ri aytib qo'yishdan, uyalib qolishdan qo'rqsangiz kerak. Unday qilish yaramaydi. Axir hech kim tilni birdaniga o'rganib ololmaydi.

- Ha, to‘g‘ri aytasiz.

GUMON OLMOSHLARI (Неопределенные местоимения)

Неопределенные местоимения означают неопределенное представление о предмете, признаке, случае. Они так же образуются от вопросительных местоимений, прибавлением аффикса -dir или префикса -alla: kimdir, allakim – кто-то, nimadir, allanima - что-то, qachondir - когда-то и т.д.

Местоимение allaqachon указывает не на неопределенность времени происхождения действия, а на её давность.

Men allaqachon she‘rni yod olib bo‘ldim. - Я давно уже выучил стихотворение.

Аффикс -dir прибавляется к местоимению после всяких других аффиксов: kimningdir - чей то, nimaningdir - что-то.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Когда-то здесь протекал большой арык. 2. Он очень хотел кого-то увидеть, с кем-то посоветоваться. 3. Вы хотели ему что-то передать, 4. Вас просит какой-то юноша. 5. В это время кто-то постучался в дверь.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek tilini qachondan beri o‘rganasiz? 2. O‘zbek tilidan birinchi o‘qituvchingiz kim bo‘lgan? 3. O‘zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi? 4. Navoiyning “Hamsa”si qaysi dostonlardan iborat? 5. “Yulduzli tunlar” romanining muallifi kim?

Topshiriq. O‘zingiz sevgan shoir yoki yozuvchi haqida 35-40 so‘zdan iborat hikoya tuzing.

Lug‘at ishi

hamsa	пятица, жанр классической литературы
yaxlit	целый, целостный
g‘oyaviy-badiiy	идеолого – художественный
dostonlar majmui	сбор поэм
qo‘ldan chiqdi	были написаны
sahifa	страница
kifoya qilmasdi	не было достаточным
mos tushmoq	совпадать
qaytariq	повтор
taqliqiy	подражательный
muyassar bo‘ldilar	удостоились

Topshiriq. Matnni o‘qing. Reja tuzib, shu reja asosida bayon yozishga tayyorlaning.

XAMSA

A. Hayitmetov va B. Hasanovdan

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy “Xamsa”lariga bir butun, yaxlit asar sifatida qaradi, o‘zbek tilida turli mavzularda mustaqil dostonlar emas, balki bir-birini g‘oyaviy - badiiy jihatdan ma’lum darajada to‘ldiradigan, yaxlit bir asar deb hisoblanishi va “Xamsa” deb atalishi shart bo‘lgan dostonlar majmuini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Bunga qadar Navoiy o‘z lirik she’rlari bilan tanilgan “Badoye’ul-bidoya” va “Navodirun-nihoya” devonlarining muallifi sifatida mashhur edi. Navoiy 42 yoshida “Xamsa”ning birinchi dostoni – “Hayratul abror”ni yozishga kirishdi va shu yiliyoq uni tugallab, “Farhod va Shirin” dostonini boshladi. 1484- yilning boshlarida “Farhod va Shirin”, shu yilning fevral - mart oylarida “Layli va Majnun”, bahor va yoz oylarida “Sab’ai sayyor”, 1485-yilning o‘rtalarida “Saddi Iskandariy” dostonlari qo‘ldan chiqdi.

Besh doston yozishni o‘rta asr ulug‘ shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1203) boshlab berdi. Natijada sharq adabiyotida yangi sahifa ochildi. Shoir

yaratgan asar “Xamsa” nomini olishi uchun dostonlarning soni beshtaga yetishining o‘zi kifoya qilmasdi, balki ularning nomlari, janri, mavzui, obrazlari va kompozitsiyalari ham Nizomiy dostonlariga mos tushishi, lekin bu asarning qaytarig‘i yoki taqlidiy nusxasi bo‘lmasligi talab etiladi.

Faqat Xusrav Dehlaviy (1253-1325), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Navoiygina Nizomiy Ganjaviy qatoridan o‘rin olishga muvassar bo‘ldilar.

Rasm

8- MART – XALQARO XOTIN – QIZLAR KUNI

36 - mashg‘ulot Suhbat

- Siz bo‘sh vaqtingizni qanday o‘tkazasiz?
- Men bo‘sh vaqtimda sayr qilishni, kitob o‘qishni va televizor ko‘rishni yoqtiraman. Afsuski, bo‘sh vaqtim kam.
- Siz qaerlarda bo‘lishni yoqtirasiz?
- Men ko‘pincha sayilgohda bo‘laman. U yer doim gavjum. Siz- chi? Bo‘sh vaqtlaringizda nimalar qilasiz?
- Men, odatda, uyda bo‘laman. Turli taomlar pishirishni yaxshi ko‘raman.
- Qaysi taomlarni yoqtirasiz?
- Men palov qilishni yoqtiraman.

FE’L (Глагол)

Слова, обозначающие действие или состояние, называются глаголом.

Начальной формой глагола в узбекском языке является **harakat nomi** - имя действия с аффиксом -moq . Все глаголы в словарях даются в этой форме. Глагол в узбекском языке не имеет категорию вида и все глаголы отвечают на вопрос nima qilmoq? (что делать? что сделать?).

Глаголы бывают **o‘timli** (переходными) и **o‘timsiz** (непереходными). Переходные глаголы означают действие непосредственно переходящие на другой предмет и сочетаются со словами в форме tushum kelishigi (винительный падеж).

Непереходные глаголы означают действие, совершаемое объективно, состояние. Сравните:

Переходные
o‘qimoq (kitobni)
tikmoq (kostumni)
bilmoq (qoidani)

Непереходные
uchmoq
turmoq
yotmoq

sevmoq (Vatanini)

o'tirmoq

Topshiriq. Lugʻatdan foydalanib fe'llarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

So'ramoq, kelmoq, olib kelmoq, kutmoq, topmoq.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Выполнить задание. 2. Выучить правило. 3. Запомнить новые слова. 4. Перевести статью. 5. Знать употребление слов. 5. Ответить на вопросы.

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos fe'llarni qo'yib ko'chiring.

1. O'qimoq - 2. Bilim ... - har bir insonning burchi. 3. Vatanni ... - iymondandir. 4. Malakali mutaxassis bo'lib ... - orzumiz. 5. Vatanga ... har bir fuqaroning burchi.

Fe'llar: munosib bo'lish, olish, yuksalmoq, sevmoq, yetishish.

Lugʻat ishi

a'zam	великий
ardoqlamoq	уважать, чтать
ayol ahli	женщины
a'mol	дела
ag'yor	враг, недруг
anduh	горе
ayyom	праздник
ashk	слеза

Topshiriq. 8-mart munosabati bilan tabrik matni yozing.

Topshiriq. She'rni yod oling.

AYOL

Malik Egamov

Ardoqlangiz abad a'zam ayol ahlin,
A'molini avaylangiz ag'yorlardan,
Anduhlardan asrang aqli-armonini,
Alyor ayting, alyor ayting ayyomlarda.
Axir avval alla aytgan ayol ahli,
Alla aytib, o'rtgan ayol ahli,
Avaylabon anduhlardan avlodini,
Aslimizni azizlagan ayol ahli.

Topshiriq. She'rdagi barcha otlarni bosh shaklida ko'chirib yozing. Masalan, ayol, anduh... .

37 - mashg'ulot Suhbat

- Sen Toshkentni yaxshi bilasanmi?
- Ha, meningcha bilaman.
- Toshkentda nechta tuman bor?
- Toshkent o'n bir tumanga bo'lingan. Bular: Sirg'ali, Sobir Rahimov, Akmal Ikromov, Yunusobod, Yakkasaroy, Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Hamza, Shayxontohur, Chilonzor va Mirobod tumanlaridir.
- Toshkentda qanday yirik korxonalar bor?
- Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, Traktor zavodi, Sovplastital qo'shma korxonasi, Mediz zavodi, Mikond zavodi va boshqalar.
- Qanday muzeylar bor?
- Muzeylar anchagina. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi, Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, qator uy-muzeyilar bor.

FE'L YASALISHI (Образование глаголов)

Глаголы образуются с помощью специальных аффиксов, а так же сложением двух или более основ.

Наиболее употребительны аффиксы:

-la: ishla, o'yla, oqla, moyla va boshqalar:

-a: sana, ata, yasha, bo'sha;

-(a)y: qoray, sog'ay, toray.;

-(a)r: ko'kar, qisqar, eskir;

-i: chang'I, tinchi, boyi;

-illa: g'izilla, chirilla;

-lan: otlan, lazzatlan;

-lash: maslahatlash, suhbatlash;

-sira: suvsira, uyqusira.

Этим способом глаголы образуются лишь из других частей речи.

Topshiriq. Fe'llarning yasalarini tushuntiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Xushlamoq, tuzlamoq, zaharlanmoq, do'stlashmoq, sarg'aymoq, ko'rishmoq, ikkilanmoq, birlashmoq.

Topshiriq. Berilgan so'zlardan fe'llar yasang, ular ishtirokida birikmalar tuzing.

Odat, yod, shod, yig‘I, tinch, oq, shir, toza.

Lug‘at ishi

ko‘k	1. небо; 2. голубой; 3. зеленый и зелень
uyalib	стесняясь
qizil yonoq	красные щеки
yoruqlik	свет
bekinib	прячась
o‘ngimda	на яву
tushda	во сне
yo‘qsil	бедняк
suymoq	любить
suyukli	любимый (ая)
qorong‘u -	темный (ая)

Topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

1.Osmon tiniq shohi. Oq bulut kezar gohi. 2. ... adibimiz Odil Yoqubov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. 3. Hozir ...da qayoqqa ham borardik.
So‘zlar: ko‘k, qorong‘u, suyukli.

Topshiriq. She’rni yod oling.

GO‘ZAL

Cho‘lpon

Qorong‘u kechada ko‘okka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘rayman,
U yulduz uyalib, boshini egib,
Aytadir: “Men uni tushda ko‘ramen,
Tushimda ko‘rganda, shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal”.

Ko‘zimni olaman oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so‘rmoqqa,
Ul-da aytadirkim: “Qizil yanoqqa,
Tushimda uchradim ko‘milgan oqqa,
Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal,
Mendan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal”.

U ketgach kun chiqar yorug‘lik sochib,

Undan-da so‘rayman sening to‘g‘ringda,
Ul ham uyatidan bekinib qochib,
Aytadir: “Bir ko‘rdim, tushdamas o‘ngda,
O‘ngimda ko‘rganda shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, mendan-da go‘zal”.

Men yoqsil na bo‘lib uni suyubman!
Uning chun yonibman, yonib kuyubman.
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yubman.
Men suyub... men suyub... kimni suyubman!
Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal.

Topshiriq. She‘r mazmunini rus tilida aytib bering.

38 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Siz matematika fani rivojiga hissa qo‘shgan markaziy osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?
- Men Beruniy, Xorazmiy, Jamshid al Koshiylarni bilaman.
- Kechirasiz Xorazmiy shoir emasmi?
- To‘g‘ri aytdingiz, Xorazmiy taxallusi bilan she‘r bitgan shoir ham yashab o‘tgan. Jami bo‘lib fanga 8 ta Xorazmiy ma‘lum. Muhammad ibn Muso Xorazmiy esa buyuk matematik bo‘lgan.
- U qaysi asrda yashagan?
- Al Xorazmiy VIII-IX asrlarda yashagan.

QO‘SHMA FE‘L

(Сложные глаголы)

Сложные глаголы в узбекском языке бывают двух типов:

1) имя+глагол: qaror qilmoq (решить, постановить), tavsiya qilmoq (рекомендовать), taklif qilmoq (пригласить, предложить), ozod qilmoq (освободить), hayron bo‘lmoq (удивляться) и т.д. Чаше в этих случаях употребляются глаголы qilmoq, etmoq (делать), bo‘lmoq (быть), qolmoq (остаться). При переводе они как бы пропускаются: jim bo‘lmoq (успокоиться), xafa bo‘lmoq (обидеться), xursand bo‘lmoq (радоваться) и т.д.

2) глагол+глагол. В этом случае первый глагол употребляется в деепричастной форме: olib kelmoq (принести); olib chiqmoq (вынести), sotib olmoq (купить), таких глаголов в узбекском языке не так много. И их не следует путать с вспомогательными глаголами.

Помните: все сложные глаголы в узбекском языке пишутся раздельно.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Fe’llarning yasalishini tushuntiring.

1. Turg'un uni begonaday qarshi oldi. 2. Men guruh sardori etib Aziz Axrorovni saylashni taklif qilaman. 3. Kechirasiz, sizni xafa qilmoqchi emas edim. 4. Do'kondan anchagina narsa xarid qildik. 5. U singlisiga chiroyli ro'molcha olib berdi. 6. Salimga tug'ilgan kunida qo'l soati sovg'a qildik.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qilib yozing. Qo'shma fe'llardan foydalaning.

1. Хаким изложил свою точку зрения. 2. Ты можешь перевести это на узбекский язык? 3. На нашем факультете организована работа кружка молодых поэтов и писателей. 4. На дом было задано выучить стихотворение Айбека «Наъматак». 5. Рекомендовано к печати научным Советом ТГПУ имени Низами.

Lug'at ishi

faylasuf	философ
taqsimlamoq	распределять
shikoyat qilmoq	жаловаться
mahmadona	бахвал
bekor aytibsan	здесь: чужь
to'g'ri kelmoq	совпадать
bir zumda	быстро, в сию минуту
yakkam-dukkam	редкий
haligacha	до сихпор
safsataboz	болтливый
taftishchi	ревизор

Topshiriq. Latifalarni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi Monten shunday degan ekan:

- Menimcha, dunyoda eng to'g'ri taqsimlangan narsa aql bo'lsa kerak.
 - Nega bunday deb o'ylaysiz?
 - Chunki, haligacha biror kimsaning aqli kamligidan shikoyat qilganini eshitgan emasman.

Mahmadona va safataboz bir shoir Abdurahmon Jomiy huzurida maqtanibdi:

- Kecha tushimda Xizir buva og'zinga muborak tupugini tufladi.
 Jomiy unga javob beribdi:
 - Bekor aytibsan Xizir buva yuzingga tuflagan. Og'zingni ochib turganing uchun tupugi og'zingga ham tushgan bo'lsa kerak.

- Balans qalay? Tiyn tiyniga to'g'ri kelyaptimi? – deb so'rabdi taftishchi hisobchidan.

- Tiyin tiyinga-ku to'g'ri kelyapti-ya, lekin ming mingiga to'g'ri kelmayapti sira.

- Usta, shoshyapman, tezyurar avtobusdek tezkorlik bilan soqolimni olib qo'ysangiz.

- Xo'p bo'ladi.

Sartarosh bir zumda soqolni olib bo'ldi.

- Iye, yakkam-dukkam bo'lib soqol qolib ketibdi-ku!

- Tezyurar avtobus kichik bekatlarda to'xtamay o'tadi-da.

- Bu qanaqasi, ofitsiant! Pivoda pashsha suzib yuribdi?

- Shunga ham shuncha to'polonmi? Bitta pashsha qancha pivo ichardi?

Topshiriq. Latifalarda qo'llangan barcha yasama fe'llarni ko'chirib yozing. Yasalishini tushuntirib bering.

39 - mashg'ulot Suhbat

- Kechirasiz, mana bu stol bo'shmi?

- Ha, bo'sh. Marhamat o'tiringlar. Mana taomnoma.

- Bifshtekingizning garniri nima?

- Qovurilgan karam, kartoshka pyuresi, ko'kat

- Unday bo'lsa, bizga bitta palov, bitta bifshteks bera qoling.

- Yana biror nima kerakmi?

- Ha, choy, bitta non, yana achchiq-chuchuk ham bersangiz.

- Ho'p bo'ladi. Hozir

КО'МАКЧИ FE'L (Вспомогательные глаголы)

В узбекском языке для указания разной характеристики действий, а так же передачи различных модальных значений употребляются вспомогательные глаголы.

В современном узбекском языке в качестве вспомогательных могут употребляться глаголы: ol, ber, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, boshla, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, ko'r, yoz и др.

При этом они полностью или частично теряют свое лексическое значение. Глагол, с которым связывается вспомогательный, называют основным, и он всегда – употребляется в деепричастной форме с аффиксами -(i)b; -a(y).

Например: yoza olmoq - мочь писать, o'qib chiqmoq - закончить читать, aytib ko'rmoq - попробовать сказать и т.д.

Эту форму нельзя путать со сложными глаголами типа *olib bermoq* (купить кому-то), *olib ketmoq* (уносить) и т.д.

Сложный глагол обозначает одно единое действие.

Форма со вспомогательным глаголом выражает различные модальные значения. Например, глагол *olmoq* (брать). В сочетании с формой на *-(i)b* указывает, что действие совершается в интересах субъекта: *yozib olmoq* (записать для себя); *bilib olmoq* (узнать); в сочетании же с формой на *-a(-y)*, указывает на возможность совершения действия (и переводится глаголом мочь): *yoza olmoq*, *o'qiy olmoq*. Глагол *bermoq* указывает на то, что действие совершается для другого субъекта: *yozib bermoq* (написать для кого-то), *o'qib bermoq* (прочитать кому-то) или на продолжительность действия выраженного основным глаголом: *yozavermoq* (продолжать писать), *o'qiyvermoq* (продолжать читать). В этом случае глагол произносится и пишется как *ver*.

Topshiriq. So'z qo'shilmalarini ruz tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'qib bo'lmoq, sinib qolmoq, kutib yotmoq, tanib qolmoq, berib turmoq.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я прочитаю тебе сказку. 2. Он все еще ждет своего преподавателя. 3. Я закончил читать роман Кадыры «Минувшие дни». 4. В коридоре я увидел своего старого знакомого. 5. Хозяева встретили нас очень тепло.

Lug'at ishi

arbob	датель	
yaratgan	создавший	
bastakor	композитор	
atoqli	именитый	
xalq ashulalari asosida	на основе (по мотивам)	народных песен
yozib olishga kirishgan	взялся записывать	
nashr eta boshlagan	начал публиковать	
o'qib yurganida	когда учился	
mumtoz	классический	

Topshiriq. Matnni o'qing. Uning yuzasidan savol-javob qiling. Matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning

YUNUS RAJABIY

Yunus Rajabiy O'zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobidir. 1940-41-yillarda Moskvada bastakorlar kurslarida o'qib yurganida u Yevropa mumtoz musiqasi, klassik bastakorlar ijodi bilan tanishdi.

Yunus Rajabiy atoqli madaniyat arboblari domla Halim Ibodov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Shorahim Shoumarov, Mulla To'yshi Toshmuhammedovlardan maqomlar o'rgandi.

Yunus Rajabiy "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Xolisxon" kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar yaratdi.

"Bayot", "Girya", "Dugoh Husayniy", "Ko'cha bog'i" kabi ashulalarni xalqimiz Yunus Rajabiy tufayli sevib qolgan.

Bastakor 1930- yillardayoq xalq musiqasi namunalarini notaga yozib olishga kirishgan, keyinroq ularni nashr eta boshlagan. "O'zbek xalq muzikasi" kitobining I-V-jildlari Yunus Rajabiy yozib olgan musiqa namunalaridan iborat. Unda Toshkent – Farg'ona maqom yo'li, Buxoro "Shosh maqomi" alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston xalq artisti, respublika Fanlar Akademiyasining akademigi Yunus Rajabiy yaratgan taronalarni xalqimiz hanuz sevib tinglaydi.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbek bastakorlaridan kimlarni bilasiz? 2. Ularning qaysi asarlarini bilasiz? 3. Zamonaviy ijrochilardan kimlarni sevib tinglaysiz? 4. O'zbek mumtoz ashulalarini eshitasizmi? 5. Ularning nomlarini bilasizmi?

40- mashg'ulot **Suhbat**

- Siz Navoiy g'azallarini o'qiganmisiz?
- Ha, Navoiy ijodi bilan maktabda tanishganman. Ko'p g'azallarini o'qigan emasman. Ammo "Topmadim", "O'xshamas" kabi g'azallarini bilaman.
- Navoiy yana qaysi janrlarda ijod qilgan?
- Navoiy tuyuq, fard, mustazod kabi janrlarda qalam tebratgan. Yana u dostonlar ham yaratgan. Beshta dostonidan iborat "Xamsa" yaratgan.
- "Xamsa"da qaysi dostonlar kirgan?
- "Hayratul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari Navoiy "Xamsa" sini tashkil etgan.
- Navoiy asarlari qaysi tillarga tarjima qilingan?
- Navoiy asarlari rus, fransuz, nemis, arab tillariga tarjima qilingan.

FE'LNING VAZIFA UCHUN XOSLANGAN SHAKLLARI

(Функциональные формы глагола)

В узбекском языке глагол имеет три функциональные формы: *sifatdosh* (причастие), *ravishdosh* (деепричастие), *harakat nomi* (имя действия).

SIFATDOSH

(Причастие)

Причастие – форма глагола, обозначающая признак предмета или лица, сочетающаяся в себе свойства глагола и прилагательного.

Причастие в узбекском языке имеет следующие формы: **o'tgan zamon sifatdoshi** (причастие прошедшего времени) – образуется с помощью аффикса -gan: o'qigan (читавший, прочитавший), yozgan (написавший) и т.д.

Hozirgi zamon sifatdoshi (причастие настоящего времени) образуется от деепричастий на аффикс -a(-y) с аффиксом -yotgan: kelayotgan (идуший), ishlayotgan (работающий) и т.д.

Hozirgi - kelasi zamon sifatdoshi (причастие настоящего - будущего времени) образуется с аффиксом -digan: ishlaydigan (работающий или тот, который будет работать), yozadigan (пишущий или тот, который будет писать).

Причастие имеет отрицательную форму, которая образуется с аффиксом -ma, этот аффикс прибавляется сразу после корня или основы: yozmagan (не написавший), yozmayotgan (не пишущий), yozmaydigan (не пишущий или тот, который не будет писать).

Kelasi zamon sifatdoshi (причастие будущего времени) образуются с аффиксами -(a)r и -mas (отрицательная форма): o'qir, yozar, o'qimas, yozmas. Эта форма самостоятельно практически не употребляется, но является основой для образования форм времени.

Причастия, как и прилагательное, может употребляться вместо имен существительных: Ko'p o'qigan ko'p biladi (Читавший много знает много). Yurgan daryo, o'tirgan bo'uga (пословица. Буквально: тот, который ходит река, тот, кто сидит коврик).

Topshiriq. Bilmoq fe'lidan sifatdoshning barcha zamon bo'iishli va bo'lishsiz shakllarini yasang.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oqar suv doim toza va sovuq bo'ladi. 2. Ekinni erta ekkan, hosilni erta o'rar (maqol). 3. Imtihon topshiradigan talabalar ro'yxati e'lon qilindi. 4. Tuni bilan yoqqan yomg'ir tongga yaqin qorga aylandi.

Topshiriq. Nuqtalar o'rniga sifatdosh yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Собравшихся приветствовал ректор университета профессор Б.Кадыров. 2. Студенты, работающие над квалификационной работой должны много читать, уметь анализировать. 3. У нас в университете много преподавателей хорошо знающих иностранные языки. 4. Кто трудится честно, всегда в почете.

Topshiriq. Yangi soʻzlar ishtirokida soʻz birikmalari tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Masalan: soyasidan qoʻrqqan – боящийся своей тени.

Topshiriq. Maqollarni yod oling. Rus tilidagi muqobillari boʻlsa ayting.

1. Chumchuqdan qoʻrqqan tariq ekmas.
2. Qoʻrqqanga qoʻsh koʻrinar.
3. Chiniqqanga dard yuqmas.
4. Boʻlinganni boʻri yer.
5. Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar.
6. Koʻkka boqqan qoqilar.
7. Shoshgan qiz erga yolchimas.
8. Egilgan boshni qilich kesmas.
9. Eshitgan koʻrganni yengibdi.
10. Qon bilan kirgan, jon bilan chiqadi.
11. Qush uyasida koʻrganini qiladi.

Topshiriq. Mazkur maqollar qanday vaziyatlarda ishlatilishini tushuntirib bering.

RAVISHDOSH

(Деспричастие)

Деепричастие – форма глагола, указывающая на признак действия или состояния.

В узбекском языке употребляются несколько форм деепричастий, которые образуются с помощью следующих аффиксов:

- **(i) b:** soʻrab (спросив, попросив), eslab (вспомнив), yigʻilib (собравшись) и т.д. Это форма выполняет различные функции.

- **i(-a):** oʻylay (думая), yura(идя). Чаще эти деепричастия употребляются повторно.

1. Обозначает признак (способ совершения) действия: Oʻqituvchimiz doim kulib gapiradi. (Наш учитель всегда говорит с улыбкой (улыбаясь)).

2. Связывает основной и вспомогательный глаголы: soʻrab koʻr (попробуй - спроси), ishlab tur (поработай пока) и др.

3. Связывает части сложного предложения, являясь сказуемым придаточного: Tuproqda tuz koʻpayib, daraxtlar quriy boshladi (Изда того, что в земле много соли, деревья начали сохнуть).

4. Является основой для образования пересказительного прошедшего времени.

Отрицательная форма этих деепричастий образуются с помощью аффиксов -may, -masdan: o‘ylab (подумав), o‘ylamay, o‘ylamasdan (не подумав).

-gach: kelgach (придя), yozgach (написав), bilgach (узнав) и т.д. Это форма:

1. Означает время: Uyga kelgach, biroz dam oldim (Придя домой, немного отдохнул)

2. Означает причину: Vaqt kech bo‘lgach, hammamiz tarqaldik. (Так как было поздно, мы все разошлись).

-guncha: kelguncha (до того, как пришел), bilguncha (до того, как узнал), chiqquncha (до того, как вышел) и т.д. Деепричастия в этой форме:

1. Означают время совершения действия обозначенного глаголом, с которым они связаны: Manzilga to etib borguncha, qo‘shiq menga abadiy hamroh (Пока я дойду до цели, песня мой вечный спутник (из песни)).

2. Является сказуемым придаточного в составе сложноподчиненного предложения и означает сравнение. В этом случае действие, выраженное глаголом в главном предложении предпочтительнее чем выраженное причастной формой: Tiz cho‘kib yashaguncha, tik turib o‘lgan yaxshi. (Буквально: лучше стоя умереть, чем жить преклоняясь).

-gani. С его помощью образуются деепричастия, означающие намерение: ko‘rgani (чтобы новестить, увидеть), bilgani (чтобы знать), o‘qigani (чтобы учиться) и т.д.

Этот тип деепричастий не имеет отрицательной формы.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Окончив университет, я буду преподавать историю. 2. Вали, не слушая моих слов, продолжал свою работу. 3. Мы расстались, пожелав друг-другу счастливого пути. 4. Прочитав ваше письмо, я очень обрадовался. 5. Позавтракав, я начал собираться в дорогу. 6. Я сегодня еду навестить своего большого друга. 7. Я вернусь до того, как придет мама.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Bo‘taboy gapga tushuna olmay, Nizomiddinovga qaradi. (S.Ahm.) 2. O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. (maqol) 3. Mehmon kula-kula bo‘lgan voqeani gapirib berdi. 4. Kitobni olib, Avazbek kutubxonadan chiqdi. 5. U orqasiga qaramay, yugurganicha ketib qoldi.

HAARAKAT NOMI

(Имя действия)

Имя действия – форма глагола, называющая действие или состояние, не указывая на время, лицо, число и другие, является термином действия. По этому имя действия может иметь грамматические категории имен существительных.

Оно образуется с аффиксами:

-(i)sh: yugurish (бегать, бег), chekish (курить, курение), suzish (плавать, плавание);

-(u)v: o‘quv (учение), so‘rov (анкетирование), yozuv (письмо) и т.д. Это форма чаще переводится именем существительным, так как в узбекском языке имеет больше значение существительного. Некоторые из этих форм перешли в имена существительные: saylov (выборы), o‘quv (учение) и т.д. Не все глаголы могут иметь такую форму.

-moq: o‘qimoq (учиться), bilmoq (знать). Как мы говорили раньше, это форма считается в узбекском языке начальной формой глагола.

Все три формы имени действия не могут принимать отрицательного аффикса –ma. Так как они по смыслу особо не различаются имеют одинаковую отрицательную форму, образующуюся с аффиксом –maslik: o‘qimaslik (не ученье), bilmaslik (незнание, не знать) и т.д.

Помните: при прибавлении к глаголам, заканчивающимся на звуки а или i аффиксов, начинающихся на v или q происходит чередование звуков: а-о, i-у: so‘ra-so‘rov, o‘qi-o‘quv, to‘qi-to‘quv, sayla-saylov, sayra-sayroqi, yangra-yangroq.

Все отглагольные имена в русском языке переводятся на узбекский формой имени действия: чтение - o‘qish.

Topshiriq. Quydagi fe’llardan har uchala qo‘shimcha yordamida harakat nomi yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Otlan, gaplash, tayyorla, ayt, kul, ber.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Нам нужно просмотреть эту статью. 2. Сегодня вы можете отдохнуть. 3. Я могу сейчас зайти к декану? 4. Я должен написать заметку в стенгазету. 5. Я люблю слушать музыку, петь, читать стихи. 6. Чтобы много знать надо много читать.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Айтish oson, bajarish qiyin (maqol). 2. Men o‘qishga kirish uchun ikki yil urindim. 3. Kecha fakultetimizda shoirlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. 4. Barvaqt yo‘lga chiqishimiz zarur. 5. Xonada chekish mumkin emas. 6. Vatan saodati uchun yashash - oliy baxt. 7. Buni bilmaslik mumkin emas.

Topshiriq. Quydagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Uyg‘onish fasli, aytishim kerak, qizg‘in bellashuv, qiziqarli uchrashuv, darsga kechikmaslik.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Uning mazmunini so‘zlab bering.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi davridan (1989- yil 21- oktabr) O‘zbekistonda lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosini qayta tiklash masalasi o‘rtaga qo‘yildi, bu yuzasidan matbuotda bir yarim yilga yaqin erkin munozara bo‘ldi.

Ko‘pchilik lotin alifbosini qayta tiklashni ma’qul ko‘rdi. Bu masala O‘zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida ham ko‘rildi.

1993-yil boshida turkiy xalqlar uchun mushtarak alifbo tuzish yuzasidan ham ish olib borildi.

O'zbek tili uchun tuzilgan alifbo O'zbekistonda 1940-yildan beri qo'llanib kelayotgan kirill harflari asosidagi o'zbek alifbosining lotincha harflar bilan almashtirilgan ko'rinishi bo'lib qolgan.

O'zbekiston Oliy Kengashining XII- chaqiriq 12-sessiyasida deputat P. Qodirovning yangi o'zbek alifbosini hozirlash yuzasidan olib borilayotgan ishning borishi haqida axboroti tinglandi.

«Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida» 1993-yil 2-sentabrda Qonun qabul qilindi.

1995-yil 6 mayda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'zgartishlar kiritish haqida» Qonuni qabul qilindi.

1995-yil 24-avgustda Vazirlar Mahkamasining «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qarori e'lon qilindi.

Lotin yozuvi asosidagi alifboning qayta tiklanishi o'zbek tilidagi tovushlarni aniqroq va to'laroq aks ettirish imkonini beradi.

Topshiriq. Matndagi harakat nomlarini ko'chirib yozing, ular ishtirokida birikmalar tuzing.

43 - mashg'ulot Suhbat

- Ahrorbek, hozir soat necha bo'ldi?
- Hozir to'rt dan o'n besh daqiqa o'tdi.
- Avtobus yaqin orada o'tmadimi?
- Nechanchi avtobus?
- 38-yoki 57-avtobus, Oloy bozoriga ketyapman.
- Hozirgina 57-avtobus ketdi. Ana 67-avtobus keldi. Shunga chiqaqol.
- Yo'q u shahar hokimiyati yonidan o'tib, aylanib boradi. 38-avtobusni kuta turaman.
- Kechirasan, mening avtobusim keldi. Men ketdim. Ko'rishguncha.

FE'L ZAMONLARI (Времена глагола)

Категория времени выражает отношение действия к моменту речи.

В узбекском языке три формы времени: o'tgan zamon (прошедшее время), hozirgi zamon (настоящее время) и kelasi zamon (будущее время).

Каждое из этих времен имеет по несколько форм.

O'TGAN ZAMON

Глаголы в прошедшем времени обозначают действия, совершенные до момента речи. Прошедшее время в узбекском языке имеет следующие формы: yaqin o'tgan zamon (недавно прошедшее время), uzoq o'tgan zamon (давно прошедшее время), o'tgan zamon hikoya fe'li (форма пересказительного прошедшего времени), o'tgan zamon maqsad fe'li (глагол намерения прошедшего времени), o'tgan zamon davom fe'li (продолжительное прошедшее время).

YAQIN O'TGAN ZAMON

В некоторых учебниках эту форму называют aniq o'tgan zamon (очевидное прошедшее время), оно выражает действия, очевидцем или участником которого был говорящий, и совершенное не задолго до момента речи.

Это форма образуется прибавлением к основе глагола аффикса -di и личных аффиксов спряжения:

Birlik:

Ko'plik

1- sh.	tushun+di+m	tushun+di+k
2- sh.	tushun+di+ng	tushun+di+ngiz
3- sh.	tushun+di	tushun+di)

Отрицательная форма таких глаголов образуется с помощью отрицательного аффикса -ma, который прибавляется перед временным аффиксом: tushunmadim, tushunmadingiz и т.д.

Аффикс -lar в третьем лице множественного числа употребляется лишь по отношению к людям, да и то не всегда.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. В этом году в наш университет поступило около 10 000 заявлений. 2. Сегодня мы были в музее истории Темуридов. 3. Ты выучил стихотворение

Айбека «Наъматак». 4. К нам в университет приехали знаменитые артисты. 5. В этом году мой младший брат пошел в школу.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bu yil Axborot texnologiyalari universitetiga o'qishga kirdim. 2. Dadam kecha bir qancha kitoblar olib keldilar. 3. Hozir Toshkentda ko'plab yangi binolar qurildi. 4. Katta opam tibbiyot institutini tamomladi. 5. Bog'larda turli mevalar g'arq pishdi.

Topshiriq. Fe'llarni tegishli shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. Men Navoiy nomli 1-maktabni (bitirmoq). 2. Sayohatga (otlanmoq) do'stlarimizni vokzalga (kuzatib bormoq). 3. U shunday (berilmoq) (kuylamoq)-ki, hamma beixtiyor (jim bo'lib qolmoq). 4. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko'rkamlashmoq).

Lug'at ishi

tasviriy ifoda	парафраза
alohida ahamiyat kasb etadi	имеет особое значение
xizmat ko'rsatgan	заслуженный
tashabbus	инициатива
nazariyotchi	теоретик
tadqiqotchi	исследователь
dolzarb	актуально (ый)
tahlil	анализ

Topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

PROFESSOR

Ravshanxo'ja Rasulov – taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a'lochisi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligi nishoni sohibi, Respublika Oliy attestatsiya komissiyasi eksperti, Nizomiy nomidagi TDPU xizmat ko'rsatgan professori, shu universitet Umumiy tilshunoslik kafedrasini mudiri.

R. Rasulov o'zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va sintaksis bo'limlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan nazariyotchi olimdir.

Taniqli olim bugungacha 3 ta monografiya, 1 ta darslik, 4 ta qo'llanma, 1 ta lug'at, 2 ta maxsus kurs, 5 ta dastur va 70 ga yaqin ilmiy, ilmiy – metodik maqolalar chop ettirgan sarmahsul tadqiqotchidir.

Olimning monografiyalari o'zbek nazariy tilshunosligining dolzarb muammolariga qaratilgan bolib, ularda til va nutq dialektik munosabati asosida so'zlarning birikuvchanligi (valentligi), so'z ma'nolarini komponent tahlil usulida o'rganish, so'zlar (fe'llarning) ma'no tuzilishi, ma'no tarkibi, izohi kabi so'z muammosi bilan bevosita bog'liq bir qator masalalar yoritiladi. Ayniqsa, uning

shogirdi bilan o‘zbek tilshunosligida ilk bor yaratgan o‘zbek tilining noyob boyligi – tasviriy ifodalari (parafrazalar)ga bag‘ishlangan lug‘ati alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo‘lingizdagi «O‘zbek tili» darsligi shu olimning tashabbusi bilan uning rahbarligida yaratildi.

Izlanuvchan olim Ravshanxo‘ja Rasulov o‘nlab shogirdlar ham yetishtirdiki, bugungi kunda ular oily va o‘rta ta’lim muassasalarida yoshlarga ta’lim – tarbiya bermoqdalar, ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritmoqdalar. Ular milliy istiqlool g‘oyasini amalga oshirishda, ma’naviyatimizni targ‘ib qilishda fidokorlik ko‘rsatmoqdalar.

44 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Kechirasiz, siz shu yerlikmisiz?
- Ha. Shu yerlikman.
- Men Sobirjon akaning uylarini izlayotgan edim...
- Mahallamizda ikkita Sobir isimli kishi yashaydi. Birlari o‘qituvchi, birlari esa shifokor.
- Men o‘qituvchi Sobir akani izlayapman ...
- Unday bo‘lsa to‘g‘riga yuz qadamcha yurasiz, chap qo‘lga ko‘cha ketgan. O‘ng tomondan ikkinchi eshik Sobir akaniki. Katta ko‘k eshik.
- Rahmat sizga.
- Salomat bo‘ling.

UZOQ O‘TGAN ZAMON (Давно прошедшее время)

Давно прошедшее время образуется спряжением неполного глагола емоқ после причастной формы прошедшего времени. Неполным этот глагол называется так потому, что, самостоятельно не может употребляться. Он имеет формы emas, edi, emish, esa. Форма emas образует отрицательную форму: katta-katta emas. Форма esa перешла в союзы. Другие формы обозначают различные значения. На русский язык форма edi переводится словом был: Karimning dadasi zo‘r bog‘bon edi. (Отец Карима был отличным садовником). В случаях когда сочетается с глаголом он пропускается.

	Birlik	Ko‘plik
1- shaxs	bilgan edim	bilgan edik
2- shaxs	bilgan eding	bilgan edingiz
3- shaxs	bilgan edi	bilgan edi(lar)

Отрицательная форма этих глаголов образуется тремя способами:

- спряжением глагола edi после отрицательной формы причастия: bilmagan edim, bilmagan eding.

- после положительной формы употребляют неполный глагол emas: bilgan emas edim, bilgan emas eding.

- к причастию прибавляют аффиксы принадлежности, затем сочетание yo‘q edi: bilganim yo‘q edi, bilganing yoq edi и т.д.

Глагол в этой форме обозначает действие совершенное задолго до момента речи и чаще переводится не совершенным видом.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Shanba kuni muzeyga borgan edik. 2. Halil shu yili institutga kirgan edi. 3. Sen tug‘ilgan yiling qish qattiq kelgan edi. 4. Sizning shu yerda ekaningizni bilmagan edim. 5. Men bu kitobni o‘qigan emas edim.

Topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. В том году я был в командировке в городе Бухаре. 2. Мы все были рады твоему поступлению в институт. 3. Я никогда не бывал в этих местах. 4. Азиз не раз писал ей письма. 5. Когда я пришел, он читал книгу.

Topshiriq. Fe’llarni tegishli shaklda qo‘llab gaplarni ko‘chiring.

1. Abror bolaligida juda to‘polonchi (bo‘lmoq). 2. Toshkent shahridagi ko‘plab uylar zilziladan keyin (qurilmoq). 3. Tog‘amni ko‘rgani kasalxonaga (bormoq). 4. Sizni bir (ko‘rmoq) (demoq).

Topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini aytib bering.

MAVLONO LUTFIY

C. Ahmadxo‘jayevdan

Lutfiyning asl ismi noma‘lum. Shoirning tug‘ilgan va vafot etgan yili aniq emas. U taxminan 1366- yilda Hirot shahri yaqinidagi Dehikanor degan joyda oddiy bir oilada tug‘ildi.

O‘z davrining g‘azal ustasi Lutfiy barakali ijod etib, ajoyib dostonlar ham yaratgan. Bular orasida shoir adabiy merosining salmoqli qismini tashkil etuvchi devoni ayniqsa qimmatlidir.

Yosh Alisher Navoiy o‘z davrining aziz va tabarruk shoiri Lutfiy bilan tez-tez do‘stona uchrashib, adabiy suhbatlarda bo‘lgan. Navoiy o‘z asarlarida ko‘p o‘rinlarda Lutfiy nomini tilga olganda, unga hurmat, izzat bilan “Mavlono Lutfiy”, “Malik-ul kalom” Lutfiy deb murojaat qiladi.

Lutfiy samarali ijod qilib, o‘zidan keyin boy lirik meros qoldirgan. Uning o‘zbek va fors tillarida o‘n-o‘n ikki ming bayt ijod etganligi ilmiy manbalarda xabar qilinadi.

Hozirgi kunda Lutfiy devonining 30 dan ortiq qo‘lyozma nushasi fanga ma‘lum bo‘lib, jumladan, 16 nusxasi O‘zbekiston qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda.

Lutfiy ijodi markazida inson va uning muhabbati turadi. Shoir sevgini chuqur va badiiy ta‘sirli etib kuylaydi. U sevgini insonning eng olijanob fazilati va ma‘naviy

go‘zalligi deb biladi va bu tuyg‘uni ardoqlab inson hayotining eng asosiy mazmuni deb qaraydi.

Insonlarni ezgulikka da‘vat etuvchi, ularni bir-biriga doimo yaxshilik qilishga undovchi misralarni Lutfiy g‘azaliyotida ko‘p uchratish mumkin.

Oddiy va kamtarona hayot kechirgan Lutfiy 1465- yilda Hirotida vafot etib, o‘zi tug‘ilgan Dehikanordagi bog‘iga dafn qilingan.

Lug‘at ishi

barakali	обильный
salmoqli	заметный
qimmatli	значимый, дорогой
tabarruk	почтенный, святой
murojaat etmoq	обращаться
bayt	двустышие
qo‘lyozma	рукопись
olijanob	благородный
tuyg‘u	чувство
ardoqlamoq	беречь, дорожить
...ga undovchi	призывающий делать...
misra	строка
dafn qilingan	похоронен

45 - mashg‘ulot Suhbat

- Siz bu ko‘chada anchadan beri yashaysizmi?
- Yo‘q biz ilgari Qibrayda yashar edik. Bu yerga ko‘chib kelganimizga uch oy bo‘ldi.
- Qibray tumanining qaysi joyida turar edingiz?
- Biz “Rohat” hissadorlik jamiyati yaqinida istiqomat qilardik. Dadam ham shu yerda ishlar edilar. Havosi ham salqinroq edi.

O‘TGAN ZAMON DAVOM FE’LI

(Глагол многократно-длительного прошедшего времени)

Глаголы в форме многократно - длительного прошедшего времени передают действие, которое совершалось многократно или регулярно повторялось в прошлом: Yo‘lchi chindan ham nay chalishni bilar edi va yaxshi chalar edi. (O). – Юлчи на самом деле умел играть на свирели и играл хорошо.

Эта форма прошедшего времени образуется спряжением неполного глагола edi после формы причастия будущего времени (с аффиксами – (a)r; - mas).

Birlik

Ko‘plik

I-shaxs	tanir edim	tanir edik
II- shaxs	tanir eding	tanir edingiz
III- shaxs	tanir edi	tanir edi(lar)

Отрицательная форма

	Birlik	Ko'plik
I- shaxs	tanimas edim	tanimas edik
II- shaxs	tanimas eding	tanimas edingiz
III- shaxs	tanimas edi	tanimas edi(lar)

Эта форма может так же обозначать действие, совершаемое в определенный момент в прошлом. Например: Men uyga kirganimda, buvim kitob o'qib o'tirar edilar – Когда я вошел в дом бабушка сидела читала.

Форма эта всегда переводится несовершенным видом. Неполный глагол может писаться и слитно, при этом буква е выпадает: borardim, bormasdim.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Bolaligimda balandlikdan qo'rqrar edim. 2. Uning o'zi ham ilgari sport bilan shug'ullanardi. 3. Ozoda sevinganidan o'zini qo'yarga joy topmas edi. 4. Shahodat opa qo'shiq aytishni yaxshi ko'rardi. 5. Aziz shoshganidan nima qilishni bilmasdi.

Topshiriq. Berilgan fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li shaklida qo'llab, gaplar tuzing.

Qatnashmoq, bajarmoq, o'zlashtirmoq, ulgurmoq, o'rganmoq.

Topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Он никогда не ошибался. 2. Выдающийся мастер узбекского футбола играл за национальную сборную бывшего союза. 3. В те годы «Пахтакор» был особенно силен против «сильных», он мог проиграть слабым, но у лидеров всегда выигрывал. 4. Бабур создавал свои шедевры в жанрах газель, рубои, туюк.

Topshiriq. Bilmoq so'zini yaqin, uzoq va o'tgan zamon davom fe'li shaklida qo'llab, gaplar tuzing. Fe'llar ifodalagan harakatdagi farqlarni tushuntiring.

Lug'at ishi

g'arb	запад	
ufq	горизонт	
olmosdan yasalgan	алмазный (сделанный из	алмаза)
varrak	бумажный змей	

musaffo	чистый, прозрачный
chaqnab turgani	то, что светит
tasalli	утешение
supa	топчан
girdob	водоворот
zir titratdi	потряс

Topshiriq. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ufqqa bosh qo‘ymoq, olmosdan yasalgan varrak, musaffo bolalik, tasalli bermaq, supada o‘tirmoq.

Topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

P.Qodirov “Yulduzli tunlar”dan

Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti og‘ayni yulduzlari o‘sha yerda ham Oltin qoziqni aylanib o‘tib, g‘arbga botib ketardi. O‘sha yerda ham Yetti o‘g‘ayni ufqqa bosh qo‘ygani sari Hulkar yulduzlari osmonning baland joylariga chiqib borardi. Bobur o‘smirligida Hulkar yulduzlarini olmosdan yasalgan varrakka o‘xshatar edi. Dumini quvnoq silkitib uchadigan olmos varrak uning xayolini yana musaffo bolalik yillariga olib ketdi. Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko‘rgan yulduzlari umrining oxirida Agrada ham chaqnab turgani unga so‘nggi bir tasallidek tuyuldi. Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog‘lom yigitga aylanib, Andijon chorbog‘ining supasida yotganday bo‘ldi.

Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladi...

Tun yarmidan oshganda Tohirning o‘kirib yig‘lagani qorong‘u bog‘ni zir titratdi...

Topshiriq. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida bilganlaringizni aytib bering.

46 - mashg‘ulot Suhbat

- A‘zam, sen Navro‘z bayramini qanday nishonlamoqchisan?
- Men shu kuni qishloqqa buvimnikiga boraman. U yerda bayram juda ajoyib o‘tadi. Qishloq o‘rtasidagi katta bog‘da askiyachilar, qo‘shiqchilar, dorbozlar yig‘ilib, zo‘r tantana bo‘ladi.
- Milliy o‘yinlar-chi? Ular ham bo‘ladimi?
- Ha, qishloq chetida kattagina ochiq maydon bor. Shu yerda ko‘pkari bo‘ladi.
- Sen ham ot minishni bilasanmi?
- Ha, men ko‘pkarida qatnashaman.

– Ha, ajoyib bayram bo‘lar ekan.

O‘TGAN ZAMON HIKOYA FE’LI

(Пересказительная форма прошедшего времени)

Данная форма образуется прибавлением к основе глагола аффикса (i)b и личных аффиксов спряжения.

Birlik

Ko‘plik

1- shaxs ko‘r+ib+man

ko‘r+ib+miz

2- shaxs ko‘r+ib+san

ko‘r+ib+siz

3- shaxs ko‘r+ib+di

ko‘r+ib+di(lar)

Отрицательная форма образуется с помощью аффикса – ma.

Birlik

Ko‘plik

1- shaxs ko‘r+mab+man

ko‘r+mab+miz

2- shaxs ko‘r+mab+san

ko‘r+mab+siz

3- shaxs ko‘r+mab+di

ko‘r+mab+di(lar)

Глагол в этой форме указывает на значение услышанности, т.е. говорящий не был очевидцем (участником) действия, а лишь позже узнал об этом или основывается на чужой информации: Bir kuni Afandidan so‘rashibdi: - Yoshingiz nechada? – однажды у Афанди спросили: - Сколько вам лет.

При переводе этой формы употребляют глаголы: оказывается, говорят, выходит.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Bog‘da olma qiyg‘os gullabdi. 2. A‘zam o‘z aybini tushunib etibdi va uzr so‘rabdi. 3. Shu-shu Nilufar onasining aytganidan chiqmaydigan bo‘libdi. 4. Ahmad harqancha urinmasin eshikni ocha olmabdi.

Topshiriq. Fe‘llarni o‘tgan zamon hikoya fe‘li shaklida tuslang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

topmoq, solmoq, bilmoq, so‘ramoq, yig‘moq.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Afandidan bir kuni so‘rashibdi: «Yoshingiz nechada?» Afandi: “Yigirma beshda”, – deb javob qaytaribdi. Oradan o‘n yil o‘tibdi. Yana Afandidan yoshini so‘rashsa, yana “Yigirma beshda”, – deb javob beribdi. Hayron bo‘lib “ O‘n yil avval yigirma beshda edingiz-ku”, – deyishsa, afandi aytibdi: - Yigit kishi bitta gapiradi.

Lug‘at ishi

ibrat	пример
ayamasdan	не щадя
savalayotgan emish	колотит
tuppa-tuzuk	приличный
rahmi kelibdi	стало жалко
mushtumzo‘r	обидчик
ko‘hlik(kina)	красивый (красивенький)
do‘pposlay boshlabdi	начал избивать
adabini beryapman	проучаю
farosatingga balli	здесь: ну и сообразительна ты...
ko‘ngliga tugibdi	задумал

Topshiriq. Matinni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

IBRAT

Bir ota o‘smir o‘g‘lini uyidan olib chiqib, ko‘chaning o‘rtasida ayamasdan savalayotgan emish. Bu sirni kim qanday tushunadi, degan ma’noda ana shu usulni tanlagan ekan. Shu payt qo‘shni darvozadan bir qiz chiqib qolibdi. Qarasa, tuppa-tuzuk yigitchani otasi urayotganmish. Qiz bunga chiday olmay so‘rabdi:

- Amaki, bu kimingiz bo‘ladi?
- O‘g‘lim bo‘ladi. - debdi otasi.
- O‘g‘lingiz nima gunoh qildiki, ko‘chaga chiqib urasiz.
- Gunohi shuki, - debdi ota, - aytganimni qiladi.

Qiz hayron qolibdi. Qanaqa ota bu, o‘g‘li aytganini qilsa-yu, rahmat eshitish o‘rniga kaltak yesa. Qizning ko‘z yosh qilayotgan bolaga rahmi kelibdi. “Mushtumzo‘r” otadan xafa bo‘libdi. Ota qizning holatini ko‘rib, ichida debdi: “Hoy qizim, sendan yaxshi kelin chiqmaydi. Sen sirning nimaligiga tushunmading...”

Qiz yoliga ketibdi. Ota yon-veriga qarasa, uzoqdan ko‘hlikkina bir qiz kelayotganmish. Qiz yaqinlashishi bilan ota yana o‘g‘lini do‘pposlay boshlabdi.

Qiz to‘xtab otadan so‘rabdi:

- Amakijon, o‘g‘lingiz nima gunoh qildiki, uyda emas, ko‘chaga chiqarib uryapsiz?

- Nima desam aytganimni qiladi, qizim. Shuning uchun adabini beryapman, - debdi ota.

- Qattiqroq uring, aqli kirsin, ana o‘shanda o‘z aqli bilan ish qiladigan bo‘ladi, - deb qizcha yo‘lida davom etibdi.

Buni ko‘rgan ota “E, farosatingga balli-ey, ona qizim”, - deb izidan termulib qolibdi, - albatta, bir kuni seni kelin qilaman”, - deb ko‘ngliga tugibdi.

47 - mashg‘ulot Suhbat

- Sen ertaga nimalar qilmoqchisan?

– Ertaga dam olish kunim. Qarindoshlarimni ko‘rgani bormoqchiman. Ular bilan bir mazza qilib gaplashib o‘tirmoqchiman. O‘zing-chi?

– Bir do‘stim kasalxonada davolanyapti. Shuni ko‘rgani bormoqchiman. Keyin kurs ishimni tamomlash uchun kutubxonaga boraman. Bir - ikkita kitoblarni ko‘rib chiqmoqchiman. Kechqurun kursdoshlar bilan kinoga tushmoqchimiz. Seni taklif qilmoqchi edim.

– Qayerda uchrashamiz?

– Soat 7 larda Alisher Navoiy nomidagi San’at saroyi yonida yig‘ilmoqchi edik.

– Men ham albatta yetib kelaman.

– Yaxshi bo‘lardi.

O‘TGAN ZAMON MAQSAD FE’LI (Глагол намерения прошедшего времени)

Глагол намерения прошедшего времени обозначает желание, намерение совершить действие, имевшее место в прошедшем времени. При этом совершено или нет это действие он не поясняет. Форма эта образуется с применением неполного глагола edi после аффикса – moqchi:

Men sizga shuni aytmoqchi edim – Я вам хотел сказать именно это.

Birlik

Ko‘plik

I shaxs bor+moqchi edim

bor+moqchi edik

II shaxs bor+moqchi eding

bor+moqchi edingiz

III shaxs bor+moqchi edi

bor+moqchi edi(lar)

Отрицательная форма образуется с помощью отрицательного слова emas: bormoqchi emas edim, bormoqchi emas eding и т.д.

При переводе на русский язык этой формы употребляют глаголы хотеть, намереваться, собираться, думать и т.д. Toqqa ertaga jo‘namoqchi edik – Хотели поехать в горы завтра.

Иногда эта форма может употребляться в значении будущего времени.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Kechirasiz, sizni hafa qilmoqchi emasdim. 2. Men sizni o‘zim bilan olib ketmoqchi edim. 3. Sizga shuni aytib qo‘ymoqchi edimki... 4. Men sizni hoziroq ko‘rmoqchi edim.

Topshiriq. Bilmoq fe’lini o‘tgan zamonning barcha shakllarida tuslang. Har bir zamon shaklida qo‘llab beshta gap tuzing.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Fe’llarning zamon ma’nosiga e’tibor bering.

1. Navoiy ijodini juda erta boshlaydi. 2. Shu paytda qayoqqa ham bordik. 3. Mening akam shu paytda harbiy bilim yurtida o‘qir edi. 4. Tohir nihoyat o‘z aybini tushunib yetibdi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я хотел поздравить вас с днем рождения. 2. Я хотел познакомить вас с моим другом. 3. В детстве я ходил в музыкальную школу. 4. Сабир очень любил футбол. 5. Все мои друзья хотят стать хорошими учителями.

Lug‘at ishi

baxt borasida	о счастье
qasida	ода
to‘ylamoqchi edim	я хотел справить свадьбу
ko‘zlarim o‘ngida namoyonsan	ты перед моими глазами
dorilomon	благополучный
sharob	сок, вино
ummon	океан
asriy armon	мечта давняя (вековая)

Topshiriq. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

Qasida to‘qimoq, to‘y to‘ylamoq, xatarsiz yo‘l, asriy armoni ushalmoq.

Topshiriq. Sherni ifodali o‘qing va yod oling.

O‘ZBEKISTON SAN

Mirtemir

Men baxt borasida so‘ylamoqchiydim,
Quvnoq bir qasida kuylamoqchiydim,
Erta va bugunni o‘ylamoqchiydim,
Ertak kabi bir to‘y to‘ylamoqchiydim.
Ko‘zlarim o‘ngida sen namoyonsan,
Sen axir o‘shasan, asriy armonsan
O‘zbekistonsan.

Mehnat o‘g‘lisan-da, yuraging sog‘dir,
Kunchilar yil sayin talang va dog‘dir.
Har qadaming jannat, bog‘chadir, bog‘dir,
Kechalaring doim lak-lak chiroqdir.
Sen yovga shaddod-u, do‘stga darmonsan,
O‘zbekistonsan.

Ne-ne xazina hukmi qo‘lingda,
Qutlug‘ yil qo‘shig‘i bog‘u, cho‘lingda,
Oltining, ipaging o‘ngu so‘lingda,
Ne-ne ellar shaydo sening yo‘lingda.
Mevasi sharobsan, suvsan va nonsan,
O‘zbekistonsan!

Rasm

NAVRO‘Z

48 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Sen Navro‘z bayrami tarixini bilasanmi?
- To‘g‘risi, yaxshi bilmayman.
- U qadimdan nishonlanib keladi. Uning tarixi O‘rta Osiyoda Islom dini o‘rnatilishidan ham avval boshlangan.
- Uning Islom diniga dahlil yo‘qmi?
- Yo‘q. U yangi yil boshi sifatida bayram qilingan. Umar Hayyomning “Navro‘znoma” asari bor, bir o‘qib chiqsang, ko‘p narsa bilib olasan.
- Rahmat, albatta olib o‘qiyman.

HOZIRGI ZAMON (Настоящее время глагола)

Глагол настоящего времени обозначает действие, начатое до момента речи, но не законченное, т.е. в момент речи оно может быть приостановлено.

В узбекском языке две формы настоящего времени:

Hozirgi zamon davom fe‘li (настоящее продолжительное время);

Hozirgi-kelasi zamon fe‘li (настоящее-будущее время).

HOZIRGI ZAMON DAVOM FE‘LI (Настоящее - продолжительное время)

Настоящее - продолжительное время образуется с помощью аффикса –уар и личных аффиксов спряжения. Men o‘zbek tilini o‘rganyarman – Я изучаю

узбекский язык. Как уже говорилось, в момент речи действие может быть приостановлено, но оно будет иметь продолжение.

	Birlik	Ko‘plik
I- shaxs	kel+yap+man	kel+yap+miz
I- shaxs	kel+yap+san	kel+yap+siz
III- shaxs	kel+yap+ti	kel+yap+ti(lar)

	Отрицательная форма	
Birlik	Ko‘plik	
I- shaxs	kel+ma+yap+man	kel+ma+yap+miz
I- shaxs	kel+ma+yap+san	kel+ma+yap+siz
III- shaxs	kel+ma+yap+ti	kel+ma+yap+ti(lar)

Так же в узбекском языке настоящее-продолжительное время образуется с аффиксами -yotib (устаревший), - yotir (диалектальный) и - moqda. Однако форма с аффиксом –moqda не имеет отрицательной формы.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Saida endilikda ingliz tili bilan muntazam shug‘ullanyapti. 2. Yurtimiz kun sayin chiroy ochib bormoqda. 3. Hozir u o‘z ishidan ancha pushaymon bo‘layotibdi (H.N.). 4. Biz Navro‘z bayramiga katta tayyorgarlik ko‘ryapmiz.

Помните: Настоящее - продолжительное время от глаголов состояния: tur, o‘tir, yot и yur образуется с помощью аффикса – ib: turibman (стою), yotibdi (лежит) и т.д. отрицательная форма образуется прибавлением притяжательного аффикса к причастию и словом yo‘q:

O‘tiribman – o‘tirganim yo‘q. Yotibdi – yotgani yo‘q и т.д.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men o‘qituvchimni kutib turibman. 2. Malika bog‘da dars tayyorlab o‘tiribdi. 3. Said hali ham shahmat to‘garagiga qatnashib yuribdi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

В настоящее время Ахрор работает над кандидатской диссертацией. В своей работе он хочет сравнить факты русского и узбекского языков. Для этого он много читает, записывает и прослушивает речь носителей двух языков. Он очень много трудится, ибо он знает, что без труда, без упорства не достичь ни одной цели.

Lug‘at ishi

kecha-kunduzning to‘rtidan biri	одна четвертая суток
Kayumars (Jamshid)	мифологический падишах
Ирана	
Ajam	Древний Иран
joriy qilish	учредить, ввести
burj	знак зодиака
mubar	священник у зораастридов
mehr- muruvvat	доброта, радушие
...bayrami sifatida	как праздник...
ajoyib	замечательный

NAVRO‘Z

Navro‘z Yaqin va O‘rta sharq xalqlarining yangi yil bayrami sanalib, 21- mart kuni nishonlanadi.

Bu bayram O‘rta Osiyoda Islom dini o‘rnatilmasidan oldin ham nishonlangan. Navro‘z haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar, shuningdek, ilmiy asarlar ham mavjud.

Jumladan, Umar Hayyomning (1048-1132) “Navro‘znoma” asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Navro‘zning joriy qilinishi sababini aytsak, u shundan iboratki, oftobning ikki aylanishi mavjud, ulardan biri quyidagicha: Oftob har yuz oltmish besh kun-u kecha-kunduzning to‘rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o‘zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.

Jamshid bu kunni tushunganidan keyin Navro‘z deb atadi va bayram qilishni odatga aylantirdi...

...Aytishlaricha, birinchi Ajam podshosi Kayumars podshoh bo‘lgandan keyin yilining kunlari va oylariga nom berishga hamda odamlar bilsin deb yilnoma joriy qilishga qaror qilgan, u tongda oftob Hamal burjining avvalgi daqiqasida kirgan kunni aniqlab, Ajam mubadlarini yig‘di va yil hisobini shu paytdan boshlashni buyurdi”.

Mana shunday qadimiy bayram sobiq sho‘rolar tuzumi davrida deyarli unutildi. Uni ta‘qiqlab ham qo‘yishdi.

Shukurki, istiqlol bu ajoyib bayramni xalqimizga qaytarib berdi. Endilikda u O‘zbekistonda bahor, mehr-muruvvat, do‘stlik bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

49 - mashg‘ulot Suhbat (telefonda)

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum assalom.
- Kechirasiz, bu Rustam akaning xonadonlarimi? Menga Saidjon kerak edi, men uning kursdoshi Ashur bo‘laman.
- Saidjon hozir uyda yo‘q, bir yerga ish bilan ketgandi.
- Qachon kelishini aytolmaysizmi?

– Yo‘q, uzr, bilmayman, qachon qaytishini aytmadi. Kech tomon bir qo‘ng‘iroq qilib ko‘ring. Balki, kelib qolar.

– Ha, albatta qo‘ng‘iroq qilaman. Bezovta qilganim uchun uzr.

HOZIRGI - KELASI ZAMON

(Настоящее-будущее время)

Глагол в настояще - будущем времени обозначает несколько значений. Образуется эта форма спряжением деепричастий на аффикс – а (-у):

	Birlik	Ko‘plik
I- shaxs	bil+a+man	bil+a+miz
II- shaxs	bil+a+san	bil+a+siz
III- shaxs	bil+a+di	bil+a+di(lar)

Отрицательная форма

	Birlik	Ko‘plik
I- shaxs	bil+may+man	bil+may+miz
II- shaxs	bil+may+san	bil+may+siz
III- shaxs	bil+may+di	bil+may+di(lar)

Это форма служит:

1. Для обозначения настоящего времени. При этом:

а) действие не ограничено временем; оно является естественным постоянным признаком предмета: qush uchadi (птица летает), yozda havo isiydi (летом воздух нагревается) и т.д. – Qush uyasida ko‘rganini qiladi (maqol) – эквивалент на русском языке – Яблоко от яблони далеко не падает.

б) означает обычное, традиционное, постоянное действие лица или предмета: Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko‘gra qaviydi (O). Жена моя зимой-летом занята делами этого дома: стирает, убирает, печет лепешки, шьет.

в) действие может относиться непосредственно к моменту речи. O‘sha kuni bo‘lib o‘tgan shov-shuv hali ham qulog‘im tagida shang‘illaydi (B.K.) – Шум происшедший в тот день до сих пор звенит в моих ушах.

2. Для обозначения будущего времени: Bolang uch-to‘rt kun qiynaladi, keyin o‘rganib ketadi. – Ребенок будет мучиться три-четыре дня, а потом привыкнет.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Dadam maktabda geografiyadan dars beradilar. 2. Men bu yil institutga kiraman. 3. Barcha xalqlar tinchlikni istaydi. 4. Yozgi ta’tilda Chimyonda dam olamiz.

Topshiriq. Gaplarni o'qing. Fe'llar qanday zamondagi harakatni ifodalashini tushuntiring.

1. Men hozirgina yetib keldim. 2. Bobur o'n ikki yoshda Andijon taxtiga o'tiradi. 3. Bugun 62-poezd bilan Buxoroga jo'nab ketyapman. 4. Kechqurun diskotekaga bordik. 5. Endigina oshni damlagan edim. 6. Sizni ko'rmasam, qaytib ketar edim.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

На следующей неделе я еду в командировку. Я буду в городе Нукусе, а через три дня приеду в Ургенч. Всего я пробуду в командировке 9 дней. Со мной едет мой коллега Таиров. Мы будем проверять состояние дел в автохозяйствах Каракалпакистана и Хорезмского вилоята. По приезду мы отчитаемся перед руководством концерна.

Lug'at ishi

yurish	здесь: поход
yillar mobaynida	на протяжении лет
keyinchalik	позже
rasadxona	обсерватория
yirik	крупный
sayyora	планета
tashviqot	пропаганда
qatl qilish	казнь (казнить)

Topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

ULUG'BEK

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394- yilning 22- martida tug'iladi. U yoshlik vaqtlaridayoq bobosi Amir Temur bilan juda ko'p yurishlarda qatnashadi, ko'p mamlakat va shaharlarni ko'radi. Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug'bekning otasi Shohruh qo'liga o'tadi. Shohruh Xurosonda o'zi hukmronlik qilib, Mavoraunnahrni o'g'li Ulug'bekka topshiradi. Bu vaqtda Ulug'bek 15 yoshda edi.

Ulug'bek 1417-1420- yillar mobaynida ajoyib madrasa qurdiradi. Bu madrasa tarixda Ulug'bek nomi bilan yuritiladi. U keyinchalik Samarqandda rasadxona ham qurdiradi.

O'rta asr fanining rivojida ulug' astronom Ulug'bekning xizmati katta. Ulug'bek yaratgan ilmiy ishlarning eng yirigi uning yulduz va sayyoralar harakatiga bag'ishlangan «Astronomik jadval»i hisoblanadi.

Ulug'bekning yulduzlar haqidagi asari 1665- yili Oksfordda, 1853- yili Parijda, 1917- yili Amerikada, 1943- yili Londonda tarjima qilinadi va bosilib chiqadi.

Buyuk olim Ulug'bekka Xo'ja Ahror boshliq reaksiya guruhlar qarshi chiqqan boshlaydilar. Ularning tashviqoti bilan o'g'li Abdullatif 1449- yili otasini qatl qilishga

farmon beradi. Qora guruhlar tomonidan buyuk olim Ulug‘bek o‘ldirilsa-da, uning nomi, o‘lmas ishlari butun dunyoda abadiy yashaydi.

Topshiriq. Navoiyning Ulug‘bek haqidagi so‘zlarini yod oling.

Temurxon naslidan Mirzo Ulug‘bek.
Ki olam ko‘rmadi sulton oningdek...
Va lek ul ilm sari topdi chun dast,
Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.
Rasad kim bog‘lamish – zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bunav ilmi osmoniy
Ki ondin yozdi “Zichi ko‘ragoniy”.
Qiyomatga deguncha ahli ayyom
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

50 - mashg‘ulot **Suhbat**

- Siz O‘zbekistonning qaysi shaharlarida bo‘lgansiz?
- Men Samarqand, Buxoro va Xivada bo‘lganman.
- Bu shaharlar sizda qanday taassurot qoldirdi?
- Juda go‘zal shaharlar. U yerlarda bo‘lgan kishi yurtinigizning boy tarixi, madaniyatidan ta’sirlanmasligi mumkin emas. Ayniqsa, Samarqandda bo‘lishim meni juda to‘lqinlantirib yubordi. U yerdagi tarixiy obidalar bilan faxrlansa arziydi.
- Yana qaysi shaharlarda bo‘lishni xohlaysiz?
- Qadim Buxoroni ziyorat qilsam deyman. Qolaversa, Termiz, Andijon, Farg‘ona shaharlari haqida ham ko‘p yaxshi gaplar eshitganman. Nasib etsa, ularni ham borib ko‘rmoqchiman.

KEIASI ZAMON FE’LI (Глаголы будущего времени)

Будущее время означает действие, которое будет совершено после момента речи. В узбекском языке две формы будущего времени: Kelasi zamon gumon fe’li (Предположительное будущее время); Kelasi zamon maqsad fe’li (Глагол намерения будущего времени).

KELASI ZAMON GUMON FE’LI

Предположительное будущее время означает действие, которое возможно совершится в будущем. Ertaga balki sayr qilgani borarmiz. – Возможно, завтра пойдем на прогулку.

Форма эта образуется спряжением причастия будущего времени (с аффиксами – (a)r; -mas).

	Birlik	Ko‘plik
I. shaxs	borar+man	borar+miz
II. shaxs	borar+san	borar+siz
III. shaxs	borar	borar(lar)

Отрицательная форма

	Birlik	Ko‘plik
I. shaxs	bormas+man	bormas+miz
II. shaxs	bormas+san	bormas+siz
III. shaxs	bormas+di	bormas (lar)

Отрицательная форма таких глаголов практически не употребляется. Кроме того, эта форма может употребляться (особенно в поэзии) в значении точного будущего времени, т.е. обозначать действие, которое непременно совершится (или не совершится) в будущем. Yo‘lim boshlar ketarman bir kun. (A.O.) – Позовёт меня дорога, и уйду я вслед за ней. Dunyoni qizg‘onma mendan, azizim, sen ichgan buloqdan ichmasman aslo. (A.O.) – Не жалею для меня этот мир, не буду пить с того родника, с которого ты пила (буквально.)

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Ozodaxon, oshni soat oltiga tayyor qilarsiz. 2. Dars tayyorlagani birga borarmiz. 3. Siz ham futbolga biz bilan birga ketarsiz? 4. Institutni bitirib o‘z shahringizga qaytarsiz? 5. Sodiqjonga mendan salom aytarsiz.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Возможно, завтра мы поедем за город. 2. Очевидно, она об этом знала. 3. Вероятно, завтра мы соберемся в клубе. 4. Наверное, Саодат завтра не придет. 5. По всей вероятности, каникулы мы проведем дома.

Topshiriq. Kelmoq fe’lini barcha zamon ikkinchi shaxs birlik shaklida qo‘llab gaplar tuzing.

Topshiriq. Gaplarni o‘qing. Fe’llarning zamon shakli va ma’nosini ayting.

1. Sohiba kecha biznikiga kelgan edi. 2. Shoir Muqimiy faqirlikda kun kechiradi. 3. Umr o‘tar, vaqt o‘tar, xonlar o‘tar, taxt o‘tar. 4. Qani, hammamiz dasturxon atrofida keldik. 5. Karimning dadasi hozir chet eida ishlaydi. 6. Mehnat baxt keltiradi (maqol).

Lug‘at ishi

mumtoz	классический
tan olinadi	признан
sarkarda	воевода
taqdir taqazosi bilan	по велению судьбы
yetakchi	ведущий
tarannum etmoq	воспевать
haqqoniy	правдивой
ishlab chiqmoq	разработать
chiston	загадка (жанр поэзии)
chorlamoq	призывать
ilm tolibi	1) желающий учиться 2) знающий

Topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini hikoya qilib bering.

BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotida Navoiydan keyin eng ko‘p meros qoldirgan shoir sifatida tan olinadi.

Shoir, davlat arbobi, shoh, sarkarda Bobur 1492- yilda Andijonda dunyoga keldi. Otasi Umar shayx mirzo vafotidan keyin 12 yoshida Bobur Andijon taxtiga chiqadi.

Bobur juda mazmunli va ayni paytda og‘ir hayot kechiradi. Taqdir taqozosi bilan Hindistonga borib, u yerda ulkan davlat qurdi.

Bobur she‘riyatida ona yurtga muhabbat mavzusi etakchi o‘rin tutadi. Shuningdek, u chin insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Sevgi, oliyjanoblik, sadoqat kabi tuyg‘ularni tarannum etadi.

Bobur o‘zbek adabiyotida birinchi memuar asar yozgan adib hamdir. “Boburnoma”da muallif o‘z ko‘rgan- kechirganlarini haqqoniy aks ettiradi.

Bobur kishilarni ma‘rifatli qilish orzusi bilan yashagan, u “Xatti Boburiy” nomli yozuvni ham ishlab chiqqan.

Bobur ijodida g‘azal, ruboiy, tuyuq, fard, chiston kabi janrlarni ko‘rish mumkin. Bobur she‘riyatining tili sodda, xalqchilligi bilan diqqatga sazovor.

Shoh va sarkarda, buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi xalqimizni ezgulikka, ilm-ma‘rifatga chorlaydi:

Kim, yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak,
Men tolibi ilmu tolibi ilme kerak,
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.

51 - mashg‘ulot **Suhbat**

– Siz o‘zbek tilida chiqadigan qaysi nashrlarni bilasiz?

- Men “Turkiston”, “Xalq so‘zi”, “Ma‘rifat”, “Toshkent oqshomi” gazetalarini olib o‘qiyman. “Tasvir”, “Darakchi”, “Afandi” gazetalarini ham olib turaman.
- Jurnallardan-chi?
- “Saodat”, “Sanam” jurnallarini olaman. Farzandlarim o‘zbek tilini yaxshiroq bilsin deb, “Tong yulduzi”, “Gulxan”ga obuna bo‘ldim.
- O‘zbekcha o‘qishga qiynalmaysizmi?
- Deyarli qiynalmayman.

KELASI ZAMON MAQSAD FE’LI

(Глагол намерения будущего времени)

Глагол в этой форме обозначает реальное намерение или предположение совершить то или иное действие.

Форма намерения будущего времени образуется прибавлением к основе глагола аффикса – *moqchi* и личных аффиксов спряжения.

Birlik	Ko‘plik
I-shaxs ol+moqchi+man	ol+moqchi+miz
II-shaxs ol+moqchi+san	ol+moqchi+siz
III-shaxs ol+moqchi	ol+moqchi(lar)

Отрицательная форма образуется спряжением отрицательного слова *emas*: *olmoqchi emasman*, *olmoqchi emassan* и т.д.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman. 2. Siz o‘zingiz uchun nimalar sotib olmoqchisiz? 3. Siz bilan bu to‘g‘rida gaplashmoqchi emasman. 4. Do‘stim bilan yozgi ta’tilda qishloqqa ketmoqchimiz. 5. Dadam yangi yilda menga yangi kvartira olib bermoqchilar.

Topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я хочу взять своего младшего брата с собой в горы. 2. Студенты нашего курса собираются поехать в Бухару. 3. Мы все хотим иметь хорошие оценки по узбекскому языку. 4. Чтобы лучше знать узбекский, я хочу пожить у бабушки в махале. 5. Завтра мы хотим посетить Музей Тимуридов.

Topshiriq. Kelmoq fe’lini barcha zamon shakllarida qo‘llab gaplar toping.

Topshiriq. Maqollarni o‘qing. Rus tilidagi muqobilini toping.

1. Erta ekan, erta o‘radi. 2. Zar qadrini zargar biladi. 3. Bola shirin, odobi undan shirin. 4. Qari bilganni pari bilmas. 5. Oy yoritadi, ammo isitmaydi.

Topshiriq. Berilgan fe’llarning zamonini ayting.

Ishladi, kelgan edi, borgan emas edi, bormoqchi emas edim, kelmabdi, ishlayapti, ishlar, ishlamoqchi emas, ikkilanyapti.

Lug‘at ishi

o‘chmas iz qoldirgan	оставивший яркий след
hurmatini bajo keltirish	здесь: воздать должное

qulfsoz
zabardast
dafn etilgan
mo‘tabar zot
... deb yuritilgan

изготовитель замков
сильный
похоронен
почтенный человек
называлось ...

Topshiriq. Matnni o‘qing. Fe’llarning zamon, shaxs-sonini ayting. Matn mazmunini aytib bering.

QAFFOL ASH SHOSHIY (903 - 976)

Shosh (Qadimgi Toshkent) tarix maydoniga ko‘plab allomalar, shoir va adiblarni, tabobat ahllarini etkazib bergan.

Tariximizda o‘chmas iz qoldirgan allomalarimizdan biri Qaffol ash – Shoshiydir.

Arab manbalarida uning hurmatini bajo keltirish uchun nomiga «al kabir» so‘zi qo‘shib yoziladi.

Ash Shoshiy hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Qaffol --qulfsoz degan nom bilan mashhur bo‘lgan alloma nafis qulflar yasagan.

Ash Shoshiy dastlabki ta’limni o‘z yurtida olgan. Keyinchalik Samarqand, Buxoro, Termiz, Hijoz, Bag‘dod, Damashq kabi shaharlarni kezib, u yerlarda yashab o‘tgan olim-u fuzalolar merosi bilan tanishgan.

U fikh (qonunchilik) ilmini mukammal egallashi bilan birga falsafa, mantiq, adabiyot, tilshunoslik kabilarini ham puxta o‘rgangan, shu sohalarining zo‘r bilimdoni sifatida bir qancha asarlar yaratgan.

Alloma zamonasining taniqli shoiri hamdir, o‘z sh’erlarini u arab tilida yozgan. Ash Shoshiy zabardast davlat arbobi sifatida ham mashhur bo‘lgan.

Qaffol ash Shoshiy 976- yilda Toshkentda vafot etgan va shu yerda dafn etilgan. Toshkentning xalq orasida «Hastimom» deb nom olgan joyi asli shu mo‘tabar zotga nisbatan aytiladigan Hazrati imom nomining qisqargan shaklidir.

52 - mashg‘ulot Suhbat

- Kolya, sen futbolga qiziqasanmi?
- Ha, “Paxtakor”ning hamma o‘yiniga boraman. O‘zing-chi?
- Men tennisga qatnashaman. Futbol ham o‘ynab turaman. Umuman, oilada hammamiz sportchimiz. Akam suzuvchi, ukam kurashchi.
- Chempionlar oilasi, degin.
- Kim bilsin, shunday bo‘lishini istardim.
- Intilganga tole yor, – deyishadi. Yaxshi shug‘ullansangiz, balki, chempion ham bo‘larsizlar.

- Aytganing kelsin. Sen futbolni faqat tomosha qilasanmi? Yo o'ynaysan hammi?

- Ha, o'ynayman ham. Hozir universitet jamoasida o'ynayapman.

- Yutuqlar qanday?

- Yomon emas. Rahmat.

FE'L MAYLLARI (Категория наклонения)

Наклонение – грамматическая категория глагола, выражающая отношение действия или состояния к действительности.

В узбекском языке глагол имеет четыре формы наклонения: *haber mayli* (изъявительное); *buyruq-istak mayli* (повелительно-желательное); *shart mayli* (условное); *maqsad mayli* (цели).

XABAR MAYLI

Все формы времени, за исключением глаголов намерения прошедшего и будущего времен, относят к изъявительному наклонению, а последние две формы к наклонению цели.

Изъявительное наклонение показывает, что говорящий считает действие фактом, относя его к прошедшему, настоящему и будущему времени.

Наклонение цели (намерения) выражает цель совершения того или иного действия.

BUYRUQ - ISTAK MAYLI

Повелительно - желательное наклонение обозначает волеизъявление говорящего. Основа любого глагола равна форме повелительного наклонения II лица единственного числа. Глагол в повелительно-желательном наклонении спрягается следующим образом:

Birlik		Ko'plik
I- shaxs	ayt+ay	ayt+aylik
II- shaxs	ayt	ayt+ing
III- shaxs	ayt+sin	ayt+sin(lar)
Birlik		Отрицательная форма Ko'plik
I-shaxs	ayt+ma+y	ayt+ma+ylik
II-shaxs	ayt+ma	ayt+ma+ng
III-shaxs	ayt+ma+sin	ayt+ma+sin(lar)

Для подчеркивания просьбы ко второму лицу иногда прибавляют аффикс – gin: aytgin, yozgin, bergin и т.д.

Для различения форм уважения и множественного числа иногда во множественном числе прибавляют аффикс – lar: ayting (скажите уважительная форма), aytinglar (обращение к нескольким людям).

Topshiriq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini rus tilida ayting.

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh. 2. Sanamay sakkiz dema. 3. Bir tup nok eksang, bir tup tol ek. 4. Bugungi ishni ertaga qo‘yma. 5. Avval o‘yla, keyin so‘yla. 6. Tiling bilan dilingni bir tut.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zingni, o‘z uyingni o‘zing asra. 2. El-u yurt dardiga darmon bo‘laylik. 3. Ertaga hamma hasharga kelsin. 4. Sen, yaxshisi, buguncha dam ol. 5. Gulnoraga ayt: tepaga qo‘ng‘iroq qilsin. 6. Qani, oldinga tushib ko‘r-chi!

RASM

9 – MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Напиши-ка мне список присутствующих. 2. Учись как правильно говорить по- узбекски. 3. В субботу он пусть остается на дежурство. 4. Карим, будь добрым, принеси мне чашечку чая. 5. Пусть брат на ужин приготовит плов.

Topshiriq. Buyruq-istak maylidagi fe‘llar ishtirokida gaplar tuzing.

Lug‘at ishi

muallif	автор
tinib - tinchimas	неустанный
oliyjanob	благородный
hissa qo‘shmoq	внести вклад
yaratmoq	создать, создавать
tinimsiz	беспрерывно
hammualliflikda	в соавторстве
beshafqat	безжалостный

Topshiriq. Matnni o‘qing va hikoya qilib bering.

MARYAM USMONOVA

Filologiya fanlari nomzodi, TDPU professori Maryam Rahimovna Usmonova 1926- yilda Toshkent shahrida tug'ildi.

U chet tillar institutini muvaffaqiyatli tamomladi. Yosh, g'ayratli Maryamni vazirlikka ishga tayinlashdi. Biroq o'qituvchi kasbiga bo'lgan mehri uni Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga yetakladi.

M. Usmonova mazkur institut (hozir universitet) da qariyb 35 yil mehnat qildi. U o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, professor lavozimlarida ishlash bilan birga tinimsiz ilmiy-ijodiy ish bilan band bo'ldi.

M. Usmonova o'zga millat vakillariga o'zbek tili o'qitishni yaxshilash borasida tinmay izlandi. U maktab va oila o'quv yurtlari uchun darslik, dastur va qo'llanmalar muallifi sifatida sizga yaxshi tanish. Qo'lingizdagi darslik ham taniqli olim bilan hammualliflikda yaratildi.

Maryam Usmonova yaratgan darsliklari, dastur va qo'llanmalari, eng muhimi chin insoniy fazilatlarini: oliyjanoblighi, samimiyligi bilan qalblarimizda yashab qoladi.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Она автор ряда учебников и пособий. 2. Её труд достойно отмечен. 3. Верный друг, настоящий человек, она будет жить в наших сердцах.

53 - mashg'ulot Suhbat

- Tohir, bugun Adhamni ko'rdingmi?
- Yo'q, tinchlikmi?
- Ha, tinchlik. Unda ishim bor edi. Mabodo ko'rsang, aytib qo'y, menga uchrashsin.
- Sen o'zing qaerda bo'lasan?
- Hozir darsga ketyapman. Bugun 4 soatgina o'qiymiz. Keyin kutubxonada bo'laman.
- Yaxshi, uni uchratsam, qidirayotganingni albatta aytaman.

SHART MAYLI (Условное наклонение)

Глагол в условном наклонении обозначает действие, от выполнения которого зависит совершение другого. Форма эта образуется прибавлением к основе глагола аффикса – sa и аффиксов личного спряжения.

Birlik

Ko'plik

- | | |
|-----------------------------------|----------------------------|
| 1- shaxs kel+sa+m (если приду) | kel+sa+k (если придем) |
| 2- shaxs kel+sa+ng (если придешь) | kel+sa+ngiz (если придете) |
| 3- shaxs kel+sa (если придет) | kel+sa(lar) (если придут) |

Отрицательная форма таких глаголов образуется с помощью аффикса –ma, который прибавляется перед аффиксом наклонения: kel+ma+sa+m, kel+ma+sa и т.д.

В сочетании со словом kerak глагол в условном наклонении обозначает предположение: borsak kerak – возможно, поедем, yomg'ir yog'sa kerak – возможно, будет дождь и т.д.

В сочетании со словами mayli, в вопросительной форме, выражает желание, просьбу: kirsam maylimi – можно ли я войду, so'rasam maylimi – могу ли я спросить и т.д.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. 2. Bugun biznikiga kelsang, birga dars tayyorlardik. 3. Futbol o'ynamasam ham o'yin qoidasini yaxshi bilaman. 4. Havo issiq bo'lib tursa, ko'chat ekishni boshlab yuboramiz. 5. Izzat qilsang, izzat topasan (Maqol).

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Если будет время, зайдем навестить Карима. 2. Если не будет дождя, поедем в горы. 3. Если бы не ты, я бы не смог перевести эту статью. 4. Чем раньше ты придешь, тем лучше. 5. Как только он приедет, тут же начнем ремонт.

Topshiriq. Maqollarni yod oling.

1. Shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin. 2. Nima eksang, shuni o'rasan. 3. Katta arava qayoqqa yursa, kichigi ham shu yoqqa yuradi. 4. Bola kulsa, olam kuladi.

Topshiriq. Shart maylidagi fe'llar ishtirokida 5-6 ta gap tuzing. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

Topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

Lug'at ishi

kongilli	доброволец
qilichboz	фехтовальщик
chavandoz	всадник
dovyurak	храбрый
porloq kelajak	светлое будущее
qutlug'nomi	светлое имя
jon fido qilgan	отдавший жизнь
minnatdor avlodlar	благодарные потомки
xotira	память

O'ZBEK XALQINING MARD O'G'LONI

Sobir Rahimov 1902 – yil fevralida Toshkent shahrida tug‘ilgan.

1922- yilning yozida u harbiy xizmatga ko‘ngillilar qatorida chaqiriladi. Bokudagi harbiy maktabda o‘qiydi va usta chavandoz ham mohir qilichboz bo‘lib yetishadi.

1925- yilda harbiy maktabni a‘lo baholar bilan tamomlagach, Samarqanddagi o‘zbek otliq diviziyasi ixtiyoriga keladi. Bu yerda u vzvod komandiri bo‘lib xizmat qiladi.

1936 – yilda Sobir Rahimovga kapitan harbiy unvoni beriladi.

1941- yilda Sobir Rahimov Smolensk shahrida motorlashtirilgan polk komandirining o‘rinbosari edi. Ikkinchi jahon urushi davrida dovyurak o‘zbek o‘g‘li yurt ozodligi uchun dushmanga qarsh jon- jahdi bilan kurashdi.

1942- yil iyunida Don daryosi atrofidagi qattiq janglar vaqtida u diviziya komandiri va polkovnik unvonida bo‘lgan Sobir Rahimovga 1943- yil mart oyida general – mayor unvoni berildi.

1945- yil 26 mart kuni Gdansk shahri uchun jang ketayotgan bir paytda o‘zbek xalqining mard o‘g‘loni qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Yurtining porloq kelajagi uchun jon fido qilgan o‘g‘lonini xalqimiz aslo unutmadi. Bugun uning nomi bilan poytaxt tumanlaridan biri, metro bekati, maktablar atalgan. Eng asosiysi, Sobir Rahimovning qutlug‘nomi minnatdor avlodlar xotirasida yashamoqda.

Topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. “O‘tgan kunlar” asarining muallifi kim? 2. Asarning bosh qahramonlari kimlar? 3. Qodiriyning yana qaysi asarlarini bilasiz? 4. Qodiriy qachon va qayerda tug‘ilgan? 5. Yozuvchi haqida yana nimalar bilasiz?

54 - mashg‘ulot

Suhbat

- Kechirasiz, bu yerdan Qo‘yliq dahasiga boradigan transport bormi?
- Ha, bu yerdan Qo‘yliqqa yo‘nalishli taksi boradi.
- Nechanchi yo‘nalishli taksi?
- 99-yo‘nalishli taksi. U Qo‘yliq bozorigacha boradi.
- Yo‘nalishda “Otoyo‘l” avtobuslari qatnaydimi?
- Yoq. Xususiy mashinalar. «Raf», «Gazel» kabi mikroavtobuslar qatnaydi. Yo‘lning u tomoniga o‘tib, qarama-qarshi yo‘nalishga chiqasiz. Bu tomonga TTZ dahasiga boriladi.
- Rahmat.
- Xayr. Yaxshi yetib oling.

FE’L NISBATLARI

(Залог и глагола)

Категория залога выражает отношение к субъекту и объекту действия. Это отношение обозначают специальные формы глагола. С изменением залога происходит изменение в объекте и субъекте действия.

В узбекском языке пять залогов глагола:

Aniq nisbat (действительный залог) имеет нулевой показатель. Субъект действия, обозначенного в форме этого залога, выражается подлежащим, а объект дополнением в винительном падеже: O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirdi. Учитель объяснил новую тему.

O'zlik nisbati (возвратный залог) выражает действие исходящее от субъекта и возвращающееся на него. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: -(i)l; -(i)n; иногда -(i)sh; yuvmoq – мыть, yuvinmoq – мыться, kiymoq – одевать, kiyinmoq – одеваться, kermoq – потянуть, kerishmoq – потягиваться.

Majhul nisbat (страдательный залог) указывает на действие, объектом которого является подлежащее, а субъектом – косвенное дополнение (в предложении он может быть пропущен). Xat yozildi – Письмо было написано. Образуется эта форма прибавлением к основе аффиксов: -(i)l; -(i)n: qurildi – построен, solindi – положен, ko'rildi – рассмотрен и т.д.

Birgalik nisbati (взаимно-совместный залог) указывает на действие, выполненное двумя или более субъектами. Образуется с помощью аффикса -(i)sh: ko'rishmoq – видеться, yozishmoq – переписываться, yuvishmoq – помочь мыть и т.д. Эта форма может указывать на то, что действие совершено несколькими субъектами: Bolalar sayrga chiqishdi – Дети вышли на прогулку; на то, что субъект помог другому в выполнении действия: Hadicha onasiga kir yuvishdi – Хадича помогла матери стирать. Аффикс -(i)sh является синонимичным аффиксу -lar (множественного числа): o'qidilar – o'qishdi, yozdilar – yozishdi.

Orttirma nisbat (понудительный залог) выражает действие, производимое субъектом через другое лицо. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: -t; -tir(dir); -gaz; -giz; -sat; -ar; -ir; -iz; Например: yoz-yozdir, ko'r-ko'rsat, sana-sanat, bit-bitir, chiq-chiqar, oq-oqiz и т.д. Salima yangi ko'ylak tikirdi – Салиме сшили новое платье.

В одной словоформе может быть несколько аффиксов залогов, в том случае он определяется по последнему аффиксу, образующему залог: yuvintirishdi – глагол взаимно-совместного залога.

Topshiriq. Gaplarni o'qing. Fe'llarning qaysi nisbatdaligini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Maktabimizda mingga yaqin o'quvchi o'qiydi. 2. Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi. 3. Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi. 4. Biz maktab bog'iga terak nihollarini o'tqazdik. 5. Akam bu yil institutni bitiradi. 6. Shahodat shirin hayollarga berildi. 7. Tohir shu kuni uzoq yo'lga otlandi.

Topshiriq. Fe'llarning mumkin bo'lgan nisbat shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bil, o'qi, tushun, top, tani.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы договорились с Нигорой о встрече. 2. Мои родители живут в Самарканде. 3. Я познакомлю тебя со своими однокурсниками. 4. Газета напечатана в типографии университета. 5. Сегодня мои родители возвращаются из командировки. 6. Сегодня мы собираемся в университетском клубе. 7. Данияр очень грамотно написал свою квалификационную работу.

Topshiriq. Maqollarning o‘zbekcha muqobilini ayting. Fe’l nisbatlarini tushuntiring.

1. Друзья познаются в беде. 2. Знание – сила. 3. Яблоко от яблони далеко не падает. 4. Куда большая телега, туда и маленькая. 5. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

Topshiriq. Fe’l nisbatlari yasalishiga doir misollar yozing.

UVAYSIY

(M. Qodirova)

Jahonotin – Uvaysiy lirik she’rlaridan iborat devon va bir necha dostonlar sohibasi bo‘lgan o‘zbek shoirlaridandir.

XIX- asrdagi taskira va tarix asarlarida shoiraning asli marg‘ilonlik bo‘lib, Qo‘qonga keyinchalik kelib qolgani hamda shoh saroyida Nodira bilan yaqin tutinib, bir necha muddat shu yerda yashaganligi aytiladi.

Jahonotin 60 yildan ko‘proq umr ko‘rgan. Uning qo‘lyozma devonlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida va Andijon Davlat pedagogika instituti fondlarida saqlanadi.

Shoiraning Navoiy, Fuzuliy g‘azallariga bog‘langan muhammaslari, naziralari, Bedil she’rlariga tatabbu’lari Uvaysiy iste’dodi balog‘atidan dalolat beradi. Uning ijodida insonni e‘zozlash, tabiat noz-ne‘matlaridan bahramand bo‘lishga undash, do‘stlik, vafo, sadoqatni ulug‘lash kabi motivlar kuylanadi.

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Uvaysiy uzoq vaqt muallimalik qilgan. Shoira talabalari uchun tez fikrlash, chiroyli so‘zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan chiston-topishmoqlar yaratgan. Uning anor haqidagi chistoni Uvaysiy ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Ul na gumbazdir eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,

Necha gulgun po‘sh qizlar anda aylabdir makon?

Sindurib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar.

Yuzlarida parda tortig‘liq turarlar – bag‘ri qon.

Uvaysiy merosi o‘zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan yillar, asrlar davomida yashab kelmoqda. Shoura she’rlari bugungi o‘quvchilarimizga ham katta zavq bag‘ishlaydi. Ular xalq orasida keng yoyilgan, Shashmaqom ohanglarida haligacha kuylanib keladi.

Lug‘at ishi

she’rlardan iborat

состоящей из стихов

sohib(a)	владелец
taskira	антология
yaqin tutunib	подружившись
bir necha muddat	некоторое время
muxammas, nazira, tatabbu'	жанры классической поэзии
iste'dod	талант
balog'at	совершенство
dalolat beradi	свидетельствует
noz - ne'mat	дар
undash	призывать, призыв
gumbaz	купол
tuynuk	здесь: окно
gulgun	красивый
aylabdir makon	поселились
holidin xabar olsam	справилась об их состоянии
yuzlarida parda tortiq	на лице вуаль
bag'ri qon	грустный

55 - mashg'ulot Suhbat

- Kechirasiz, shu yaqin o'rtada gul bozori bormi?
- Ha, to'g'riga 50-60 metr yurib, o'ngga burilsangiz, gul bozoriga ko'zingiz tushadi.
- U yerda gullar ko'p bo'ladimi? Men chiroyliroq guldasta olmoqchi edim.
- Unday bo'lsa, erinmasdan yana ikki bekatcha joyga yurishingizga to'g'ri keladi. Buyuk Ipak yo'li metro bekati yonida katta gul bozori bor.
- Ha, bilaman. Rahmat.
- Bozoringizni bersin.

RAVISH (Наречие)

Наречие – часть речи, обозначающая признак действия, качества, реже предмета.

В узбекском языке наречия делятся:

1. Holat (tarz) ravishlari – наречия образа действия
2. Payt ravishlari – наречия времени
3. O'rin ravishlari – наречия места
4. Maqsad ravishlari – наречия цели
5. Daraja-miqdor ravishlari – наречия меры и степени
6. Sabab ravishlari – наречия причины

Наречия образа действия отвечают на вопросы qanday? – как?, qanday qilib, qay tarzda? – каким образом? и указывают на способ совершения действия. К ним относятся: jim (спокойно), to'satdan (вдруг), tez (быстро), sekin (медленно), uyov (пешком), ketma-ket (вслед), astoydil (от души) и т.д.

Наречия времени отвечают на вопросы: qachon? – когда? qachongacha – до каких пор? qachondan (beri) – с каких пор? Обозначают время совершения действия: bugun (сегодня), indinga (послезавтра), o'tgan yili (в прошлом году), oyda-yilda (изредка), kechasi (ночью) и т.д.

Наречия места отвечают на вопросы: qayerda? – где?, qayerga? – куда?, qayerdan? – откуда?, qayergacha? – до куда?

Обозначают место совершения действия: oldinda (впереди), olisda (в дали), olisdan (издали), yuqoriga (вверх) и т.д.

Наречия цели ограничены в количестве: ataylab, jo'rttaga, atay, atayin (нарочно, специально).

Так же ограничены в количестве наречия причины: noiloj, ilojsizlikdan, chorasiz, chorasizlikdan (находясь в безвыходном положении).

Наречия меры могут указывать как на количество действия, так и на количество предмета: ko'p (много), kam (мало), ancha (много), jindak (мало) и т.д. Наречия степени указывают на степень как действия, так и признака: eng (самый), juda (очень), a'lo (отлично), zo'r (прекрасно) и т.д.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Ravishlarning ma'no turini ayting.

1. Don daryosi jimgina oqardi. 2. Anvar ohista yiqildi. 3. Akam ozgina kech qoldilar. 4. Gapni oz so'zla ishni ko'p ko'zla. 5. U birpas jim qoldi. 6. Ilgari men o'zbek tilini bilmas edim. 7. Tonggi shabada dilga juda yoqadi.

Topshiriq. Ravishlar ishtirokida gaplarni tuzing.

Hozir, ertalab, tinmasdan, bexosdan, do'stona, ilojsiz.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Айбек спокойно воспринял эту новость. 2. Озода очень хотела поступить в университет. 3. Беседа продолжилась до самого утра. 4. Послезавтра мы все едем в горы. 5. Иногда мы собираемся со своими бывшими одноклассниками.

Lug'at ishi

kechroq	позже
saharlab	с утра
igna	игла
shaftoli	персик
qo'lda tersang	если соберешь в ручную (руками)
zaha bo'ladi	здесь: потеряет качество
chuchvara	пельмени
qon bosimi	давление (артериальное)
kelgusi	будущий

Topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini o‘z so‘zingiz bilan aytib bering.

QARI BILGANNI PARI BILMAS

Dam olish kuni edi. Kechroq turdim. Ayvonda buvim ko‘rinmadilar. U yoq-bu yoqqa qaradim. Topdim. Bog‘da ekanlar. Qiziq, buvijonim saharlab bog‘da shaftoli daraxti yonida turibdilar. Nima qilyaptilar ekan, deya kuzata boshladim... tushunmadim. Yaqinroq bordim. Qarasam, qo‘llaridagi ignaning uchida shaftoli gulidan terib kosachaga solyaptilar. Hayron bo‘ldim.

- Buvilon, nima qilyapsiz?

Buvim shu qadar berilib ketgan ekanlar, avval menga qaramadilar ham, so‘ngra:

- Voy, bolajonim-ey, qachon kela qolding? Sezmabman-ku. Ha, shaftoli gulidan teryapman,- dedilar.

- Men ham terishaymi? – deb shaftoli daraxti tagiga o‘ta boshladim. - Nima qilasiz?

- Yo‘q, yo‘q, qizim. Qo‘lda tersang, zaha bo‘ladi. Aylanay sendan. O‘zim, o‘zim avaylab, bilib-bilib teraman. Keyin buni chuchvara qilamiz. Shu desang, qon bosimim yana ko‘tarilib ketibdi. Buning foydasi juda ko‘p- da, bolam,- dedilar shaftoli gullariga ishora qilib. - Har yili bahorda bir-ikki shunaqa chuchvara qilib yeb turaman. Ancha foydasi tegadi, bolajonim!..

Buvijonim bilan bog‘dan qaytar ekanmiz, shaftoli gulidan tayyorlanadigan taomni tushuntirib berdilar... Ha, qari bilganni pari bilmas, deb shuni aytsalar kerak. Kelgusi bahorda, xudo xohlasa, buvijonimga shunday taomni o‘zim tayyorlab beraman.

Topshiriq. Matnga reja tuzing. Shu reja asosida bayon yozishga tayyorlaning.

56 - mashg‘ulot Suhbat

- Yo‘l bolsin, Akram?
- Do‘konga ketyapman.
- Bozor - o‘chargami?
- Ha, bahor yaqinlashyapti. Bir – ikkita narsa olishim kerak.
- Qaerga bormoqchisan?
- “Toshkent” univermagiga. Odatda, u yerda kiyim-kechak tanlash imkoniyati katta bo‘ladi.
- Balki, men bilan bozorga borarsan. Chorsuga ketyapman. U yerda ham kiyim - kechak ko‘p bo‘ladi.
- Borsak bo‘ladi. Tanlashga yordam ham qilasan.
- Albatta, ketdik.

RAVISHLARNING YASALISHI

(Образование наречий)

Наиболее активны следующие аффиксы, образующие наречия:

- cha**: yaxshilikcha (по-хорошему), o'zbekcha (по-узбекски);
- larcha**: bolalarcha (по-детски), mardlarcha (мужественно);
- chasiga**: dehqonchasiga (по дехкански), yigitchasiga (по мужески);
- sig**: tikkasiga (по вертикали), ko'tarasiga (оптом);
- ona**: qahramonona (героически), do'stona (дружески);
- lab**: oyulab (месяцами), yillab (годами);
- an**: majburan (насильно), tasodifan (случайно);
- siz**: to'xtovsiz (беспрерывно), tinimsiz (неустанно).

В образовании сложных наречий активно участвуют слова har, hech, bir: har qachon (всегда), har vaqt (всегда), hech mahal (никогда), biroz (немного), bir yo'la (сразу) и т.д.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. U biroz o'ylanib qoldi-da, keyin uyi tomon yo'l oldi. 2. Yaxshilikcha kelmasang, o'zim seni sudrab olib kelaman. 3. Qayoqqa qaramang, xalqimiz fidokorona mehnat qilmoqda. 4. U o'zi ustida tinimsiz ishlaydi.

Yodda tuting: Некоторые разряды наречий имеют степени сравнения: tez – tezroq – juda tez; ko'p – ko'proq – juda ko'p.

Наречия также имеют свойство переходить в имена существительные: Ko'pdan quyon qochib qutulmas (maqol). - Сила в единстве. Ko'pni ko'rgan ko'p biladi. – Кто много повидал, тот много знает (буквально) и т.д.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Неожиданно грянул гром, и пошел дождь. 2. В будущем году мы надеемся на большой урожай риса. 3. Ташкент всегда привлекал иностранных туристов. 4. Я никогда не видел такого прекрасного пейзажа. 5. Туристы очень интересовались историей города.

REKTOR

Bahrom G'ofurovich Qodirov – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor, universitet jamoasi sardori, sinchkov va talabchan rahbar, bag'ri keng ustoz.

Olim 1957- yilda Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat institutiga o'qishga kiradi va 1962- yilda uni tamomlab, injener – texnolog diplomiga ega bo'ldi.

Mehnat faoliyatini viloyat paxta tozalash zavodlaridan birida boshlagan Bahrom G'ofurovich 1967 – 1970 – yillarda shu institut qoshidagi aspiranturada o'qib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning keyingi faoliyati oily ta'lim sohasi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. 1980 – 1987 yillarda Bahrom G'ofurovich Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori lavozimida faollik ko'rsatdi.

1987 – yilda O'zbekiston hukumati B. Qodirovni Moskvaga Oily va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ishga yuboradi. Ikki yil davomida o'quv – metodik bosh boshqarma boshlig'ining o'rinbosari lavozimida ishlagach, yana Toshkentga qaytadi va respublika Oily va o'rta maxsus ta'lim vazirligida mas'ul vazifalarda faoliyat yuritadi. 1988 – yildan O'zbekiston xalq ta'limi vazirligining oily ta'lim bosh boshqarmasi boshlig'i, 1992 – 1994-yillarda respublika xalq ta'limi vazirining o'rinbosari lavozimida faol ish olib boradi.

1994 – yilda Bahrom G'ofurovich Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga rektor qilib tayinlanadi. Shu yilning o'zida Kostroma shahri Texnologiya institutida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ladi. 1998- yilda esa unga professor ilmiy unvoni beriladi.

Taniqli olim 140 dan ziyod ilmiy maqola, darslik va qo'llanmalar, 30 ga yaqin ixtiro – yangiliklar muallifi, 10 dan ortiq fan nomzodi tayyorladi.

Toshkent Davlat Pedagogika institutiga universitet maqomi berilishida ham Bahrom G'ofurovich Qodirovning xizmatlari kattadir.

O'zbekiston hukumati Bahrom G'ofurovich Qodirovning barakali mehnatlarini munosib baholab, uni “Hurmat belgisi” ordeni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Faxriy yorlig'i, VDNX ning oltin medali bilan taqdirladi.

57 - mashg'ulot

Suhbat

- Siz darslikdagi matnlarni lug'atsiz tushuna olasizmi?
- Ha, ba'zilarini lug'atsiz o'qiy olaman.
- O'zbekcha gazeta va jurnallarni o'qiysizmi?
- Ha, biroq o'qiganlarimni avval lug'at yordamida tarjima qilib, keyin mazmunini tushunishga harakat qilaman.
- O'zbek tilida badiiy adabiyotlar o'qiysizmi?
- O'rta maktab yoshi uchun nashrlarni o'qiyman. Shunda ham lug'at zarur bo'ladi.
- Shunday bo'lsa ham ko'proq, o'qish kerak. Til o'rganishingizda bu sizga katta yordam bo'ladi.
- Ha, albatta.

YORDAMCHI SO'ZLAR

(Служебные слова)

Служебные слова служат для грамматической связи самостоятельных частей речи. К ним относятся: bog‘lovchi (союзы), ko‘makchi (последологи), yuklama (гостицы).

BOG‘LOVCHILAR (Союзы)

Союзы – служебные слова, связывающие однородные члены предложения или части сложного предложения.

Они делятся на сочинительные (teng) и подчинительные (ergashtiruvchi).

Сочинительные союзы связывают равные грамматические компоненты: однородные члены предложения, а также части сложносочиненных предложений. Они делятся на три группы:

biriktiruvchi bog‘lovchilar - сочинительные союзы: va, ham, hamda (и, тоже).

Zidlov bog‘lovchilari - противительные союзы: ammo, lekin, biroq (но, однако).

Ayiruv bog‘lovchilari - разделительные союзы: yoki, yohud (или); goh, dam, ba‘zan (то). Они часто употребляются повторно.

Подчинительные союзы служат как для связи членов предложения, так и для связи частей сложноподчиненного предложения. К ним относятся: -ki, chunki, negaki, go‘yo, agar, shuning uchun, toki (потому что, чтобы, так как).

Topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Карим и Назир учатся в одной группе. 2. Ходить было трудно, так как шел дождь. 3. Не сетуйте на жизнь, ибо она полна тревог и забот. 4. То шел снег, то переходил в дождь. 5. Сегодня дежурят Икбол или Саида.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Adham goh kulib, goh yig‘lab, bo‘lgan voqeani aytib berdi. 2. Tohir yoki Anvar kelganida, shu ishni ularga topshirardik. 3. Shamol oldindan esardi, shuning uchun yurish qiyin bo‘ldi. 4. Nodira ham, Noiba ham faqat a‘lo baholarga o‘qiydi. 5. Unga gaplarimni yetkazing, toki bekorga kutib yurmasin.

Lug‘at ishi

ko‘kalamzor	зеленый
marmar hovuz	мраморный бассейн
taniqli	знатный
g‘oyat go‘zal	очень изумный
o‘lmasligi	бессмертие
to‘la	полный, в полном объеме
taqdim etish	представить
ixlosmand	почитать, любитель
tashrifchi	посетитель

Topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

ADABIYOT MUZEYI

1968- yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk Navoiyga, uning ilodiga bo'lgan muhabbatiga yorqin misoldir.

Muzey sahnidagi ko'kalamzor, gulzor bog'da Navoiy haykali o'rnatilgan. U marmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ilodkorlarning byustlari qo'yilgan.

To'rt qavatli ko'rkam binoga kiriladigan ikki katta eshik g'oyat go'zal ishlangan.

Muzeyning "Navoiy Astrabodda", "Navoiy Hirotida", "Navoiy Samarqandda", "Navoiy lirikasi" deb nomlangan zallarida Navoiyning buyukligi o'z asarlarining o'lmasligi aks ettirilgan. Umuman, Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olimlarning ijodiy me'rosini yoritish uchun muzeyda o'n uchta bo'lim ajratilgan.

Navoiydan keyingi ijodkorlar va ularning asarlarini yoritishga bag'ishlangan materiallar 22 bo'limda to'la aks ettirilgan.

XX- asr o'zbek adabiyotiga oid noyob materiallarni binoning to'rtinchi qavatidagi 13 bo'limda ko'rish mumkin. Muzey xodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o'zbek adabiy merosini yig'ish va ularni adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallarni qiziqib o'rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Topshiriq. Adabiyot muzeyiga tashrif buyurib, u yerdan olgan taassurotlaringizni hikoya qilib bering.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Adabiyot muzeyi shahrimizning qayerida joylashgan? 2. U yerda qanday tarixiy materiallar joylashgan? 3. Navoiy nomi bilan ataladigan yana qaysi muassasa, tashkilot va joylarni bilasiz? 4. Shahrimizdagi shoir va yozuvchilar uy-muzeylaridan qaysilarida bo'lgansiz? 5. Yana qaysi muzeylarni bilasiz?

58 - mashg'ulot Suhbat

-Shahrimizdagi qaysi muzeylarni bilasiz?

-Men Temuriylar tarixi muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, San'at muzeyi, Shahidlar xotirasi maydonidagi muzeylarni bilaman.

-Uy- muzeylardan-chi?

-O'rol Tansiqboyev, Muxtor Ashrafiy, Oybek uy- muzeyilarida bo'lganman.

- Ular sizda qanday taassurot qoldirdi?

- Har gal muzeyga borganimda xalqimizning boy tarixi va madaniyatidan iftixor tuyg'usini his etaman. Qolaversa, ularning me'moriy yechimi, ayniqsa, istiqlool yillarida qurilgan muzeylarning ko'rkamligidan lol qolaman.

КО'МАКЧИ

(Послелого)

Послелого – служебные слова, связывающие имена существительные и слова, употребляемые вместо них с другими частями речи, особенно с глаголом. Они выражают условные, причинные, временные пространственные, направительные и другие отношения между именами или между субъектом и предикатом.

Послелого в узбекском языке делятся на:

1. **Asl ko'makchilar** (собственно послелого): bilan (с), uchun (для), kabi (как), singari (как), go'yo (будто) и др.

2. **Ot ko'makchilar** (отыменные послелого): tomon (в сторону), ilgari (прежде), yonida (рядом), ichida (внутри, среди) и тд.

3. **Fe'l ko'makchilar** (отглагольные послелого): ko'ga (по сравнению), yarasha (по), boshlab (с, начиная), qaraganda (по отношению).

Так же послелого разделяют на группы исходя из того, со словами в каком падеже они употребляются.

Со словами в bosh kelishik употребляются послелого:

bilan: non bilan (с хлебом), akasi bilan (со старшими братом), qo'li bilan (руками, вручную), qalam bilan (карандашом); kechasi bilan (всю ночь), chiqishi bilan (как только вышел);

uchun: ukam uchun (для моего младшего брата), yozish uchun (для письма, чтобы написать), sovuqligi uchun (так как было холодно), kelganingiz uchun (за то, что пришли) и т.д.

kabi: olmos kabi (как алмаз), men kabi (как я);

sayin: kun sayin (с каждым днем), yil sayin (с каждым годом);

sababli betoblighi sababli (так как был болен, из-за болезни);

orqali: pochta orqali (через почту), telefon orqali (по телефону);

bo'ylab, yoqalab: yo'l bo'ylab (по дороге), daryo yoqalab (вдоль по речке);

Со словами в qaratqich kelishigi употребляются;

tomon: uyiga tomon (в сторону дома, домой), kechga tomon (ближе к вечеру);

ko'ra: shunga ko'ra (поэтому), tuzilishiga ko'ra (по строению), ma'nosiga ko'ra (по смыслу);

qarshi: shamolga qarshi (против ветра);

qarab: qishloqqa qarab (в сторону села);

qaramay, qaramasdan: shunga qaramay (не смотря на это);

Со словами в chiqish kelishigi употребляются:

so'ng, keyin: shundan so'ng (после этого);

burun, avval: undan avval (до того), bormasdan avval (прежде чем поехать, до того как поехать);

Yodda tuting: Послелог bilan может употребляться вместо соединительных союзов. Karima va Salima – Karima bilan Salima.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Biz o'z tariximiz bilan faxrlanamiz. 2. Asfalt xo'l bo'lgani uchun mashinalar sekin yurardi. 3. Aziza bu ko'ylakni ukasi uchun sotib olgandi. 4. Har kim mehnatiga yarasha daromad qiladi. 5. Daryo bo'ylab ohista suzib borardik. 6. Dengiz ko'lga qaraganda chuqur. 7. Biz uydagilar bilan telefon orqali gaplashdik.

Topshiriq. Ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

Kabi, qaramay, burun, keyin, so'ng, ichida, oldida, yonida.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Тахир ушел вместе с Бобуром. 2. Не смотря на дождь стадион был полон болельщиками. 3. Мне трудно писать чернилами, лучше напишу авторучкой. 4. Как только я пришел домой, мать приготовила ужин. 5. Так как было пасмурно, мы отложили поездку в горы.

Lug'at ishi

xalq og'zaki ijodi	фольклор
shaklan	по форме
mujassam bo'ladi	содержится
ajdodlar	предки
bebaho	бесценный
hikmatli ibora	поучительная фраза, афоризм
uch jildlik lug'at	словарь в трех томах
farq qilmaydi	не отличается
masal	басня
tavsiflamoq	описать, охарактеризовать
tushuncha	понятие

Topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

O‘ZBEK MAQOLLARI

Maqol xalq og‘zaki ijodiga oid janrlardan biri sanaladi. Maqollar shaklan qisqa bo‘lgani bilan ularda juda keng ma’no mujassam bo‘ladi.

Tilimizning bu bebaho boyligini o‘rganish bilan ajdodlarimiz qadimdan shug‘ullanib kelganlar. Mashhur qomusshunos Mahmud Qoshg‘ariy XI- asrdayoq turkiy xalqlarning 400 ga yaqin hikmatli iborasini o‘zining uch jildlik lug‘atiga kiritgan. Ularning 250 dan ortiqrog‘i shakl va mazmuniga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagidan farq qilmaydi.

Mashhur masalchi Gulxaniy (XIX asr) 200 ga yaqin hikmatli iborani to‘plab, ularni bir tizimga jamlab, “Zarbulmasal” asarini yaratgan.

Adabiyotshunos olimlarimiz “O‘zbek xalq maqollari” kitobida 1800 ta maqolni 31 mavzuga ajratib tavsiflashgan.

Olimlarning aniqlashicha, har bir kishi taxminan 800 ga yaqin maqol va matallar haqida tushunchaga ega bo‘lar ekan. Siz-chi? Siz qancha maqolni bilasiz?

Topshiriq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntirib bering.

1. Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan. 2. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursangm, qolarsan uyatga. 3. Bellashsang, mard bilan bellash.

Topshiriq. “O‘zbek maqollari” matniga reja tuzib, shu reja asosida bayon yozishga tayyorlaning.

59 - mashg‘ulot Suhbat

- Siz o‘zbek xalq afsonalari va rivoyatlari bilan tanishmisiz?
- Rosti, faqat bir-ikkita rivoyatni bilaman, ularni ham rus tilida o‘qiganman.
- Ular nima haqida?
- Ular mard cho‘pon Shiroq, Navoiy haqida rivoyatlar.
- Nima, siz ularga qiziqmaysizmi?
- Nega endi. Shunchaki o‘qishga qiynalardim. Endi o‘zbek tilini yaxshi bilib olgach, albatta o‘qiyman.
- Qaysi dostonlarni bilasiz?
- “Tohir va Zuhra”, “Abu Muslim jangnomasi” dostonlari haqida eshitganman.
- Siz o‘zbek adabiyotini ko‘p o‘qishingiz kerak ekan.
- To‘g‘ri aytasiz.

YUKLAMA (Частицы)

Частицы – служебные слова, придающие предложению или отдельным словам различные дополнительные значения.

Частицы делятся на две группы:

1. **Yuklama-so‘z** (слова-частицы): *hatto* (даже), *faqat* (только), *xolos* (всего, только) *ham* (тоже), *nahot (ki)* (неужели), *xuddi* (точно);

2. **Yuklama - qo‘shimcha** (частицы-аффиксы): *-mi*, *-chi*, *-a(ya)*, *-ki*, *-da*, *-oq* –(*yoq*) и т.д.

Частицы придают слову или предложению значение утвердительное, отрицательное, ограничительное и т.д.

1. **So‘roq va taajjub yuklamalari** (вопросительные частицы): *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya*. *Dadang keldilarmi?* Отец приехал. *Oying-chi?* -А мама? *Oh, qanday so‘lim kecha-ya!* - Ах, какой прекрасный вечер!

2. **Kuchaytiruv va ta‘kid yuklamalari** (усилительные и утвердительные частицы): *-ki*, *ham*, *-u*, *-u*, *-da*, *-oq*, *-yoq*, *-ku*, *-kim*. *Bugun oq* - сегодня же, *aytdim-k* - сказал же, *bitta ham (yo‘q)* - ни одного (нет), *yoqda ham* - даже летом.

3. **Ayiruv-chegaralov yuklamalari** (разделительные и разграничительные частицы): *-gina*, *xolos*, *faqat*. *Faqat bitta* - только один, *ikkitagina* - всего два, *shu uchun xolos* - только для этого.

4. **Inkor yuklamasi** (отрицательная частица) – *na*. *Na sen kelding, na men bordim*. - Ни ты не пришел, ни я не пошел.

5. **Aniqlov yuklamalari** (уточняющие частицы) *xuddi*, *naq*: *xuddi kechagiday* - точно как вчера.

Все частицы – аффиксы за исключением *-mi*, *-oq*, *yoq*, *-gina* пишутся через дефис, а перечисленные слитно.

Частица *-u (yu)* может употребляться вместо сочинительных и противительных союзов: *ota-yu ona* - отец и мать, *yoqdi-yu o‘qimadi* – написал, но не прочел.

Topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *Shu ham ish bo‘ldi-yu!* 2. *O‘tgan kuni xuddi shu erda katta majlis qilindi*. 3. *Tog‘larda hatto yoq oylarida ham yomg‘ir yoq‘adi*. 4. *Sizni ranjitib qo‘ymadimmi?* 5. *Seni bir dam tutmoqqa endi, na haqqim bor, na huquqim bor*. 6. *Men-k bundan bexabar edim, sen-chi?* 7. *Ertagayoq Marg‘ilonga jo‘naymiz*.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. А ты, ты- то о чем думал? 2. Тут же приехала машина скорой помощи. 3. Ведь мы с тобой не встречались целый год! 4. Даже летом он не снимал с головы свою шапку. 5. Наконец-то я увидел тебя!

Lug‘at ishi

bosh muharrir	главный редактор
nashriyot	издательство
faoliyat yuritib kelmoqda	работает
jamoat arbobi	общественный деятель
hozirda	в настоящее время

Topshiriq. “Erkin Vohidov” matnini o‘qing va so‘zlab bering.

ERKIN VOHIDOV

O‘zbekiston xalq shoiri va O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936- yili Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida tug‘ilgan.

Taniqli shoir va jamoat arbobi ToshDUning filologiya fakultetini 1960- yilda tugatgan.

U “Yosh gvardiya”, G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotlarida bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlagan.

Shoirning “Tong nafasi” (1961), “Yurak va aql” (1963), “Mening yulduzim” (1964), “Lirika” (1965), “Yoshlik zavoli” (1968), kabi o‘nlab kitoblari nashr qilingan. “Oltin devor” komediyasi hozirgacha teatr sahnasidan tushmadi.

Hozirda sevimli shoirimiz O‘zbekiston Oliy Majlisida qo‘mita raisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

60 - mashg‘ulot Suhbat

- O‘zbek tilida nechta so‘z turkumi bor?
- O‘zbek tilida 6 ta mustaqil va 3 ta yordamchi so‘z turkumi bor.
- Ular rus tilidagidan farq qiladimi?
- Deyarli yo‘q, faqat ko‘makchilar o‘rnida rus tilida vazifasi ularga mos keladigan predloglar qo‘llaniladi.
- Umuman, har ikki tilning farqli tomonlari ko‘pmi?
- Menimcha, o‘xshash jihatlari ko‘proq, lekin gap qurilishida jiddiy farqlar bor.
- Siz o‘zbek tilini o‘rganishda qiynalmadingizmi?
- Boshida biroz qiynalдим. Hozir ancha yengil bo‘lib qoldi.
- Sizga muvaffaqiyat tilayman.
- Rahmat. O‘zingizga ham omad yor bo‘lsin.

SO‘ZLARNING ALOHIDA GURUHLARI

(Особые группы слов)

В узбекском языке имеются три особых групп слов:

Modal so‘zlar (модальные слова), undovlar (междометия), taqlidiy so‘zlar (подражательные слова).

MODAL SO‘ZLAR

Модальные слова, указывая отношение говорящего к высказываемой мысли, могут выражать:

- уверенность: albatta (обязательно), shubhasiz (несомненно), haqiqatan (ham) (и вправду);
- сомнение: ehtimol (возможно), balki (может быть), aftidan (по видимому), chamasi (кажется);
- цель, условие: kerak (надо), lozim (нужно), zarur (необходимо);
- отрицание: yo‘q (нет);
- сожаление: afsus, attang, esiz (жаль, к сожалению);
- источник мысли: meningcha (по-моему).

UNDOVLAR

Междометия – слова, употребляемые для передачи различных чувств или волевых побуждений: e, eh, ey, oh, uh, o‘ho‘, voh и т.д.

Особую группу образуют междометия, служащие для призыва и отгона животных: tu-tu-tu, beh-beh, pish-pish, kisht, po‘sh and т.д.

TAQLIDIY SO‘ZLAR

Подражательные слова представляют собой словесное воспроизведение различных звуковых явлений, так же подражание некоторым действиям: yalt-yalt (к сверканию), taqir-tuqir (стуку колес), lip (быстрому движению) и т.д.

В узбекском языке много глаголов образованных именно от подражательных слов: pichirlamoq (щептать), taqillamoq (стучать), g‘ichirlamoq (скрипеть), yaltiramoq (сверкать), qiqirlamoq (хихикать) и т.д.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ах, как мне нравится эта лилия! 2. По вашему, я ошибаюсь? 3. Несомненно, это был лучший матч «Пахтакор»а в этом сезоне. 4. Издали послышался скрип арбы. 5. Ох, как же я мог забыть. 6. Неужели, этого не может быть.

Topshiriq. Berilgan undov, modal, taqlidiy so‘zlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Voy, voy-bo‘, xayriyat, shekilli, taqir-tuqir, yalt-yalt.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Tarixchilarning bayon etishicha, sayyoramizdagi ilk hayvonot bog‘i eramizdan avvalgi I- asrda Rim imperatori Avgust buyrig‘iga binoan tashkil etilgan. Unda yer yuzining turli burchaklaridan keltirilgan 3500 atrofida jonivor saqlangan.

Lug‘at ishi

kun sayin	с каждым днем, изо дня
	в день
chiroy ochib bormoqda	хорошеет
qad rostlayotgan	возводимые
husniga husn baxsh etmoqda	придают особую красоту
mehmonlar e'tiborini tortmoqda	привлекает гостей
tashabbus	инициатива
ziyoratgoh	место поклонничества
ishga tushirish	пуск в строй
yanada	более

Topshiriq. Yangi soʻz va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Topshiriq. Matnni oʻqing. Uni toʻldiring.

SERQUYOSH POYTAXTIM

Mustaqil Oʻzbekistonning serqoʻyosh poytaxti -- Toshkent kun sayin chiroy ochib bormoqda.

Shahar koʻchalari kengaytirilib, yangi yoʻllar, koʻpriklar qurilmoqda, bogʻlar barpo etilmoqda.

Shaharda qad rostlayotgan binolar uning husniga husn baxsh etmoqda. Ayniqsa, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Milliy drama teatri binosi, Milliy bank, yangi konservatoriya binosi shahar mehmonlari eʼtiborini tortmoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Xotira maydoni va Shahidlar xotirasi xiyoboni xalqimisning ziyoratgohlariga aylanib ulgurdi.

Toshkent metrosining Yunusobod yoʻli ishga tushirilishi yana bir ajoyib voqea boʻldi.

Umuman, istiqlol yillarida Toshkent yanada chiroy ochib bormoqda.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Toshkent qaysi yili oʻzining 2000 yillik toʻyini nishonlagan? 2. Toshkent metrosi nechanchi yili ish boshlagan? 3. Toshkent teleminorasining balandligi qancha? 4. Toshkentda nechta tuman mavjud? 5. Toshkentdagi yangi qurilgan inshootlardan qaysilarni bilasiz? 6. Toshkentda bu yil qanday yirik anjuman, sport bayrami, musobaqalar boʻlib oʻtdi? 7. Toshkentdagi madaniy muassasalardan qaysilarini ayta olasiz? 8. Poytaxtimiz haqida yana nimalarni bilasiz?

61 - mashgʻulot SINTAKSIS

Sintaksis - раздел языкознания, изучающий словосочетания и предложения. В нем рассматриваются формы и типы предложений, структура словосочетаний и связи слов в предложении.

В синтаксисе изучается и слово, но оно изучаются не как лексическая единица или часть речи, а как тот или иной член предложения.

GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI

(Связь слов в предложении)

В узбекском языке различают два типа синтаксической связи: **teng bog‘lanish** (сочинительная связь) и **tobe bog‘lanish** (подчинительная связь).

TENG BOG‘LANISH

Сочинительная связь – это связь равноправных, независимых синтаксически слов.

Сочинительная связь осуществляются с помощью: сочинительных союзов: Akmal **va** Ozod, yozdi, **lekin** o‘qimadi, Anvar **yoki** O‘ktam; слов, употребляемых вместо сочинительных союзов: bo‘ri **bilan** qo‘zichoq (волк и ягненок), ota-**yu** ona, keldi-**yu**, ishlamadi; интонации перечисления: olma, o‘rik, shaftoli.

Слова, соединенные сочинительной связью являются однородными членами предложения. Bog‘imizda atirgul, chinnigul, binafshalar o‘sadi -- В нашем саду растут розы, гвоздики, фиалки. Bugun Anvar yoki O‘tkir navbatchilik qiladi. – Сегодня дежурят Анвар или Уткур.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Ona bilan bola – gul bilan lola (maqol). 2. Har birimiz a’lo o‘qish va halol mehnatimiz bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shaylik. 3. Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy g‘azallarini sevib o‘qiymen. 4. Tohir, Adham va G‘ofur barcha fanlardan a’lo baholar olishdi. 5. Yig‘ilganlarga palov va sumalak tortildi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qilib, bog‘lovchi vositalarni izohlang.

1. Чтобы хорошо знать узбекский язык много читаю, пишу и перевожу. 2. На собрании высказали свое мнение Акрам, Хадича и Наргиза. 3. В нашем университете работают факультеты практических психологов и повышения квалификации учителей. 4. Самиг ушел в магазин со своим братом Акмалем. 5. Хлопок, пшеница, овощи – все это мы выращиваем в школьном опытном хозяйстве.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

NIMA UCHUN ONA TABIAT DEYMIZ?

Tabiat odamni asraydi, boqadi, ko‘nglini ko‘taradi, charchog‘ini yozadi. Chunki u ona tabiatdir. Odam shu havodan nafas oladi, unib o‘sishi uchun oziq-ovqat, suv, havo, quyosh kerak, uni inson shu tabiatdan oladi. Odam onadan tug‘ilib tabiatda o‘sadi, ulg‘ayadi. Shuning uchun uni ona tabiat deymiz.

Lug‘at ishi

...dan farqli o‘laroq	В ОТЛИЧИИ ОТ...
sana	дата
ishonchli	верный (надежный)
rivoyatchi	сказатель
mutolaa qilmoq	читать
musofir (chilik)	приезжий (чужбина)
odamoxunlik	человечность
o‘zni tiymoq	воздерживаться
yo‘l-yo‘riq	напутствие
o‘git	совет

Topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing.

IMOM AL BUXORIY

Al-Buxoriy 810- yil 20- iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko‘pgina olimlardan farqli o‘laroq al-Buxoriy tug‘ilgan sana aniq ko‘rsatilishiga sabab shuki, uining otasi Ismoil o‘z davrining ilmi odamlaridan bo‘lib, o‘g‘lining tug‘ilgan kunini o‘z qo‘li bilan yozib ketgan qog‘oz, ishonchli qo‘llarda qolgandi. Yoshligidayoq otasi o‘lib, onasining tarbiyasida qoladi. U o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan.

Imom al-Buxoriy hayotining ko‘p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o‘tadi.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal hulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, hikmatligi va beqiyos sahovatligi bilan boshqalardan ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, ularning soni 20 dan ortiq. Ularning ichida eng mashhuri -- «Al-jome as-sahih». Uning yaratilganiga 1200 yil bo‘ldi, o‘shandan beri u Islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi va muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bu asarning 1325 yilda ko‘chirilgan sakkiz jilddan iborat go‘zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlamnoqda. Bu kitobda nima yaxshi, nima yomon, nimadan o‘zni tiymoq lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z Vatani -- Buxoroda ko‘plab shogirdlariga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Lekin bir kuni Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy olimdan huzuriga kelib «Al-jome as-

sahih», «At-tavorix» kitoblarini o'qib berishini talab qiladi. Lekin al-Buxoriy bormaydi. Shunda amir shaharni tark etishini buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandning Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashaydi. Keyinchalik esa og'ir kasalga chalinib, 870- yil 1- sentyabrda 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

62 - mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

- Sizlarda eng kuchli futbol jamoasi qaysi?
- Bu yil qanday xalqaro uchrashuvlar bo'lib o'tdi?
- Jamoaning yetakchi o'yinchilari kimlar?
- Hozir jamoa nechanchi o'rinda?
- Yana qaysi jamoalar o'yini sizga yoqadi?
- Nima uchun?
- Xorijiy jamoalardan qaysisiga muxlislik qilasiz?

TOBE BOG'LANISH

(Подчинительная связь).

При подчинительной связи одно слово называется **bosh so'z** (главное слово), другое **ergash so'z** (придаточное слово). Придаточное (зависимое) слово поясняет значение главного слова. Подчинительная связь бывает трех видов: moslashuv (согласование), boshqaruv (управление), bitishuv (примыкание).

MOSLASHUV

При согласовании зависимое слово ставится в том же числе и лице, что и главное.

В узбекском языке согласование возможно только между подлежащим и сказуемым (так как это предикативное отношение как словосочетание оно не рассматривается), а также между словом в родительном (притяжательном) падеже и словом зависящим от него: kitobning varag'i, dadamning xonalari. В узбекском языке слова согласуются в лице и числе (не всегда). Этой связи служат аффиксы падежа и принадлежности. Но они могут быть пропущены: maktab bog'i, bizning ko'cha, sizning mahalla.

BOSHQARUV

При управлении главное слово требует постановки зависимого в определенной форме. Управление бывает двух типов:

1. **Fe'l boshqaruvi** (глагольное управление), главное слово выражено глаголом: g'ishtdan qurilgan, akasi bilan ketmoq.

2. **Ot boshqaruvi** (именное управление), главное слово выражено любой частью речи, за исключением глагола: *otdan baland hayvon, dengizdan chuqur ko‘l, mehnatga yarasha daromad*.

В зависимости от средства связи различают:

1. **Kelishikli boshqaruv** (падежное управление): *o‘qishga ketmoq, uydan baland*.

2. **Ko‘makchili boshqaruv** (последовое управление): *akasi uchun olmoq, daromadga qarab buromad*.

BITISHUV

Примыкание - это способ подчинительной связи, где главное и придаточное слова не принимают морфологического показателя. В узбекском языке имеет значение порядок слов. Придаточное всегда идет перед главным словом: *issiq non* (горячий хлеб), *shirin so‘z* (ласковое слово). Если нарушится порядок слов, то получится простое нераспространенное предложение. Сравните: *sovuq havo* - холодный воздух. *Havo sovuq* – Воздух холодный (Холодно.).

В узбекском языке примыкание возможно между:

- прилагательным и существительным: *chiroyli gul*;
- существительным и существительным: *temir eshik*;
- числительным и существительным: *birinchi muhabbat*;
- местоимением и существительным: *hamma o‘quvchilar*;
- причастием и существительным: *o‘qigan bola*;
- наречием и существительным: *ko‘p kitoblar*;
- наречием и глаголом: *sekin gapirmoq*;
- прилагательным и глаголом: *yaqshi tanimoq*;
- деепричастием и глаголом: *kulib gapirmoq*.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. So‘zlarning bog‘lanishiga e’tibor bering. So‘z birikmalarini ko‘chirib yozing.

1. Salima ukasini bolalar bog‘chasiga olib ketdi. 2. Men kitobni bir kechada o‘qib bitirdim. 3. O‘zbekistonda chiroyli joylar ko‘p. 4. Shahrimizga har kuni minglab sayyohlar kelishadi. 5. Tongda boshlangan qor kechga borib ham tinmadi.

Topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Моя старшая сестра работает директором школы. 2. В заводской библиотеке много книг узбекских авторов. 3. Наш город всегда славился своим гостеприимством. 4. Наталья и Андрей уехали отдыхать в горы. 5. Наш край богат хлопком, шелком.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Lugʻat ishi

tikan	щипы
jon-u til bagʻishlab	одарив душой и языком
zogʻ	ворона
dard	болезнь
mubtalo boʻlgay	заболеет
tangri	всевышний
qul	раб
shoh, sulton	шах, султан
olov	пламя
yoʻq omon	спасения нет
kul	пепел
mutlaq	абсолютный,
	здесь: безоговорочный
dovul	вихрь
ishgʻol aylagach	после того как завоюет
mashgʻul qilur	занимает (делом)

Topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing. Mazmunini rus tilida aytib bering.

SEVGI

E.Vohidov

Sevgi shunday navbahorki,
U tikandan gul qilur,
Toshga jon-u til bagʻishlab,
Zogʻni ham bulbul qilur.

Sevgi shunday dard erurki,
Barcha boʻlgay mubtalo,
Mubtaloni neki qilsa,
Telba bu koʻngil qilur.

Sevgi shunday tangridirki,
Unga tengdir shox, gado,
Qulni aylab shoh-u sulton,
Shohni boʻlsa qul qilur.

Sevgi shunday bir olovki,
Jonga undan yoʻq omon,
Gulxanida oʻrtab-oʻrtab,
Bir kun oxir kul qilur.

Sevginingdir hukmi mutlaq,
Istasa shaydolarin,
Chashmi giryonidin ummon,
Ohidin dovul qilur.

Sevgiga she'r bitding Erkin,
Besabab ermas bu, ishq –
Aylagach ko'ngilni ishg'ol,
She'r ila mashg'ul qilur.

63 - mashg'ulot **Suhbat uchun savollar**

- Bu semestrda nechta fan o'qiyapsiz?
- Bulardan qaysilari amaliy kurslar?
- Qaysi fanlardan ma'ruzalar tugadi?
- Kuniga necha soatdan o'qiyapsiz?
- Qaysi fanlardan qiynalyapsiz?
- Qaysi fanlar siz uchun eng qiziqarli? Nima uchun?
- Qaysi o'qituvchining dars o'tishi sizga yoqadi? Nimasi bilan?

Topshiriq. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'ylab gapirmoq, shoshib kirib kelmoq, shu kecha, yo'qolgan kitob, shoshilinch xabar.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Он немного задумался над ответом. 2. Я приехал скорым поездом. 3. Мне однокурсники подарили серебряные часы. 4. Наши спортсмены тщательно готовятся. 5. Ахрор любит классическую музыку.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling. So'zlarning bog'lanishini tushuntiring.

Наш университет

Наш университет расположен рядом с парком имени Бобура. В университете 6 учебных корпусов. Наш факультет расположен на 3 и 4 этажах 1 го учебного здания. Всего в университете 12 факультетов. Студентов у нас около 8 тысяч. В университете занятия проводятся в две смены. Мы занимаемся во вторую смену. Занятия начинаются в 13.10 и заканчиваются в 18.40.

GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI

(Типы предложений по цели высказывания)

По цели высказывания предложения делятся на три группы: **darak gap** (повествовательное предложение); **so'roq gap** (вопросительное предложение); **buyruq gap** (побудительное предложение).

Darak gap. Повествовательное предложение сообщает о каком-либо факте, явлении и т.п. *Ulug'bekning ilmiy faoliyati uning shuhratini olamga yoydi* – Научная деятельность Улугбека прославила его на весь мир.

So'roq gap. Вопросительными называются те предложения, при помощи которых говорящий стремится что-либо узнать от собеседника. В узбекском языке они образуются тремя способами:

1. При помощи вопросительных частиц: *Sen institutda o'qiysanmi?* – Ты учишься в институте? *Akang- chi?* – А твой старший брат? *Shu kichkina bola-ya?* – Этот маленький мальчишка?

2. При помощи вопросительных местоимений: *Kim she'rni yoddan aytib beradi?* – Кто прочитает стихи наизусть? *Bozordan nimalar olmoqchisiz?* – Что вы собираетесь купить на базаре?

3. При помощи вопросительной интонации: *Soat besh bo'ldi* – *Soat besh bo'ldi?* Время - пять часов – Время - пять часов?

Buyruq gap. Побудительные предложения выражают различные оттенки волеизъявления: приказ, просьбу, угрозу и т.д. Сказуемое в этих предложениях чаще выражено глаголом повелительного поклонения: *Sen gaplarimga xafa bo'lma*

- Ты не обижайся на мои слова.

Все типы предложений по цели высказывания могут произноситься с восклицанием или в нормальном тоне. В конце восклицательных ставится восклицательный знак. После вопросительного предложения произносимого с восклицанием ставятся два знака: вопросительный и восклицательный: *Shu kichkina bola-ya?! – Этот маленький мальчишка?!*

Lug'at ishi

yamanlik	человек из Йемена
opichlab (yurmoq)	на спине (носить)
xonai ka'ba	по преданию ислама дом
tavof qilmoq	целовать, чтить
teva	верблюды (устаревшее)
shu xizmatim bilan	этой услугой
haqqini ado etmoq	выполнить долг
to'lg'oq	схватки (при родах)
valida	мать
tugal	сполна
pok	чистый

begumon	без сомнений
onasi poyiga	к ногам матери
hadis	сказания пророка Мохамеда

Topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini qapirib bering.

HADIS

(Imom Ismoil al Buxoriydan)

... Abdulloh ibn Umar bir yamanlik odam o‘z onasini opichlab, xonai ka’bani tavof qildirib yurganini ko‘rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o‘qirdi:

Onai zorim uchun bo‘ynimni ekan tevaman,

Tevaga mingan onam tolsalar ham men charchamam.

U shuni o‘qib turib, Abdullohga qaradi-da,:Ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqqini ado qila oldimmi, - deb so‘radi. “Yo‘q, bu xizmatim seni tug‘ish paytida onangni qiynab tutgan to‘lg‘oqlarining bittasiga ham barobar emas”... - dedi Abdulloh ibn Umar.

Topshiriq. To‘rtliklarni yod oling.

Anvar Hojiahmad

Ona ahli olam volidasidir,
Hurmatin ado et hamisha tugal,
Teng chaqirsa agar otang-u onang,
“Labbay” deb javob ber onangga avval.

Onalarning pok oyoqlari –
Ostidadir jannat begumon!
Jannat visolini kimki istasa,
Onasi poyiga bag‘ishlasin jon.

64 - mashg‘ulot Suhbat uchun savollar

- Siz qaysi shaharda yashaysiz?
- Shahringiz kattami?
- Shahringizda qanday yirik korxonalar bor?
- Shahringizda oliy o‘quv yurtlari ko‘pmi?
- Shahringizdagi eng ko‘rkam binolar qaysi?
- Siz yashayotgan shaharda qanday tarixiy obidalar mavjud? Ular qaysi asrlarga oid?
- Shahringizda yashab ijod qilgan shoir, olim va san’atkorlardan kimlarni bilasiz?

Topshiriq. Gaplarni o'qing. Ifoda maqsadiga ko'ra turuni aniqlang.

1. Nima, siz biz bilan ketmaysizmi? 2. Mehmonlar kelishdi? 3. Bugun O'zbekistonda hamma bir maqsad bilan yashaydi. 4. Tohir o'pkasini qo'ltiq lab kirib keldi.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Bolalar, yo'l harakati qoidalariga rioya qiling. 2. Mazkur buyruqning bajarilishi ustidan nazorat prorektor K.K. Mirsolihov zimmasiga yuklatilsin. 3. Umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi Z.K. Ikromova sirtqi bo'lim bo'yicha dekan o'rinbosari etib tayinlansin. 4. Mayli, men boraqolay, vaqt ham kech bo'lib qoldi. 5. Bahodir, o'zbek tili kitobingni berib tur-chi?

GAP BO'LAKLARI

(Члены предложения)

Член предложения – это слово или сочетание слов, выполняющее в предложении какую –либо функцию и отвечающее на конкретный вопрос. Например, в предложении. Bugun biz maktab bog'ida ishladik. Слово biz отвечает на вопрос kim?, и указывает на то, о ком идет речь. Слово ishladik отвечает на вопрос nima qildik?, выносит суждение о подлежащем и т.д.

Члены предложения делятся на: **bosh bo'laklar** (главные члены) и **ikkinchi darajali bo'laklar** (второстепенные члены).

Главными членами предложения являются: **ega** (подлежащее) и **kesim** (сказуемое). Они выражают основную мысль в предложении.

BOSH BO'LAKLAR

Ega. Подлежащее - главный член предложения, указывающий о ком или о чем идет речь в предложении. В узбекском языке оно может выражаться различными частями речи:

Существительным: O'qituvchimiz qiziq bir voqeani aytib berdi.

Местоимением: Bu – mening Vatanim.

Прилагательным: Oqlar boshlaydi va ikki yurushda mot qiladi. (Белые начинают и делают мат в два хода);

Числительным: Ikki – to'rtning yarmi?

Причастием: Ko'kka boqqan qoqilar. (maqol) (Буквально: смотрящий в небо споткнется).

Именем действия: O'qish – yuksalish.

Подражательным словом: Uzoqdan otlarning dupuri eshitildi. (Издали слышался топот лошадей).

Фразеологизмом: Uning oyoq olishi bizga yoqmadi. (Нам не понравилось его поведение).

Kesim. Сказуемое – главный член предложения, грамматически зависящий от подлежащего. Оно выносит суждение о подлежащем. Различают **fe'l kesim** (глагольное сказуемое) – выражается различными формами глагола, и **ot kesim** (именное сказуемое) – выражается другими частями речи. Так же различают **sodda kesim** (простое сказуемое) и **murakkab kesim** (составное сказуемое).

Сказуемое в узбекском языке выражается всеми частями речи:

Существительным: Toshkent – chiroyli shahar. Прилагательным: Hayot naqadar go'zal! Жизнь так прекрасна!

Числительным: Bizning uyimiz -- yettinchi. Наш дом – седьмой.

Местоимением: Hamma gap – shu. Вот весь разговор.

Наречием: Aytish oson, bajarish qiyin. Сказать легко, сделать трудно.

Глаголом: Men o'zbek tilini yaxshi bilaman.

Модальными словами: Bugun yig'ilish bor. Фразеологизмом: U nima deyishini bilmay, tilini tishladi. Он прикусил язык, не зная что сказать.

Topshiriq. Gaplarni o'qing, kesimni aniqlang, ifodalanishini tushuntiring.

1. Aqldan ortiq boylik yo'q (maqol). 2. Bahorda kunlar iliy boshlaydi. 3. Salim, menga kitobingni berib tur. 4. Aytmoqchi bo'lganim mana shular. 5. Orzuim yaxshi muhandis bo'lish. 6. Mana bu yigit sportchi. 7. Toxirning hamma ishi aniq va puxta. 8. Salima habarni eshitib, boshi ko'kka etdi.

Lug'at ishi

o'z so'zini ayta olgan	имевший свой голос
qatag'on qurbonlari	жертвы репрессий
yod olib	в память, вспоминая
xalq qalbidan chuqur	нашли отражение в сердце
joy egalladi	народа
kuyga solinib	написана музыка
sodda va ravon	просто и красиво
ohangdorlik	ритмичность
shoir qalamiga mansub	принадлежащий перу поэта
yo'rgak	пеленка
oq yuvib oq taramoq	ухаживать, растить
kuniga yaramoq	всячески поддерживать
tuzing totib unutganlar	забывшие твой хлеб и соль
ikki dunyo tor bo'ladi	будут тесны оба миров
bir kaft tuproq	горсть земли
bir jonu tan	сплоченный, единый

Topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering. She'ni yod oling.

MUHAMMAD YUSUF

Shoir Muhammad Yusuf 1951- yilda Andijon shahrida tug'ildi. Toshkent Davlat universiteti (hozirda O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan.

Muhammad Yusuf XX- asr oxiri o'zbek she'riyatida o'z so'zini ayta olgan shoirlardan biri edi. Ayniqsa, uning qatag'on qurbonlari Cho'lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo'jayevlarni yod olib yozgan she'rlari o'sha yillari xalq qalbidan chuqur joy egalladi.

Muhammad Yusufning odamiylik, sevgi va vafoni ulug'lovchi ko'plab she'rlari kuyga solinib, xalqimiz sevgan qo'shiqlarga aylandi.

Shoir she'rlari sodda va ravon til bilan yozilgan. Uning ijodida xalq qo'shiqlaridagi kabi ohangdorlik bor.

Istiqlol yillari Muhammad Yusuf Vatanni madh etuvchi bir qator she'rlar yozdiki, ularga kuy bastalanib, katta-katta bayramlarda ijro etib kelindi.

Shoir qalamiga mansub "O'zbekiston" qo'shig'i mamlakatimiz yoshlarining madhiyasiga aylandi:

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Oq yuvub, oq taragansan o'zing bizni,
Beshigimiz o'zra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston,
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo'ladi,
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi,
Tinch kuningni ko'rolmagam yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft tuprog'ingga zor bo'ladi.

Boldan shirin taxir qora bug'doying ham,
O'zingdan bo'lsa gar shohi gadoying ham,
Bir jonu tan bir-biringdan rozi yursang,
Xudoying ham sendan rozi xudoying ham.

Shoir Muhammad Yusuf 2001-yili vafot etdi. Uning qo'shiqlari, she'rlari esa xalq xotirasida hali uzoq yashaydi.

65 - mashg'ulot Suhbat uchun savollar

- O'zbekiston Respublikasida nechta viloyat bor?
- O'zbekiston aholisi qancha?

- O‘zbekistonning yirik shaharlarini aytib bering?
- O‘zbekistonda qaysi sohalar yaxshi rivojlangan?
- O‘zbekistonning hududi qancha?
- Respublika qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

Topshiriq. Bosh bo‘laklarni aniqlang.

1. Bugun kursdoshlarimiz Samarqandga jo‘nab ketishadi. 2. Yurtimizda chiroyli joylar ko‘p. 3. Men bahor faslini yoqtiraman. 4. Ikki karra ikki -- to‘rt. 5. Ko‘pni ko‘rgan ko‘p biladi (maqol). 6. Saodat bo‘lgan voqeani kula-kula gapirib berdi.

IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR

(Второстепенные члены предложения)

Второстепенные члены предложения служат для пояснения главных: подлежащего и сказуемого.

ANIQLOVCHI

(Определение)

Определение указывает на признак любого члена предложения, выраженного именем существительным или субстантивированным словом.

В узбекском языке оно бывает трех видов: **sifatlovchi** (качественное), **qahatqich** (притяжательное) и **izohlovchi** (изъяснительное).

Качественное определение указывает на признак предмета и может быть выражено:

прилагательным: Yurtimizda chiroyli joylar ko‘p.

существительным: Bolaligim - oltin davrim.

числительным: Birinchi uyda yashaymiz.

местоимением: Bu o‘lkada har narsa bor (H.O.).

причастием: O‘ylagan ishlarim amalga oshmadi.

Притяжательное определение указывает на принадлежность одного предмета другому и может быть выражено лишь словом в притяжательном узбекском падеже (qaratqich kelishigi) -- Yurtimizning suvi - zar, tuprog‘i - gavhar.

Изъяснительное определение называет предмет по-новому: Vatan – ona so‘zi naqadar laziz!

Lug‘at ishi

bo‘g‘iq	хрипкий
hali yodimda	до сих пор помню
bir zamonda	когда-то, в былые времена
tinmasdan	беспрерывно
qo‘lini band qilish uchun	чтоб занять свои руки

intilmoq	стремиться, стараться
jaranglamoq	звучать
sust	тихо
eshikka chiqibdi	вышел на улицу
yangroq	звонкий
ziyofat	банкет
darrov	быстро, тут же
fikrga sho'ng'idi	начал думать
hali	потом, здесь: тогда
tanbur	музыкальный инструмент

Topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

LATIFA

Oybek

... Men bir vaqtlar qarindoshlarim orasida ashula aytgan edim. Dadam: “Bolam, qorning to‘q ekan, ovozing bo‘g‘iq chiqdi”,-dedilar. Biz tushunmadik. Keyin o‘sha voqeani hikoya qilib berdilar, hali yodimda.

-Bir zamonda, -dedilar dadam, -Aflotun degan bir kishi o‘tgan ekan. U hech tinmasdan fikr qilar ekan. Lekin fikr qilganda soqolini bittadan yulib olaverar ekan. Qo‘lini band qilish uchun bir narsa o‘ylab chiqarishga intilibdi. Axiri, bir tanbur yasabdi. Tanbur jaranglamabdi. Hayron bo‘lib o‘tirgan ekan, ko‘chadan hali baland ovoz bilan ashula aytib o‘tgan yigitlar yana ashula bilan qaytishibdi. Lekin yigitlarning ovozi endi juda sust, bo‘g‘iq ishitilibdi. Aflotun yuqurib eshikka chiqibdi, yigitlarni to‘xtatib so‘rabdi:

-Bolalarim, hali ovozlaring juda baland, yangroq edi. Endi nima uchun sust bo‘lib qoldi?

Yigitlar kulib, shunday javob berishibdi:

-Hali qornimiz och edi, ziyofatga bordik. Qornimiz to‘yib, ovozimiz pasaydi.

Aflotun darrov uyga kiribdi, tanburga qarab: qorning to‘q ekan, debdi-da tanburning ichini kavlabdi. Ana shundan keyin tanbur jaranglab chiqibdi. Aflotun tanburni chalib, soqolini yulmasdan fikrga sho‘ng‘ibdi.

Topshiriq. Matn mazmuniga oid 7-8 ta savol tuzing. Mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

66 - mashg‘ulot

Suhbat uchun savollar

1. Siz qaysi oily o‘quv yurtida o‘qiysiz?
2. Yana qaysi oily o‘quv yurtlarini bilasiz?
3. Oily o‘quv yurtingiz qayerda joylashgan?
4. Oqishni bitirib kim bo‘lasiz?

5. Do‘stlaringiz qaysi oily o‘quv yurtida oqishadi?

TO‘LDIRUVCHI

Дополнение – второстепенный член предложения, обозначающий предмет на, который направлено действие. Оно бывает двух видов: **vosutasiz** (прямое) и **vosutali** (косвенное).

Прямое дополнение обозначает предмет, на который непосредственно направлено действие, и стоит в форме *tushum kelishigi* (винительного падежа) – *Ko‘rgan eshitganni engibdi* (Слышавший переспорил видившего).

Косвенное дополнение обозначает объект, действие на который направлено косвенно, и может выражаться словами в форме дательного, местного и исходного падежей, а также именительного в сочетании с послелогом: *Dekan davlat attestatsiyasi haqyda gapirdi* – Декан говорил о государственной аттестации.

Topshiriq. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

Vatanni sevmok, o‘tmishi bilan faxrlanmok, kitobdan o‘qimok.

Lug‘at ishi

niyat	пожелание
pok, pokiza	чистый
taft	температура, тепло
beg‘ubor	чистый, прозрачный
mudom	вечно
yog‘du	сияние
barkamol	развитый
ezgulik	доброта
haqlik	правдивость

Topshiriq. Yangi so‘zlar ishtirokida 3-4 ta gap tuzing.

Topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.

USTOZ

S.Soliyev.

Ona suti kabi niyatingiz pok,
Mehringiz saraton bag‘riday issiq,
Beg‘ubor dilingiz nur kabi oppoq,
Siymongiz dilimda, billurdek tiniq.

Ustozni nur deydi, sevadi inson,
So‘zlarin dur deydi, teradi inson,

Bergan ta'limingiz quyo'sh nuriday,
Yo'limiz yoritdi, yashnadi zamon.

Ustozim tilimda, dilimda mangu,
Mehribon onamdek sevaman mudom,
Ustozim so'zlari dilimda yog'du,
Shu sabab bo'loldim barkamol inson.

Ustozim sevaman toki hayotman,
Nomini nur kabi saqlab pokiza,
Ezgulik, haqlikni o'rgangan zotman,
Bir umr ustozdan olib andoza.

Topshiriq. Sevimli ustozingiz haqida hikoya qilib bering.

67 - mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

- Siz o'zbek shoiralaridan kimlami bilasiz?
- Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini o'qiganmisiz?
- O'tmishda ijod qilgan qaysi shoiralarni bilasiz?
- Nodira, Uvaysiy kabi shoiralarning hayoti haqida nimalarni bilasiz?

HOL

(Обстоятельство)

Обстоятельство — это второстепенный член предложения, уточняющий характер (образ) действия, обстановку, условие, место, время, цель, причину, меру и степень совершения действия.

В узбекском языке различают следующие разряды обстоятельств:

1. Vaziyat holi. Обстоятельство образа действия обозначает способ совершения действия, отвечает на вопросы *qanday?* (как?), *qanday qilib?* (каким образом?). Выражается наречием, деепричастием, а также прилагательным: *U juda chiroyli yozadi. O'qituvchimiz doim kulib gapiradi.*

O'rin holi. Обстоятельство места обозначает место происхождения действия, отвечает на вопросы *qayerga?* (куда?), *qayerda?* (где?), *qayerdan?* (откуда?), *qayergacha?* (до какого места?): *Universitetgacha tramvayda yarim soat yuraman.*

Payt holi. Обстоятельство времени указывает на время совершения действия, отвечает на вопросы *qachon?* (когда?), *qachondan (beri)?* (с каких пор?), *qachongacha?* (до каких пор), *qachonga?* (на какое время?): *Majlis dushanbaga belgilandi.*

Sabab holi. Обстоятельство причины указывает на причину совершения действия, отвечает на вопрос nima sababdan? (по какой причине?): U sevinganidan qichqirib yubordi.

Maqsad holi. Обстоятельство цели указывает на цель выполнения действия, отвечает на вопрос nima maqsadda? (с какой целью?): Buvimni ko'rgani kasalxonaga bordim.

6. **Daraja - miqdor holi.** Обстоятельство меры и степени указывает на меру и степень действия, иногда и предмета, отвечает на вопросы qancha? (сколько?), necha marta? (сколько раз,), nechanchi marta? (в который раз?), qanchalik? (насколько?), qanchalab? (по сколько?): Senga necha marta aytaman?

Shart holi. Обстоятельство условия указывает на условие выполнения действия, отвечает на вопрос qay sharoitda? (при каких условиях?), выражается глаголом в условном наклонении: U bugun ulgursa keladi.

8. **To'siqsizlik holi.** Обстоятельство уступительное, указывает на действие, вопреки которому совершается действие, обозначаемое сказуемым. Выражается глаголом в условном наклонении в сочетании со словом ham: Nodira charchasa ham ishida davom etdi.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Салим прекрасно владеет английским языком. 2. Атабек настолько увлекся игрой, что забыл про встречу с Маъруфом. 3. Мне необходимо быть у директора к семи часам. 4. Я принесу тебе книгу, если найду. 5. Иногда он читал нам свои стихи. 6. Отец Абдурашида здорово поет.

Topshiriq. Maqollarni oqing, yod oling. Hol vazifasidagi so'zlarni toping? Holning turini aniqlang.

1. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi. 2. O'ynab- gapirsang ham, o'ylab gapir. 3. Yer haydasang, kuz hayda. 4. Ishni ko'p ko'zla, gapni oz so'zla. 5. Ishtaha ovqat mahalida keladi.

Topshiriq. Holning har bir turini qatnashtirib gap tuzing.

Lug'at ishi

скамейка	o'rindiq
палка	cho'p
похож(а)	o'xshash, o'xshaydi
было трудно рисовать	chizish qiyin edi
сухой	quruq
через месяц	bir oy o'tib
часто	ko'pincha, tez-tez
никак не могла понять	sira tushuna olmas edi

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

ОНИ ВСТРЕТИЛИСЬ

А. Арканов

- Давай, посидим здесь, - сказала она.
- Нет, сядем на скамейку, - сказал он, - там песок. Я люблю желтый песок. Они сидели на маленькой скамейке рядом. Он что-то рисовал палкой на желтом песке.
- Что ты рисуешь?
- Это ты.
- Не похожа.
- Ну и пусть!
- Ему трудно было рисовать. Песок был сухой. Дул теплый ветер.
- Давай, завтра придем сюда опять, - сказала она, - ты придешь сюда опять? Правда?
- Правда.

Но он не пришел завтра, не пришел послезавтра. Не пришел через два дня, через месяц. Он больше не пришел. Она после этого часто сидела на маленькой скамейке одна. Она думала и никак не могла понять, почему он не пришел...

* * *

Она не знала, что родители отдали его в другой детский сад.

68 - mashg'ulot

UNDALMA

(Обращение)

Обращение — это слово (или группа слов), называющее того, к кому обращена речь. Обращение грамматически не связано с членами предложения. В письме оно выделяется запятыми. Обращение произносится с особой интонацией: Vatan, sen bunchalar ko'rkam, Dunyoni qizg'onma mendan, azizim. (A.Oripov). Sabr qil, bolam, avval akang kelsin.

KIRISH SO'Z VA BIRIKMALAR

(Вводные слова и сочетания слов)

Вводные слова (сочетания слов) могут указывать:

- на источник высказывания: Menimcha, bu yigit universitetimizda o'qiydi.
- на последовательность мысли: Avval o'yla, keyin so'yla.
- на вывод, заключение, способ выражения мысли: Xullas, safar hammamiz uchun ham foydali bo'ldi.
- выразить уверенность: Albatta, biz bilan ketasiz.
- сомнение: Ehtimol, biz bilan ketarsiz и т.д.

GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

(Однородные члены предложения)

Однородными членами предложения являются такие члены предложения, которые выполняют одинаковые синтаксические функции и отвечают на один и тот же вопрос, они связаны друг с другом сочинительной связью.

Однородными могут быть любые члены предложения:

Подлежащие: Shahrimizda ko'plab yangi makfab, litsey va kollejiar qurildi.

Сказуемые: O'zbek tili darsida biz o'qiyimiz, yozamiz va tarjima qilamiz.

Определения: Shahrimizda baland va ko'rkam binolar ko'p.

Дополнения: Ma'ruf do'kondan daftar, qalam va bo'yoqlar sotib oldi.

Обстоятельства: Kecha va bugun yomg'ir yog'di.

Обращение: Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar.

Topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. По - моему, вы заблуждаетесь. 2. Пешеходы, будьте осторожны, переходя дорогу. 3. Сегодня, ребята, мы пойдем в музей. 4. В университете действуют спортивные секции, различные кружки.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

